



Artikbayev O.S., Turdimuratov Ya.A.

# YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA  
SPORT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA  
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

**Artikbayev O.S., Turdimuratov Ya.A.**

## **YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI**

*(o‘quv qo‘llanma)*

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar  
siyosati va sport vazirligining 2023-yil 26-dekabrda 01/1336-  
A/F-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berilgan.  
(qayd raqami 01/1336-A/F-4/1)

Toshkent  
“Zamon poligraf”  
2023

UO‘K 94(575.1)

KBK 63.3(50‘)

A 61

**Artikbayev Oybek Salimaxamatovich, Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich.**

Yangi O‘zbekiston tarixi [Matn]: O‘quv qo‘llanma / O.S.Artikbayev, Ya.A.Turdimuratov. “Zamon poligraf” nashriyoti – Toshkent, 2023. – 194 b.

**Taqrizchilar:**

**K.A.Tuxtabekov** Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti O‘zbekiston tarixi kafedrasida dotsenti, t.f.n.

**N.Raximov** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti., tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**B.B.Jahongirov** O‘zDJTSU Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasida dotsenti, t.f.n.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchi-izlanuvchilar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

**ISBN: 978-9910-9970-5-1**

© Artikbayev O.S., Turdimuratov Ya.A.

© “Zamon poligraf” nashriyoti, 2023

## KIRISH

*Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug' maqsadimiz –  
Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratamiz.*

Mirziyoyev Sh.M.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qat'iy qadam qo'yganini anglatadigan jadal islohotlarning pirovard maqsadi tom ma'noda inson, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng yuksak qadriyat sifatida tan olinadigan demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishdir. Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Yangi O'zbekistonni buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan, mehnatkash, azmu shijoatli, adolatni qadrlaydigan xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz hamda islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz zarur”, deb ta'kidlagani maqsadimiz qat'iyiligiga yana bir dalolat. “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib borayotgani ana shu serqirra jarayonning mazmun-mohiyatini anglatadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda fuqarolik jamiyati deganda shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishga va inson kapitali oshishiga xizmat qiladigan, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari maksimal darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadigan, qonun ustuvorligi va adolat mezonlari tantana qilgan ijtimoiy makon tushuniladi. Xalqaro hamjamiyat uchun ochiq, barqaror rivojlanayotgan O'zbekistonning eng muhim paradigmalari, ustuvor tamoyillari va amaliy hayot mezonlari davlatimiz rahbari belgilab berayotgan vazifalarda o'z aksini topmoqda. Bu jihatdan yangi O'zbekistonni barpo etishda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda:

*birinchidan*, islohotlarning bosh maqsadi inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmat, or-nomusi, ehtiyojlari va manfaatlariga qaratilgani. Eng muhimi, butun xalqimiz va davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va biznes hamjamiyati, hayotning barcha jabhalarini erkinlashtirish, Harakatlar strategiyasida belgilangan olijanob maqsadlarga erishish g'oyalari atrofida jiplashayotgani;

*ikkinchidan*, jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvi tubdan o'zgarib, "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyiliga amal qilinayotganligi;

*uchinchidan*, qonun va adolat ustuvorligi tamoyillarini hayotga qat'iy tatbiq etish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samarali faoliyat ko'rsatayotgan davlatlar qatoriga kirishga intilish, adolatli qonun va qarorlar qabul qilish, aholining adolatli sudlovga ishonchini oshirish islohotlarning muhim tarkibiy qismiga aylanayotgani;

*to'rtinchidan*, jadal yangilanishdan jamiyat taraqqiyoti va gullab-yashnashi tomon, "xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi", monopoliyaning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik va raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash, shaxsiy mulkni hurmat qilish kabi tamoyillar hayotga tatbiq etilayotgani;

*beshinchidan*, erkinlik, mas'uliyat, halollik, adolat, bag'rikenglik va imkoniyatlar tengligi davlat va jamiyat rivojida dasturilamal bo'layotgani, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uyg'unligiga tayanadigan adolatli fuqarolik jamiyati barpo etilayotgani, konstitutsiyaviy parlament demokratiyasi, erkin bozor iqtisodiyotining mamlakatimiz va xalqimiz ravnaqi asosiga aylanayotgani;

*oltinchidan*, rivojlangan davlatlar "to'rtinchi sanoat inqilobi" arafasida turgan bir paytda O'zbekistonning raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatimizning innovatsion rivojlanish yo'lidan jadal harakatlanishi, "bilimlar iqtisodiyoti", "raqamli iqtisodiyot", "erkin axborot jamiyati" hamda insonparvar axborot maydoni shakllantirilayotgani;

*yettinchidan*, yuqori fuqarolik mas'uliyati, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan va hozirda yangi O'zbekistonni barpo etayotganlarning navqiron avlodi, barkamol yoshlar uchun munosib hayot sharoitlari, innovatsion ta'lim va umuminsoniy tamoyillarga asoslanadigan milliy tarbiya muhiti va uning samarali tizimi yaratilayotgani.

Mamlakatimizning yangi qiyofasi ana shunday omillar va serqirra islohotlar jarayonida barpo etilmoqda. Buning natijasida xalqimiz va mamlakatimizning zamonaviy qiyofasi shakllanmoqda. Ayni paytda bularning barchasi yangi jamiyatni barpo etish

yoʻlidagi islohotlarning ortga qaytmasligi, bu yoʻldan qatʼiyat va sobitqadamlik bilan borilayotganini anglatadi. Yangi Oʻzbekiston Prezidentimizning hayotbaxsh gʻoyalari asosida, xalqimizning fidokorona mehnati evaziga barpo etilmoqda.

2017-yildan boshlab Oʻzbekiston oʻz taraqqiyotining yangi – Milliy yuksalish bosqichiga kirdi. Oʻzbekiston tarixining aynan shu davri haqida hikoya qiluvchi mazkur ilk oʻquv qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining buyrugʻi bilan 2023-yilda tasdiqlangan “Yangi Oʻzbekiston tarixi” fani boʻyicha oʻquv dasturi asosida tayyorlangan.

Mazkur oʻquv qoʻllanmada mamlakatimizda 2017-2021-yillarda Oʻzbekistonni rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi va 2022-2026-yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar yuzasidan davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligi va sud-huquq tizimida, iqtisodiyot, ijtimoiy va maʼnaviy sohani rivojlantirish, faol tashqi siyosat borasida amalga oshirilgan islohotlar, buning natijasida sohalarda, aholi turmush tarzida yuz bergan tub oʻzgarishlar haqida maʼlumotlar keltirilgan.

## 1-§. MILLIY TIKLANISH DAVRI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.** Ma‘lumki, O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar ushbu yo‘lda dastlabki muhim qadamlar biroz oldinroq tashlangan edi. Jumladan, **1990-yil 24-mart** kuni respublikamizda prezidentlik boshqaruvi joriy etilgan bo‘lsa, o‘sha yili **20-iyunda** XII chaqiriq Oliy Kengash II sessiyasida O‘zbekistonning Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Mustaqillik Deklaratsiyasi **12 banddan** iborat bo‘lib, ularda mustaqillikka oid muhim tartib-qoidalar belgilab qo‘yildi. Mazkur Deklaratsiyasining qabul qilinishi mamlakatimizning tom ma‘nodagi haqiqiy mustaqillikka erishish yo‘lida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Sababi shundan e‘tiboran mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal etila boshlandi.

**1991-yil 31-avgust** kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiyada O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.A. Karimov nutq so‘zlab, sobiq Ittifoqda so‘nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to‘ntarishiga antikonstitutsiyaviy urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O‘zbekiston taqdiriga, xalqimiz taqdiriga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qildi va uni mustaqillik to‘g‘risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi.

Sessiyada **3 ta** muhim huquqiy hujjat qabul qilindi: 1) “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Oliy Kengash Bayonoti; 2) “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e‘lon qilish to‘g‘risida” Oliy Kengash qarori; 3) “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” qonun. Ushbu qonun **17 moddadan** iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Qonunning 1-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z tarkibidagi Qoraqalpog‘iston

Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir”, - deb belgilab qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasi **1991-yil 30-sentyabrda** “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qildi. Qarorda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi konstitutsiyasi moddalarini “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun moddalariga zid kelgan hollarda mazkur qonunga amal qilinsin, deb belgilab qo‘yildi.

**1991-yil 18-noyabrda** bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Qarorda **1991-yil 29-dekabr**, yakshanba kuni O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi masala bo‘yicha referendum o‘tkazish belgilandi. Referendumda ovoz berish byulleteniga quyidagi savol kiritildi: “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e‘lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini ma‘qullaysizmi?”. Mazkur referendumda 9.8989.707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishga qatnashganlarning **98,2 foizi** referendumda qo‘yilgan savolga “Ha”, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini ma‘qullaymiz, deb ovoz berdi.

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi ro‘yobga chiqdi. Mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy qaramlikdan, asoratdan qutuldi. Davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi O‘zbekiston xalqining hayotida muhim tarixiy voqea bo‘ldi. Mustaqillik xalqimizga o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘zlari uchun munosib turmush yaratish erkinligini berdi. 1991-yil 31-avgustdan e‘tiboran Vatanimiz tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. O‘zbekiston xalqi o‘z taqdirini o‘z qo‘liga oldi, siyosiy, ma‘naviy mutelikdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to‘la huquqli, suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat ramzlarning qabul qilinishi.** Dunyodagi suveren deb e‘tirof etilgan har bir mamlakat o‘zining Konstitutsiyasi, davlat ramzlari – gerbi, bayrog‘i, madhiyasiga ega. O‘zbekiston Respublikasi



mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o'zining davlat ramzlarini yaratishga alohida e'tibor bilan qaradi. Jahon tajribasi ko'rsatadiki, mustaqil huquqiy demokratik davlatning tashkil topishi va rivojlanishining asosiy sharti Konstitutsiyaning mavjudligidir.

Mamlakatimizda milliy huquqiy davlat qurish, demokratik jamiyat barpo etish, bozor munosabatlarini shakllantirish kabi dolzarb vazifalar mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishni taqozo etardi. Vujudga kelayotgan yangi siyosiy partiyalar, jamoat harakatlari, jamoat tashkilotlarining yuridik manfaatlari, jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, milliy totuvlikni ta'minlash masalalari yangi Konstitutsiya qabul qilishga ehtiyoj tug'dirdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquq sub'yektiga aylanishi, mustaqil davlat sifatida jahonga tanishi uchun ham Konstitutsiya qabul qilinishini talab qilardi.

Yangi Konstitutsiyani tayyorlash g'oyasi ilk bor **1990-yil mart** oyida Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan edi. O'sha yili **20-iyunda** bo'lib o'tgan O'zbekiston Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo'jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi.

Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida qariyb 2,5 yil ishladi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Konstitutsiyaviy komissiyaning **1991-yil 12-aprelda** bo'lgan yig'ilishida komissiya a'zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat 32 kishilik ishchi guruhi tuzildi. Konstitutsiya bo'limlarini tayyorlash bo'yicha 50 kishidan iborat 6 ta kichik guruhlar tuzildi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va „O'zbekiston Respublikasining

davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, bu qonunga Konstitutsiyaviy maqom berilishi Konstitutsiyaviy komissiya mas'uliyatini yanada kuchaytirdi.

Loyihaning dastlabki varianti 1990-yil oktyabr-noyabrigacha tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, olti bo'lim va 158 moddadan iborat edi. Bu loyiha hali mukammal emasligi boisi, uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash zarur edi. 1992-yil bahorida loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yil 26-sentabr va 21-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun 2 marotaba matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davomida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirilib, komissiya tomonidan ko'rib chiqish uchun qabul qilindi. Konstitutsiya xalqimiz siyosiy tafakkuri mahsuliga aylandi. Islom Karimov Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o'zining katta hissasini qo'shdi.

**1992-yil 8-dekabrda** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida mamlakatimiz yangi Konstitutsiyasini qabul qilish masalasi muhokama qilindi. Sessiya davomida deputatlar tomonidan loyihaga **80 ga yaqin** o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritildi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish to'g'risida"gi Qonun va "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e'lon qilish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo'ldi.

2021-yilgi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi jarayonida jamoatchilik tomonidan Asosiy qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, uni bugungi kun talablari darajasiga olib chiqish yuzasidan ko'plab takliflar bildirildi. Bularning barchasi xalqimiz amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlarga befarq emasligi, islohotlarning faol ishtirokchisi bo'lishga intilayotganidan dalolatdir. Mamlakatda konstitutsiyaviy islohotlarning amalga oshirilishi "*Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi xalqdir*" degan oqilona tamoyilga asoslandi. Bu muhim strategik vazifani

amalga oshirishda ham jahon, ham mamlakatimizning ilg'or tajribasi puxta o'rganildi, xalqimiz bilan to'liq hamjihatlikda ishlar olib borildi.

2021-yilda O'zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqini tabriklar chog'ida Asosiy qonunga o'zgartirish kiritilishi lozim bo'lgan 9 ta yo'nalishni sanab o'tdi va o'sha yili **6-noyabrda** inauguratsiya marosimidagi nutqida O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishni taklif qildi. 2022-yil 20-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisida Asosiy qonunga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish uchun Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Parlament quyi palatasi raisining birinchi o'rinbosari Akmal Saidov uning rahbari etib tasdiqlandi.

**2022-yil 25-iyunda** "Bu mening Konstitutsiyam" portalida "Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi konstitutsiyaviy qonun loyihasi o'zbek va rus tillarida jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi. Loyihada Konstitutsiyaning 64 moddasiga 200 dan ortiq o'zgartirishlar kiritish ko'zda tutilgan edi. **2022-yil 1-avgust** kuni O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish loyihasi bo'yicha fuqarolardan takliflarni qabul qilish yakunlandi. 2023-yil 10-martda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari "O'zbekiston Konstitutsiyasi to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni qabul qildi. Konstitutsiya matni **65 foizga** yangilangan, shuning uchun hujjat nomi "Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar"dan "Yangi tahrirdagi Konstitutsiya"ga o'zgartirildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan aholidan 220 mingdan ziyod takliflar kelib tushgan.

Bunga qadar 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami **15 marta** o'zgartirish kiritilgan bo'lib, barchasi davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirilgan edi. Shaxs huquq va erkinliklari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, inson huquq va erkinliklarining kafolatlari, fuqarolarning burchlari sohasida o'zgarishlar kuzatilmadi. Ilgari amalda bo'lgan "davlat – jamiyat – shaxs" tamoyili yangisi bilan almashtirildi: "shaxs – jamiyat – davlat".

**2023-yil 30-aprelda** O'zbekistonda yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha referendum o'tkazildi.

Referendumda saylovchilarning 84,5 foizi qatnashgan. Ro'yxatga kiritilgan 19 722 809 saylovchidan 16 667 097 nafari ovoz berdi. Ulardan 611 320 nafari muddatidan oldin ovoz berishda qatnashdi. Ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 90,2 foizi yoki 15 034 608 nafari yoqlab, 9,35 foizi yoki 1 558 817 nafari o'zgarishga qarshi ovoz bergan. Yaroqsiz deb topilgan byulletenlar soni 73 672 ta yoki 0,44% ni tashkil etdi.

**65 foizga** yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri **2023-yil 1-maydan** e'tiboran kuchga kirdi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Amaldagi 128 ta moddadan 91 tasiga konseptual o'zgartirishlar kiritildi. U muqaddima, 6 bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi muqaddimasida davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar aniq belgilab berilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish ekanligi qat'iy belgilandi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Ayniqsa, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlangani e'tiborga sazovor.

**1991-yil 15-fevralda** O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qildi. O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kunning o'zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko'rildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining **1991-yil 18-noyabrda** bo'lib o'tgan VIII sessiyasi "O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i ramzi mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar

bayroqlariga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublika tabiatiga xos xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy o'zligini ham aks ettiradi.

Bayroqdagi *moviy rang* – mangu osmon va musaffo suv ramzidir. Yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhratga sadoqatni bildiruvchi moviyrang Sharqda azaldan qadrlanadi, o'z vaqtida buyuk Amir Temur ham o'z bayrog'iga bu rangni tanlagan. *Oq rang* – tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat o'z yo'lida baland dovonlardan oshib o'tishi kerak. Bayrog'imizdagi oq rang yo'limizning musaffo va charog'on bo'lishi uchun yaxshi niyat ramzidir.

*Qizil yo'llar* – bu har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzidir. *Yashil rang* – serne'mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda, uning ramzi ham yashilrangdir. *Yarim oy* – O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analariga muvofiq keladi. Yarim oy va yulduzlar – musaffo osmonning va tinchlikning ramzlaridir. Bayrog'imizda *12 yulduz* tasviri bor, bu o'lkamizda qadimdan buyon barkamollik, mukammallik timsoli hisoblanadi. Davlat bayrog'i – bizning o'tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir.

**1992-yil 2-iyulda** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Gerbning markazida tasvirlangan – qanotlarini keng yozib turgan *Humo qushi* – baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy Humo qushini barcha tirik mavjudotlar ichida eng saxovatlisi deb ta'riflagan.

Gerbning yuqori qismida respublikamizning sobit va barqarorligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. U "qutlug'" degan ma'noni anglatadi. Uning ichida yarim oy va besh qirrali yulduz ifodalangan. *Quyosh* tasviri – davlatimizning yo'li hamisha nurlil bo'lishi uchun bildirilgan yaxshi niyat timsoli. Ayni paytda u respublikamizning noyob iqlim sharoitini ham ko'rsatib turadi. *Boshoqlar* – rizq-ro'zimiz bo'lmish g'allaning timsoli, oppoq bo'lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g'o'za shoxlari – serquyosh yurtimizning dong'ini butun dunyoga taratgan

asosiy boyligimiz ramzidir. Bug‘doy boshloqlari va paxta chanoqlarining davlatvbayrog‘iga o‘xshagan lenta bilan o‘rab qo‘yilganligi – bu respublikada yashayotgan xalqlar yakdilligining timsolidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining **1992-yil 10-dekabrda** bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov (1941–2016) va bastakor Mutal Burhonov (1916–2002) tomonidan tayyorlangan madhiya varianti tasdiqlandi. Davlat madhiyasi davlat mustaqilligining timsoli bo‘lib, u O‘zbekiston fuqarosida vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Mustaqil, erkin davlatning asosiy belgisi, asl poydevori – milliy valyutadir. O‘z valyutasiga ega bo‘lmagan davlat o‘z manfaatlarini ko‘zlab mustaqil ravishda moliya-kredit, bank siyosatini yurita olmaydi, o‘z taqdirini, tashkilotlar, xo‘jaliklar va fuqarolar taqdirini belgilay olmaydi. Shu boisdan milliy valyutaga o‘tish O‘zbekiston uchun oliy maqsad edi. **1994-yil 16-iyundagi** “*O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to‘g‘risida*”gi Prezident farmoni va Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan **1994-yil 1-iyuldan** boshlab milliy valyuta – so‘m muomalaga kiritildi. 1 so‘m kursi 1000 so‘m-kuponga tenglashtirilgan holda joriy qilindi.

**Milliy istiqlol davri bosqichlari.** Mamlakatimiz tarixining mustaqillik davrida o‘tgan yillar davomida amalga oshirilgan o‘zgarishlar va islohotlar, ularning samaradorligiga qarab belgilash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu nuqtayi nazardan milliy-mustaqillik davrini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin bo‘ladi.

*Birinchi bosqich* 1991-2000-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda mustaqillikning mustahkam poydevori bunyod etilib, “Ozbek modeli” asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yol tutildi, O‘zbekiston jahon hamjamiyati tomonidan tan olindi, milliy istiqlol mafkurasi jamiyat hayotiga keng kirib bordi. Bu davrda milliy davlatchilik asoslari va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirishga qaratilgan o‘tish davrining dastlabki islohotlar jarayoniga ilk qadamlar qo‘yildi. Demokratik an‘analar asosida yangi davlat boshqaruv tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va

sud hokimiyati tashkil etildi, hamda fuqarolik jamiyati asoslari yaratildi, erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tila boshlandi.

*Ikkinchi davri* 2001-2010-yillarni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqich, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning ta’biri bilan aytganda, “fan demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta’minlashda g‘oyat muhim rol o‘ynagan davr boldi”. 2001-yildan mamlakatda faol demokratik yangilanish va modernizatsiyalash jarayonlari kuzatildi. 2002-yili bo‘lib o‘tgan Oliy Majlisning IX sessiyasida mamlakatning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ayni ana shu ko‘p qirrali islohotlarni amalga oshirishning yangi tamoyillarini o‘rtaga tashladi. Unda islohotlarga doir 7 ta masala – ustuvor yo‘nalish belgilab berildi. Shu davrdan asosiy vazifasi qilib “*kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati*”ga bosqichma-bosqich o‘tish vazifasi qo‘yildi. Natijada mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari chuqurlashdi, inson haq-huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi mustaqil sud tizimi mustahkamlandi, fuqarolik jamiyati asoslari rivojlandi.

2010-2016-yillarini o‘z ichiga olgan *uchinchi bosqichida* davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish, sud huquqi va axborot sohaslarini isloh qilish, saylov huquqi erkinligini ta’minlash, fuqarolik institutlarini rivojlantirish, bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish davri bo‘lib qoldi. 2010-yildan demokratik islohotlar va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonini yanada chuqurlashtirish masalasi ilgari surildi. Uning boshlanishi O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish konsepsiyasining ishlab chiqilishi bilan bog‘liqdir. Bu davr davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, axborotlashtirish sohasini isloh etish, so‘z erkinligini ta’minlash, saylov qonunchiligini takomillashtirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

2016-yil 2-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning vafot etishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Prezident saylovi kunini belgiladi. 2016-yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan umumxalq prezident saylovida saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 million 461 ming 805 saylovchidan 17 million 951 ming 667 nafari ishtirok (87,73 foiz) etdi. Saylov natijalariga ko'ra, S.S. Otamuratovni yoqlab 421 ming 55 saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 2,35 foizi, Sh.M. Mirziyoyevni yoqlab 15 million 906 ming 724 saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foizi, X.A. Ketmonovni yoqlab 669 ming 187 saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 3,73 foizi, N.M. Umarovni yoqlab 619 ming 972 saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 3,46 foizi ovoz berdi. Shunday qilib, natijalarga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyev g'olib chiqdi.

2017-yildan to bugungi kungacha davrni o'z ichiga olgan navbatdagi bosqichi mamlakatimizda hamma sohalarda yangilanishlar davri bo'lib, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni hayotga tatbiq etish, jamiyatimizni barcha sohalarda isloh etish, uning reyting salohiyatini ko'zda tutish jarayonlari bilan bog'liqdir. Bu bosqich tariximizda "Yangilanayotgan O'zbekiston – yangicha qarashlar" davri deb baholanmoqda.

Ta'kidlash lozimki, taklif etilayotgan ushbu davrlashtirish bu mavzuni yakunlamaydi. Tarix fanini o'qitish borasida dolzarb bo'lib turgan davrlashtirish masalalari hali jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lishi tabiiydir. Ammo, bu yo'nalishda aniq konsepsiya ishlab chiqilib, o'quv jarayoniga joriy etilishi davr talabidir.

**O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li. 1992-yil 4-yanvarda XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX sessiyasida Islom Karimov**



soʻzlagan dasturiy nutqida hamda 1992-yil avgust oyida nashr etilgan “Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli” nomli asarida Oʻzbekistonning taraqqiyot yoʻlini har tomonlama puxta asoslab berdi. Milliy istiqlolning dastlabki kunidayoq chinakam Mustaqil Oʻzbekistonnin barpo etish, har qanday “izm”lardan xoli xalqchil, adolatli jamiyat qurish bosh maqsad qilib qoʻyildi. Davlatimiz ichki va tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlari ham shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda belgilandi.

Kelajagi buyuk Oʻzbekiston davlatining siyosati inson va jamiyatning erkinligini, fuqarolarning farovon turmushini taʼminlashga qaratilgan. Islom Karimov oʻzining mazkur asarida jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishini insonga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini oʻzi erkin tanlab olishini kafolatlaydigan darajada isloh etish, tubdab yangilash vazifalarini belgilab berdi. Shu bois siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va maʼnaviy sohada bir qator muhim vazifalar belgilandi.

**1993-yilda** nashr etilgan “Oʻzbekiston – bozor munosabatlariga oʻtishning oʻziga xos yoʻli” nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning 5 tamoyilini asoslab berdi. 1) Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, 2) Davlat bosh islohotchi, 3) Qonunning barcha sohalarda ustuvorligi, 4) Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, 5) Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich oʻtish.

Taraqqiyotning “oʻzbek modeli” bundan oldin yaratilgan va mavjud boʻlgan modellarning birontasini takrorlamagan holda oʻz mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yoʻl xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning “oʻzbek modeli” deb qabul qilindi.

Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarini chuqurlashtirish, “*Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari*” tamoyilini hayotga tatbiq etish, bu borada nodavlat notijorat va notijorat tashkilotlarining roli va ahamiyatini oshirish ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylandi. I.A. Karimovning Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining **2010-yil 12-noyabrda** boʻlib oʻtgan qoʻshma majlisidagi “*Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasi*” mavzusidagi nutqi muhim ahamiyat kasb etdi. Konsepsiyada fuqarolik jamiyati

va huquqiy davlat qurish borasida amalga oshirilgan ishlar atroflicha tahlil qilindi, bu boradagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va izchil davom ettirishning dolzarb vazifalari belgilab berildi.

Mazkur konsepsiya mamlakatni yanada yangilash va jamiyatni yanada modernizatsiya qilishga qaratilgan uzoq muddatli strategik dasturiy vazifalarni o'z ichiga olgan quyidagi oltita ustuvor yo'nalishdan iborat:

1. *Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish.*
2. *Sud-huquq tizimini isloh qilish.*
3. *Axborot sohasini isloh qilish, so'z va axborot erkinligini ta'minlash.*
4. *Saylov erkinligini ta'minlash va saylov qomunchiligini rivojlantirish.*
5. *Fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojlanishi.*
6. *Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.*

Davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirishga asosan Konstitutsiyaning 78, 89, 93, 96, 98-moddalariga o'zgartirishlar kiritilib, unga asosan Bosh Vazir nomzodi saylovlarda (Oliy Majlis) eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdorda ko'p o'rin olgan siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi, Prezident taqdim etilgan nomzodni ko'rib chiqib 10 kun muddat ichida Oliy Majlis palatalari tomonidan ko'rib chiqish va tasdiqlashi uchun taklif etadigan bo'ldi.

Sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida advokatura instituti takomillashtirildi va uning mustaqilligi yanada mustahkamlandi. Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan jinoyatlar tasnif o'zgartirildi. Sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazildi. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash sohasida mamlakatda ushbu sohaga oid 10 ga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi. "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida", "Teleradioeshittirishlar to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to'g'risida", "Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan

qo‘llab-quvvatlash kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarni qabul qilish belgilandi.

O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish sohasida saylov qonunchiligi takomillashtirib, saylov tizimi izchil va bosqichma-bosqich liberallashtirib borildi. Muddatidan oldin ovoz berish muammosini hal etish, uchastka saylov komissiyalari faoliyatining oshkoraligini ta’minlash borasida amaldagi qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish belgilandi. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasidagi bir qator qonunlarga o‘zgartirish kiritish, O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi hamda “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi.

Xullas, mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustda bo‘lgan sessiyasida qanday hujjatlar qabul qilindi?
2. O‘zbekiston Davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
3. 1991-yil 29-dekabrda O‘zbekistonda o‘tkazilgan umumxalq referendumida qanday masala ko‘tarilganligi va uning natijalari haqida bilasizmi?
4. 1990-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya nima maqsadda tuzilgan edi?
5. Konstitutsiyaviy komissiya faoliyati davrida konstitutsiyaning nechta loyihasi ishlab chiqildi?
6. O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar o‘tkazilishining zarurati nimalardan iborat edi?
7. Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasi matni va tuzilishiga qanday muhim o‘zgarishlar kiritildi?

8. Davlat ramzlari deganda nimalarni tushunasiz?
9. Milliy valyuta nima? Uni muomalaga kiritishning zarurati nimalardan iborat edi?
10. Islom Karimov o‘zining qaysi asarida yangi jamiyat qurishning 5 ta tamoyilini asoslab berdi?
11. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiyasi qanday ustuvor yo‘nalishlardan iborat?
12. Qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasida qanday davlat mukofotlari mavjudligi haqida ma’lumotlar to‘plang.
13. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda o‘tkazilgan umumxalq Prezident saylovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

<b>T/r</b>	<b>Saylov o‘tkazilgan sana</b>	<b>Qaysi partiyalardan kimlar nomzod qilib ko‘rsatilgan</b>	<b>Saylov natijalari</b>
------------	--------------------------------	---	--------------------------

## 2-§. HARAKATLAR STRATEGIYASI – O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI

**Xalq bilan muloqotning yo‘lga qo‘yilishi.** 2016-yilda ilk bor mamlakat aholisi va hukumatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yildi. **2016-yil 24-sentyabrda** O‘zbekiston hukumati portalida Bosh vazirning virtual qabulxonasi pm.gov.uz (2017-yil yanvar oyidan Prezident virtual qabulxonasi) ochilishi murojaatlar bilan ishlash tizimini bugungi shiddatli XXI asr talablariga mos holda takomillashtirish imkonini berdi. Hukumat rahbari bilan oddiy odamlar o‘rtasida hech qanday vositachilarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot yo‘lga qo‘yildi. Shu bois ham mazkur virtual qabulxona ishga tushgan kuniyoq mamlakatimizning turli joylaridan mingga yaqin ariza, shikoyat va takliflar kelib tushdi. 2017-yilning “*Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili*” deb e‘lon qilinishi bu sohadagi ishlarni faollashtirdi. Ana shu muloqotni amalda yo‘lga qo‘yish, inson manfaatlarini ta‘minlash maqsadida fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning yangi tizimi joriy etildi.

Ijtimoiy adolat ta‘minlangan davlatda xalqning bunyodkorlik salohiyati, yaratuvchanlikka intilishi va ishtiyoqi hosil beraveradi. Shu ma‘noda mustaqil Vatanimiz tarixida, xalqimiz hayotida yana bir yangi davr, yangi taraqqiyot bosqichi boshlandi, deyishga barcha asosimiz bor. Strategik maqsadlarimiz aniq va ravshan – demokratik, insonparvar davlat qurish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, Vatanimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirish, pirovardida, xalqimizni hayotdan rozi qilish, uning yanada farovon yashashi uchun barcha shart-sharoitni yaratish. Bunday yuksak marralarga xalq bilan muloqot qilib, odamlarning ichiga kirish, ularning dardu tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta‘minlash orqaligina erishish mumkin.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning **2016-yil 28-dekabrda**gi “*Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida*”gi Farmoniga binoan Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Uning xodimlari esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo‘yildi. 2017-yil dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25

yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Xalq qabulxonalari negizida, Prezident huzurida alohida tuzilma – Tezkor davlat xizmatlari agentligini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi.

Bir yil davomida sinovdan o'tib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo'lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta'kidlab o'tdi.

**2017-yil 13-sentyabrda** O'zbekiston Respublikasining *“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”*gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq va Virtual qabulxonalari faoliyati, ularning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari batafsil bayon etilgan. Qonun bilan elektron murojaatni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash talabi bekor qilindi. Murojaatlarning ko'rib chiqilishi ustidan doimiy monitoring va nazorat davlat organlarining rahbarlari yoki vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq materiallarni har chorakda jamlash, tegishli axborot-tahliliy ma'lumotlarni ishlab chiqish va davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish tartibi joriy etildi.

Mamlakatimiz, xalqimiz hayotida har kuni yangidan-yangi o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y bermoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan, yurtimizni har tomonlama rivojlantirish, xalq bilan ochiq-oshkora muloqot qilishning yangicha tizimi – Xalq qabulxonalari instituti o'tgan vaqt mobaynida bajarilgan ishlardan ko'ra hali etilishi lozim bo'lgan vazifalar yanada ko'proq ekanligini namoyon etdi. Zotan, haqiqat bahslarda, oshkora muloqotlarda bo'y ko'rsatadi.

Prezidentning joylarda Xalq qabulxonalari, virtual qabulxonasi tashkil etilganidan keyin xalqning real hayotidan xabardor bo‘lish, odamlarning ko‘p yillik muammolarini, talab va ehtiyojlarini yaqindan o‘rganish, ularni hatto joyida hal etish, zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijtimoiy adolatni ta‘minlash imkoniyati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining (keyinchalik Prezident Administratsiyasi) Fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tomonidan mamlakatimizning barcha shahar hamda tumanlarida, chekka-chekka qishloqlarda, mahallalarda ommaviy qabullar, xalq bilan yuzma-yuz suhbatlar tashkil etildi. Qisqacha qilib aytganda, xalq ichiga kirib borildi. Odamlarning yuraklarida yig‘ilib qolgan dardlari, allaqachon hal qilinishi mumkin bo‘lgan-u, lekin to‘rachilik, o‘zibo‘larchilik, sansolarlik oqibatida yillar davomida yechilmay kelgan muammolar yuzaga chiqa boshladi. Eng muhimi, odamlar dardlarini aytishi, kattayu kichik idoralar rahbarlari bilan yuzma-yuz gaplashishi, muammolariga qisqa fursatda yechim topishi uchun qulay imkoniyat yuzaga keldi. Nafaqat muammolar, ularning talab va takliflariga ham quloq tutildi, bu takliflar yig‘ilib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Prezidentining “*Rahbarlar xalqning xizmatkori bo‘lishi zarur*”, “*Asosiy maqsadimiz – xalq roziligi, xalq bizdan rozi bo‘lsa, ishimizda umum va baraka bo‘ladi*”, degan qat’iy talablari amalda o‘z ifodasini ko‘rsatdi. Bugungi kunda ana shu izlanishlar samarasi sifatida ko‘plab yangiliklar hayotga tatbiq etilmoqda.

Fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o‘tkazish yo‘lga qo‘yilib, O‘zbekiston Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda, qator muammolar bilan birga, aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatish borasida ham ko‘plab yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi. Holbuki, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2003-yildan boshlab tadbirkorlik sub’yektlarini “*Yagona darcha*” tamoyili asosida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun shahar, tuman hokimliklari huzurida maxsus inspeksiyalar tashkil etilgan edi. 2016-yilda esa ular negizida Davlat xizmatlari ko‘rsatish

markazlari ish olib borgan. Ammo ushbu sa'y-harakatlar ham aholining bugungi talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligi ayon bo'ldi. Binobarin, odamlarning har bitta hujjat uchun turli-tuman idoralarga murojaat qilishi, soatlab navbat kutishlar, qog'ozbozlik, turli ovoragarchiliklar barham topmadi. Shu boisdan mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish borasida keng ko'lamli ishlar boshlandi.

Ruxsatnoma va litsenziyalarni olish tartibini soddalashtirish uchun [licence.gov.uz](http://licence.gov.uz), davlat xizmatlarini "Bir darcha" tamoyili asosida yo'lga qo'yish uchun [www.birdarcha.uz](http://www.birdarcha.uz) veb-sayti ishga tushirildi. Mazkur soddalashtirish ishlari natijasida tadbirkorlik sub'yektini ro'yxatdan o'tkazish harakatlari 4 baravar, ro'yxatdan o'tkazish vaqti esa 30 daqiqagacha qisqartirildi. **2017-yilda** tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([www.my.gov.uz](http://www.my.gov.uz)) davlat organlari tomonidan ko'rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi. Ushbu portal orqali davlat elektron xizmatlarini onlayn to'lash, kerakli hujjatlarni muassasaga bormay turib qo'lga kiritish, tarmoqda turib soliq va kommunal xizmatlaridan qarzdorlik, yo'l qoidalarini buzganlik uchun jarimalar, shaxsiy nafaqa va sug'urta ustamolari haqida ma'lumot olish imloniyatlari yaratildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnomasida demokratiyaning ilg'or mexanizmi sifatida jamoa bo'lib elektron murojaat kiritish tartibini joriy etishni taklif etdi. Ya'ni, bir guruh fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni Oliy Majlis yoki xalq deputatlari kengashlari ko'rib chiqishi majburiy ekani qonunda belgilab qo'yilishi lozim.

Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari uchun internet tarmog'ida "*Mening fikrim*" deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. **2018-yilda** O'zbekistonda jamoaviy murojaatlar uchun yagona mahalliy portal paydo bo'ldi. U yerda fuqarolar davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar bo'yicha o'z fikr va tashabbuslarini e'lon qilishlari mumkin bo'ldi. "*Mening fikrim*"



veb-portali mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqligi, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida yaratildi.

Portal quyidagi tartibda ishlaydi: 1) Fuqarolar o'z tashabbuslarini portalga yozishadi. 2) Ekspertlar ko'rib chiqqanidan so'ng ushbu tashabbus portalda e'lon qilinadi. 3) Portalda ushbu tashabbuslarga jamoatchilik tomonidan ovoz beriladi. 4) Ovozlar yetarli darjaga yetgach tashabbus Oliy Majlis yoki Xalq deputatlari Kengashlari e'tiboriga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan 2018-yil 1-maydan boshlab barcha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiquvchi tashkilotlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun joylashtirishi belgilandi. Ya'ni barcha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishidan oldin jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi tartibi joriy etildi.

**Harakatlar strategiyasi – milliy taraqqiyotimizning yangi bosqichi.** Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining tahlili, bugungi kunda jahon bozori talabi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuvni ishlab chiqishni taqozo etdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shartsharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining **2017-yil 7-fevraldagi** farmoni bilan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad – islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiya qilish va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iborat edi. Strategiya dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqilgan. Harakatlar strategiyasi 5 bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Prezident rahbarlik qiladigan 14 kishilik Milliy komissiya tuzilib, u mazkur hujjatda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida, sifatli bajarilishini nazorat qiladigan bo‘ldi.

Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi keltirilgan:

1. *Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish* (Moviy havorang – osmon va toza suv ramzi, Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi);

2. *Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish* (Siyohrang – qonun ustuvorligi va or-nomuslilik ramzi);

3. *Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish* (Tillarang – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi);

4. *Ijtimoiy sohani rivojlantirish* (Qizil rang – hayot va aholining munosib turmush tarzini ta‘minlash ramzi);

5. *Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat* (Oq rang – tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va sofl ik ramzi).

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g'oyaga aylandi.

*Strategiya* – bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi. XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. *Siyosat, strategiya va taktika* – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq 3 ta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob'yektning mayog'iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ko'rib turganimizdek, strategiyaning asl mohiyatida xalqimizning orzu-umidlari yo'g'rilgan g'oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkuradan nusxa olib bo'lmaganidek, davlatning strategik maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusxa olib bo'lmaydi. Zero, har bir xalqning o'ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud

bo'lad. Aynan shu omillar ma'lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida 2017-yilning o'zida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Yurtimizda yashab kelayotgan, lekin fuqaroligi bo'lmagan 1100 dan ortiq shaxsga O'zbekiston fuqaroligi berildi;

- Mamlakatimizda qisqa muddatda 161 ta yirik sanoat ob'yekti ishga tushirildi;

- Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil etdi, eksport hajmi qariyb 15 foizga ko'paydi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosu 854 million dollarga yetdi;

- Mamlakatimizda 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasi faoliyati yo'lga qo'yildi va bu tashkiliy choralar hududlarni jadal rivojlantirish imkonini bermoqda;

- 21-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining byudjet sohasi xodimlari, ayniqsa o'qituvchilar va shifokorlar, oliy o'quv yurtlari talabalarining paxtaga yig'im terimiga chiqarishni to'xtatish haqidagi qarori e'lon qilindi;

- 21 ta oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi, 60 dan ortiq davlat va xalqaro tashkilotlar rahbarlari va vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

**Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak. 2017-yil 12-dekabrda** O'zbekiston Prezidentining *“Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”*gi Farmoni qabul qilindi va ushbu hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi *Davlat xizmatlari agentligi* tashkil etildi. Bu ham, albatta, aholiga barcha sohalarda qulay imkoniyatlar yaratish, ortiqcha ovoragarchiliklarga barham berish yo'lida tashlangan yana bir muhim qadamdir. Ilgari “Yagona darcha” tizimi faqatgina tadbirkorlarga xizmat ko'rsatib kelgan bo'lsa, endilikda oddiy fuqarolarga ham davlat idoralari bilan bog'liq ishlarda ushbu tizim orqali xizmat ko'rsatish maqsad qilindi. Natijada aholiga eng zarur va talab yuqori bo'lgan davlat xizmatlarini “yagona darcha” tamoyili asosida ko'rsatish uchun mamlakatimizning barcha shahar va tumanlarida Davlat xizmatlari markazlari tarmog'i vujudga keldi.

Mazkur tizimning davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan va amalda munosib samara bergan Xalq qabulxonalarini negizida barpo etilgani ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki shu jamiyatda yashayotgan har bir fuqaro hayoti davomida turli ehtiyojlar bilan davlat idoralariga duch kelishi tabiiy hol. Xalqning davlat idoralari bilan munosabatlarida yengillik yaratish, mushkulini oson qilish esa bugungi kunda davlatimizning asosiy e'tibor markaziga ko'tarilgan. Davlat xizmatlari ko'rsatishning yangi, zamonaviy konsepsiyasida fuqarolarning navbat kutib turishlarini keskin kamaytirish, hujjatlarni elektron tarzda yuritish hisobiga qog'ozbozlikni qisqartirish, turli xil buyruqbozlik va sansolarliklarga chek qo'yish ko'zda tutilgan. Eng muhimi, davlat xizmatlari markazlarining ish prinsipi "*Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi*", degan tamoyilga asoslangan.

Qisqa fursatda respublikamizdagi har bir tuman va shaharda Davlat xizmatlari markazlari tashkil qilindi. **2018-yil boshida** ushbu markazlarda aholiga qariyb 30 turdagi xizmatlar ko'rsatilgan bo'lsa, o'sha yili 1-apreldan e'tiboran bunday xizmatlar soni 50 tadan ortdi. Iyun oyidan boshlab esa ular qatoriga yana 30 dan ortiq xizmat turlari qo'shildi. **2022-yilga** kelib "yagona darcha" tamoyili bo'yicha ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari soni **130 dan** ortdi, xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilayotgan fuqarolar soni esa 50 barobarga oshdi. Avval fuqarolar oddiy bir ma'lumotnomani olish uchun turli idoralarda haftalab navbat kutishgan bo'lsa, bugun bunday illatlarning oldi olinmoqda. Davlat xizmatlari orqali bunday yumushlar soniyalar ichida hal etilyapti. Shuningdek, avval amaliyotda bo'lgan **50 dan** ortiq ma'lumotnomani talab qilish va berish ta'qiqlandi.

2023-yilga kelib, respublikada elektron shaklda ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari ulushi **64 %ni** tashkil etdi. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (YaIDXP) 205 dan ortiq yangi xizmatlar joriy etilib, jami xizmatlar soni 575 tadan oshdi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 170 %ga ko'pdir. Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 3 milliondan ortgan. Shu bilan birga, Yagona portalning mobil ilovasida 155 ta (o'sish 375 %) elektron davlat xizmatlari aholi va yuridik shaxslarga taqdim etilmoqda. O'zbekistonda 2021-yil 1-

iyundan aholi va tadbirkorlardan 11 turdagi, 2022-yil 1-yanvardan esa 15 turdagi hujjat va ma'lumotlarni so'rash tartibi bekor qilindi.

Bu odamlarning qimmatli vaqtlarini tejash bilan birga, ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish imkonini ham bermoqda. Misol uchun, yoshlar oila qurganda nikohni qayd etishi, farzand dunyoga kelganda unga guvohnoma olish, bolalarni bog'chaga joylashtirish, mashinani boshqarish uchun haydovchilik guvohnomasini olish yoki yangisiga almashtirish kabi kundalik hayotimizda ko'p bora duch keladigan ishlar endilikda Davlat xizmatlari markazida hal etib beriladi. Buning uchun turli idoralarga qatnashga, uzoq vaqt kutishga endi hojat yo'q.

Shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini olish, ipoteka shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish, tibbiy faoliyat huquqini litsenziyalash, elektron raqamli imzo kalitlarini ro'yxatga olish, haydovchilik guvohnomasini yangi namunadagisiga almashtirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish, kommunal xizmat kabi masalalarda odamlar ko'plab muammolarga, ortiqcha sarsongarchiliklarga duch kelar edi. Endilikda bunday masalalar Davlat xizmatlari markazida qisqa vaqtda hal etib beriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomalari.** Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda davlat rahbarining milliy parlament a'zolari huzurida eng asosiy va dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha Murojaatnoma bilan chiqish tajribasi mavjud. Keyingi yillarda O'zbekistonda ham davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli yo'lga qo'yilib, islohotlar samaradorligiga xizmat qilmoqda. **2017-yildan** boshlab O'zbekistonda yangicha davlat huquqiy amaliyoti – davlat rahbarining Oliy Majlis palatalariga Murojaatnoma taqdim etish an'anasi joriy etildi. Prezident Murojaatnomalari nafaqat milliy parlament a'zolariga, balki butun O'zbekiston xalqiga bevosita murojaat sifatida yanada ahamiyatlidir.

Davlat boshlig'ining parlamentga Murojaatnomasi – dasturiy siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib, hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tarixan shakllangan shakli hisoblanadi. Murojaatnomada, birinchidan,

Prezidentning mamlakatni yaqin istiqbolda rivojlantirishga doir strategik yoʻnalishlar boʻyicha nuqtai nazari bayon qilindi; ikkinchidan, siyosiy, iqtisodiy, gʻoyaviy-mafkuraviy qoidalar bilan bir qatorda, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatiga taalluqli aniq takliflar ilgari surildi; uchinchidan, u jahon konstitutsiyaviy amaliyotida hokimiyat vakolatlari boʻlinishi printsipini taʼminlashga qaratilgan muhim huquqiy institut sifatida namoyon boʻldi.

**2017-yil 22-dekabrda** Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz tarixida ilk marta Oliy Majlisning har ikki palatasiga Murojaatnoma bilan chiqdi. Ilk Murojaatnomada davlatimiz rahbari: “Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan gʻoya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda, deya alohida taʼkidlab oʻtdi. Marosimda Oʻzbekiston Prezidenti 2018-yilga yurtimizda “Faol tadbirkorlik, innovatsion gʻoyalar va texnologiyalarni qoʻllab-quvvatlash yili”, deb nom berishni taklif etgan va bu qizgʻin qoʻllab-quvvatlangan. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yutuqlar, xususan, oʻzbek kurashining Osiyo oʻyinlari dasturiga kiritilganligi, Oʻzbekiston Milliy Olimpiya qoʻmitasining faoliyatini takomillashtirish lozimligi haqida alohida toʻxtalib oʻtildi.

Ikkinchi murojaatnoma **2018-yil 28-dekabr** kuni boʻlib oʻtdi. Oʻzbekiston Prezidenti oʻz chiqishida “Niyati ulugʻ xalqning – ishi ham ulugʻ, hayoti yorugʻ va kelajagi farovon boʻladi. Biz demokratik islohotlar yoʻlidan hech qachon ortga qaytmaymiz. Qanchalik qiyin boʻlmasin, faqat oldinga – yangi, yuksak marralar sari boramiz. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotiga hissa qoʻshish – Yaratganning oʻzi bizga bergan tarixiy imkoniyat, desak, toʻgʻri boʻladi”, deya taʼkidlagan edi. Oʻsha kuni 2019-yilga mamlakatimizda “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”, deb nom berilgan. Murojaatnomada yurtimiz yoshlari Indoneziyada boʻlib oʻtgan Osiyo va Para-Osiyo oʻyinlarida, Argentinada oʻtkazilgan oʻsmirlar Olimpiadasida yuqori oʻrinlarni olgani ham taʼkidlab oʻtildi.

**2020-yil 24-yanvar** kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi uchinchi Murojaatnoma bilan chiqdi. Ushbu tadbir parlament binosida emas, Tashkent City kongress-xollda bo‘lib o‘tdi. Ayrim ekspertlar bu voqeani “yilning eng muhim siyosiy voqeasi” deb atadi. Mazkur tadbirda prezident 2020-yilni – “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb nomlashni taklif etdi, parlamentariylar buni ma’qulladi. Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot – 2020-yilgi ustuvor yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatib o‘tildi. Shuningdek, iqtisodiyot, biznes, ijtimoiy islohotlar, inson huquqlari va erkinlari borasida kutilayotgan o‘zgarishlar haqida to‘xtalib o‘tildi. Islohotlar samaradorligi quyidagi to‘rtta omilga bog‘liq ekani aytili: 1) qonun ustuvorligi; 2) korrupsiyaga qarshi qat’iy kurash; 3) institutsional salohiyatni yuksaltirish; 4) kuchli demokratik institutlarni shakllantirish.

**2020-yil 29-dekabr** kuni O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga to‘rtinchi Murojaatnomasi bo‘ldi. Murojaatda davlat rahbari 2020 yilda erishilgan yutuqlar va 2021 yil rejalarini bayon qildi. Keyingi yil uchun asosiy vazifalar, ichki va tashqi siyosatga doir ustuvor yo‘nalishlar e’lon qilindi. O‘sha kuni davlat rahbarining 2021-yilga mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, deb nom berish taklifi qizg‘in qo‘llab-quvvatlangan.

So‘nggi yillarda qilingan murojaatnomalarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy yordam, tadbirkorlarni qo‘llab quvvatlash, halq farovonligini oshirish, yurt tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlash kabi masalalari har yilgi Murojaatnomalarning ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Xususan, ijtimoiy sohaga bo‘lgan urg‘u yildan yilga kuchayib bormoqda. Mazkur sohaga oid so‘zlar 2017-yildagi nutqning 11% teng bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2020-yilga kelib 28% ga yetganligi e’tirofqa sazovor.

**2022-yil 20-dekabr** kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga navbatdagi beshinchi Murojaatnomani taqdim etdi. Poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida bo‘lib o‘tgan tadbirda Oliy Majlis Senati a’zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, davlat tashkilotlari



rahbarlari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Murojaatnoma o'ndan ortiq telekanal orqali jonli efirda, shuningdek, Prezidentning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali onlayn yoritib borildi.

Davlat rahbari 2023-yilni O'zbekistonda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qildi. "Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz", – dedi Shavkat Mirziyoyev. Nutqda asosiy e'tibor ta'lim-tarbiya sohasiga qaratildi, ixcham va samarali davlat boshqaruvini tashkil etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, energetika sohasini takomillashtirish va sud-huquq tizimini isloh qilish haqida ko'p gapirildi. Shuningdek, 2022-yilda 381 nafar sportchimiz jahon va Osiyo musobaqalarida sovrinli o'rirlarni egallaganligi haqida ham to'xtalib o'tdi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. 2016-yilda respublikamizda xalq bilan muloqotning yo'lga qo'yilishida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Dastlab Bosh vazir, keyinchalik Prezident virtual qabulxonasining (pm.gov.uz) ishga tushurilishi qanday o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
3. Xalq qabulxonalarining vazifalari nimalardan iborat?
4. Fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazishdan asosiy ko'zlangan maqsad?
5. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririga ko'ra, murojlat qilish tizimida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
6. Harakatlar strategiyasi nima?
7. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi qanday ustuvor yo'nalishlardan iborat?
8. Davlat xizmatlari agentligi nima maqsadda tashkil etildi?
9. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" deganda nimani tushunasiz?
10. Davlat rahbarining parlamentga Murojaatnomasi deganda nimani tushunasiz?

11. Prezident Murojaatnomasining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomalari to‘liq matni asosida ta’lim tizimiga oid qanday masalalar ilgari surilganligi haqida ma’lumotlar to‘plang.

13. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan asosiy vazifalarni yo‘nalishlar kesimida quyidagi shaklda to‘ldiring.

*1-ustuvor yo‘nalishdagi asosiy vazifalar – ...*

*2-ustuvor yo‘nalishdagi asosiy vazifalar – ...*

*3-ustuvor yo‘nalishdagi asosiy vazifalar – ...*

*4-ustuvor yo‘nalishdagi asosiy vazifalar – ...*

*5-ustuvor yo‘nalishdagi asosiy vazifalar – ...*

### 3-§. YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI

**Yangi O‘zbekiston – yangi yutuqlar.** Mamlakatimizda muhim iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy tiklanish jarayoni amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Yangi O‘zbekiston”, “Uchinchi Uyg‘onish davri” so‘zlari bugungi hayotimizga hamohang va hamohangdir. Bu noyob ijtimoiy hodisa biz uchun yangi istiqbollarni ochadi. Bugun O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, ulkan imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylangan. Bu jarayon amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim natijasidir. Zero, maqsadning aniqligi harakatlar samaradorligini ta‘minlovchi asosiy omil hisoblanadi. 2017-yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatit va asosiy strategik maqsad – Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Uyg‘onish davri poydevorini qo‘yishdan iborat edi.

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan **300** ga yaqin qonun, **4 mingdan** ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. 2017-2021-yillarda amalga oshirilgan islohotlar

natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi.

O‘zbekiston Prezidentining **2017-yil 14-fevraldagi** Farmoyishi bilan Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari belgilandi. Mazkur farmoyish asosida, Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan tadbirlarning ekspertlik va jamoatchilik muhokamasini samarali tashkil etish borasidagi sa’y-harakatlarni birlashtirish, ularni mukammal amalga oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini, ekspertlar va olimlarni mamlakatimizni demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish jarayonlariga faol jalb etish maqsadida *“Taraqqiyot strategiyasi”* markazi tashkil etildi. Markaz – nodavlat notijorat tashkiloti bo‘lib, Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston advokatlar palatasi, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O‘zbekiston Elektron ommaviy axborot vositalari, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyalari muassisligida tashkil etildi.

Har yili Davlat dasturi qabul qilinishidan avval *“Taraqqiyot strategiyasi”* markazining maxsus saytiga (2017.strategy.uz, 2018.strategy.uz, 2019.strategy.uz, 2020.strategy.uz) hamda regulation.gov.uz joylashtiriladi. Mana shu jarayonda har bir yo‘nalish bo‘yicha ekspertlar takliflarni saralab, o‘rganadi va kunlik takliflar to‘plamini tegishli davlat organlariga va davlat dasturi yuzasidan shakllantirilgan Komissiyalarga taqdim etadi. Bu orqali Davlat dasturida xalq fikri, ishonchi va irodasining aks etishiga erishiladi.

**2021-yil 31-avgust** kuni O‘zbekiston mustaqilligining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlab bunyod etilgan *“Yangi O‘zbekiston”* bog‘i va Mustaqillik monumentining tantanali ochilish marosimi bo‘ldi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi. Majmuada buyuk sarkarda va jahongirlar, alloma va mutafakkirlar, jadid bobolarning o‘lmas siymolari aks ettirilgan. O‘zbekistonning sobiq mustabid tuzum davridagi og‘ir va mashaqqatli hayoti, qatag‘on siyosati, o‘zbek xalqining Ikkinchi

jahon urushida ko'rsatgan jasorat va matonati ta'sirchan lavhalarda ifodalangan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov rahbarligida O'zbekiston xalqining milliy mustaqillikka erishish yo'lini aks ettirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shundan so'ng O'zbekistonning boshqa hududlarida ham "Yangi O'zbekiston" nomli istirohat bog'lari qurila boshlandi.

**2021-yil sentyabr** oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "*Yangi O'zbekiston Strategiyasi*" nomli kitobi chop etildi. Unda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo'yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Mazkur kitob muqaddima, 7 bo'lim va xotimadan iborat.

**2021-yilning 24-oktabr** kuni mamalakatimiz hayotidagi muhim siyosiy voqea – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. 5 ta siyosiy partiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzodlar saylovchilarning quyidagi miqdordagi ovozini oldi: O'zbekiston "Adolat" sosial-demokratik partiyasidan nomzod Bahrom Abduhalimov – 3,39 foiz; O'zbekiston Ekologik partiyasidan nomzod Narzullo Oblomurov – 4,14 foiz; O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan nomzod Alisher Qodirov – 5,48 foiz; O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzod Maksuda Varisova – 6,63 foiz; Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev – 80,12 foiz.

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksiga ko'ra, ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning 50 foizdan ortig'ining ovozini olgan nomzod Prezident etib saylangan, deb hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlarga tayanib, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev saylovchilarning eng ko'p – 80,12 foiz ovozini olib, ishonchli g'alaba qozondi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi. Saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan 20 milliondan ortiq saylovchidan 80,4 foizdan ko'prog'i saylov jarayonlarida ishtirok etgan.

**2021-yil 6-noyabr** kuni Toshkentda Oliy Majlis palatalarining qo‘shma yig‘ilishida takroran saylangan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rasmiy inauguratsiya marosimi tantanali tarzda o‘tkazildi. Tantanali marosimda Oliy Majlis Senati a‘zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, diplomatik korpus, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Qasamyoddan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev keyingi besh yilga belgilangan rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari haqida nutq so‘zladi. O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida “Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug‘ maqsadimiz – Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratamiz”, deya alohida ta’kidlab o‘tdi.

**2021-yil 22-noyabrda** O‘zbekiston Prezidentining “2022-2023-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari dasturini ishlab chiqish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyishi qabul qilindi. Mazkur farmoyishga muvofiq, 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari dasturini ishlab chiqishni muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasi va tegishli ishchi guruhlar tomonidan ma‘muriy islohotlarni amalga oshirishda davlat boshqaruvi organlarining faoliyati o‘zaro kelishilgan tarzda, samarali olib borilishini, sustkashliklar va mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ymasligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Shuningdek, quyidagilar yuzasidan takliflarni ishlab chiqish bo‘yicha Ishchi guruhini tashkil etishga farmoyish berdi:

- davlat boshqaruvi organlarining maqomini belgilash, tuzilmalarini takomillashtirish va shtat birliklarini maqbullashtirish;
- davlat boshqaruvi organlari faoliyatida raqamli texnologiyalar, ochiqlik va DXSHni rivojlantirish;
- davlat boshqaruvi organlarining moddiy-texnika ta’minotini takomillashtirish;
- davlat boshqaruvi organlarining kadrlar salohiyatini takomillashtirish;
- davlat boshqaruvi organlarida korrupsiyaning oldini olish;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish.

Shuningdek, 2022–2023-yillarda Yangi O‘zbekistonning ma‘muriy islohotlari dasturi loyihasini ishlab chiqish sxemasi tasdiqlandi. Ishchi guruhlar rahbarlariga asosiy ustuvor yo‘nalishlarni hisobga olgan holda dastur loyihasi bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini ta‘minlash topshirildi.

### **Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari.**

Bugun Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi ishlab chiqilib, 2021-yil 31-dekabrda boshlab, 2022–2026.strategy.uz, jamoatchilik.uz va regulation.gov.uz elektron platformalari orqali keng jamoatchilik o‘rtasida muhokama uchun joylashtirildi. Shu tariqa yurtimiz aholisi uchun o‘z takliflarini bildirish imkoniyati yaratildi. Hujjat loyihasi muhokamasi 2022-yilning 15-yanvar kuni qadar davom etdi.

Olib borilgan qizg‘in va jiddiy muhokamalar asnosida, faqatgina elektron platformalar orqali jami 17 535 ta taklif, shu jumladan “Taraqqiyot strategiyasi” markazining 2022-2026.strategy.uz maxsus veb-saytiga jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan davrdan to 2022-yilning 15-yanvar kuni qadar jami 15 028 ta, jamoatchilik.uz veb-saytiga jami 1 148 ta, regulation.gov.uz veb-saytiga jami 525 ta, @YangiTaraqqiyotStrategiyasi va @dscuzbekistan telegram kanallari orqali 834 ta taklif kelib tushdi. Jamoatchilik muhokamalari davomida bildirilgan minglab takliflardan eng asoslilari tanlab olindi. Ularning Strategiya loyihasida tizimli inobatga olinishi natijasida avvalboshda loyihada ko‘rsatib o‘tilgan **94 ta** maqsad, muhokamalar yakunidan so‘ng **100 tani** tashkil etdi. Shuningdek, ularga erishishning aniq mexanizmlari ishlab chiqildi.

**2022-yil 28-yanvarda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni bilan *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi* hamda uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi. Ushbu hujjat kelgusi besh

yilda mamlakatimizda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida amalga oshiriladigan keng ko‘lamli islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslarini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

**2022-yilda** O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “*Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi*” nomli kitobi chop etildi. Ushbu kitobda bugungi kunda yurtimizda Yangi O‘zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarish va islohotlarning maqsadi, mazmun mohiyati hamda ustuvor yo‘nalishlari, mamlakatimizning zamonaviy demokratik qiyofasi qanday yaratilayotgani, davlatimizni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish uchun belgilab olingan strategik yo‘l, milliy taraqqiyotimiz istiqbollari haqida atroflicha yoritilgan. Kitobning ushbu nashrida saylovoldi uchrashuvlari paytida xalq bilan muloqot jarayonida o‘rtaga tashlangan muhim fikr-mulohazalar, taklif va tashabbuslar, bugungi taraqqiyotimiz va istiqbol rejalariga oid xulosalar ham o‘z aksini topgan.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi “*Inson qadri uchun*”, “*Davlat – inson uchun*” degan ezgu g‘oyalarni hayotga joriy etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, sudlar faoliyatini yanada takomillashtirib, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, adolat va qonun ustuvorligini ta’minlanishga xizmat qiladi. Taraqqiyot strategiyasini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish barcha davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Mazkur strategiya besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

Ta’kidlash joizki, Taraqqiyot strategiyasi so‘nggi yillarda mamlakatimizdagi tizimli ijobiy o‘zgarishlarning asosiy huquqiy poydevori bo‘lib xizmat qilgan “Harakatlar strategiyasi”ni hayotga tatbiq etish natijasida kelib chiqqan xulosalar hamda to‘plangan ulkan tajriba va samarali xulosalar natijalari hamdir. “Inson – jamiyat – davlat” degan tamoyil asosida shakllantirilgan “Inson qadri uchun”, “Davlat – inson uchun” degan ezgu g‘oyalarni



hayotga tatbiq etish maqsadida ishlab chiqilgan ushbu dasturiy hujjatda yaqin va oʻrta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday boʻlishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan boʻlib, **7 ta** ustuvor yoʻnalish yuzasidan keyingi besh yilda **100 ta** maqsad va **398 ta** vazifani amalga oshirish koʻzda tutilgan. Mazkur ustuvor yoʻnalishlar quyidagilardan iborat:

1) *inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;*

2) *mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;*

3) *milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash;*

4) *adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;*

5) *maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;*

6) *milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;*

7) *mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.*

Birinchi yoʻnalish erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga qaratilgan. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga oʻtkaziladi. Har bir mahallada hokim yordamchisi lavozimi joriy etiladi. Tuman byudjeti qoʻshimcha manbalar bilan taʼminlanib, mahallaning alohida jamgʻarmasi shakllantiriladi. Markaziy idoralar transformatsiya qilinib, ixcham va samarali boshqaruv tizimi yaratiladi, bir xil yoʻnalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtiriladi.

Ikkinchi yoʻnalish adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini taʼminlash vazifalarini qamrab olgan. Bu borada sudlov tizimi va advokatura instituti, huquq-tartibot organlari faoliyati takomillashtiriladi. Tadbirkor va mulkdorlar huquqlarining himoyasi kuchaytiriladi. Korrupsiyaga barham berishga davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalari safarbar etiladi. Bunda aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish

bilan cheklanib qolmasdan, korrupsiyaning sabablarini oldindan bartaraf etish choralari ko‘riladi.

Uchinchi yo‘nalish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi rejalarni qamrab oladi. Bu borada 2030-yilga borib, jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga chiqish maqsad qilingan bo‘lib, bunga xususiy sektorni rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishiladi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlab, inflyatsiya darajasini belgilangan 5 foizgacha pasaytirish choralari ko‘riladi. Shuningdek, aholini uy-joy va toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash, zamonaviy yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo qatnovlarni yaxshilash bo‘yicha ham yirik loyihalar amalga oshiriladi.

To‘rtinchi yo‘nalishga asosan adolatli ijtimoiy siyosat yuritish hamda inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta‘lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e‘tibor markazida bo‘ladi. Bu borada oliy toifali o‘qituvchilarning oylik maoshini 2025-yilga borib, ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohaning barcha bosqichlari o‘rtasida uzviylikni ta‘minlashga qaratilgan Milliy ta‘lim dasturi ishlab chiqiladi.

Aholi salomatligini mustahkamlash uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Kelgusi besh yilda oliy toifali shifokorlar maoshi ham ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkaziladi. Viloyat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko‘lami kengaytiriladi. Davlat tibbiy sug‘urta tizimi ishga tushirilib, mablag‘ aniq bemorga bog‘langan holda ajratiladi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Beshinchi yo‘nalishga asosan ma‘naviy va ma‘rifiy sohalarda islohotlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san‘atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e‘tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Zero, bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona va ahil oila bo‘lib yashayotgani, fidokorona mehnati bilan mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shayotgani e‘tiborga loyiq. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti: “Bizning davlat siyosatimizda bundan buyon ham barcha millat va elat vakillarining milliy o‘zligini, ona tili va madaniyatini, dini, urf-odat va an‘analarini saqlab qolish va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi”, deya alohida ta‘kidlab o‘tgan bejizga emas;

Oltinchi yo‘nalishga asosan global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, bu boradagi barcha sa‘y-harakatlarni uyg‘unlashtirishga e‘tibor qaratiladi. Xususan, Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida rivojlantirish, Butunjahon ekologiya Xartiyasini ishlab chiqish masalalari diqqat markazida bo‘ladi. Mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi konferensiyada qabul qilingan qaror va hujjatlarning izchil bajarilishi uchun xalqaro hamkorlar bilan zarur chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Yettinchi yo‘nalishda mamlakatimizdagi tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalar o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining qudratini yanada oshirish, harbiylarning jangovar shayligi, jismoniy va ma‘naviy tayyorgarligini kuchaytirishga e‘tibor qaratiladi. Xalqaro hamkorlikda pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosat, iqtisodiy diplomatiya davom ettiriladi. Avvalo, qo‘shni mamlakatlarda va dunyoning barcha mintaqalaridagi sheriklar bilan o‘zaro manfaatli va ko‘pqirrali aloqalar kengaytiriladi.

Umuman olganda, “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”da aks etgan maqsad va vazifalar mamlakatimizda “*Inson qadri uchun*” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish – davlatimiz rahbarining ezgu sa‘y-harakatlarida bosh mezon bo‘lib qolganligidan dalolat beradi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi nafaqat mamlakatimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotini shu bilan birga, uning uzoq yillik rivojlanish strategiyasini belgilab

beruvchi muhim hujjat hisoblanib, davlat va jamiyatning har tomonlama hamda jadal rivojlanishida, mamlakatimizni modernizatsiya qilishda va hayotning barcha sohalarini liberallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Taraqqiyot strategiyasida yo'nalishlar bo'yicha belgilangan asosiy vazifalar.** 2022-yil 31-avgust kuni Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirida mamlakat xalqiga tabrik bilan murojaat qildi. Unda Yangi O'zbekiston qanday bo'lishi haqida gapirdi. Yangi O'zbekiston:

– har bir fuqaroning hayotini yanada yaxshilash maqsadida davlat xizmatlaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradigan;

– odamlar o'z muammolari haqida ochiq gapirishi va ularning yechimi uchun birgalikda harakat qilishlariga barcha sharoitlar mavjud bo'lgan;

– hamma uchun adolatni so'zsiz ta'minlash imkoniyatini beradigan hamda fuqarolari ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng bo'lgan;

– tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan davlatdir.

Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekiston deganda, har bir fuqarosi uchun g'amxo'rlik qiladigan, ochiq va adolatli jamiyat ham tushuniladi, dedi davlat rahbari. Prezident, shuningdek, 2026-yilgacha Taraqqiyot strategiyasi doirasida **5 ta** asosiy vazifani belgilab berdi.

*Birinchi* - ta'lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratish izchil davom ettiriladi. Buning uchun maktablarning o'quv dasturlari, o'qitish uslubi, darsliklar mazmuni tubdan qayta ko'rib chiqiladi.

*Ikkinchi* - har qanday bahsli masalaga adolatli yechim faqat odil sud tomonidan topilishi kerak. Sudyalar ishiga har qanday aralashuv keskin jazolanadi, ularning xavotirsiz ishlashi uchun barcha zarur sharoitlar yaratiladi.

*Uchinchi* - biznesni rivojlantirish orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi, kambag'allik qisqaradi, aholi daromadlari

ko‘payadi. Buning uchun xususiy mulk va tadbirkorlikka xalaqit berayotgan barcha to‘siqlar bartaraf etiladi. Davlat boshqaruvi isloh qilinib, iqtisodiyotda davlat ishtiroki keskin kamaytiriladi.

*To‘rtinchi* - sog‘liqni saqlash tizimida aholiga yanada sifatli va malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiriladi. Barcha hududlarda shoshilinch tibbiy yordam qamrovi oshirilib, odamlarga yanada yaqinlashtiriladi.

*Beshinchi* - aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash masalasi doimo diqqat markazida bo‘ladi. Sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi keskin ko‘paytiriladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar negizini inson va uning huquqlari, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish kabi oliy maqsadlar tashkil etadi. Bu kabi islohotlardan biri bugungi kunda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar ham avvalo inson va fuqarolarning farovon turmush tarzini ta‘minlashga, jamiyatimiz va davlatimizni keng miqyosda taraqqiy etishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

*Inson qadrini yuksaltirish va xalqparvar davlat barpo etish* yo‘nalishidagi vazifalar quyidagilardan iborat:

- mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish;

- xalq bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish;

- “Obod qishloq”, “Obod mahalla” va boshqa hududiy dasturlarni jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqish;

- davlat organlarini “mahallabay” ishlash tizimiga o‘tkazish;

- elektron davlat xizmatlarining ulushini amaldagi 54 foizdan 90 foizga yetkazish.

- jamoatchilik fikrini muntazam va ilmiy asoslangan holda tizimli o‘rganish. Buning uchun, “Ijtimoiy fikr” markazi faoliyati takomillashtirilib, alohida Sotsiologiya instituti tashkil etiladi.

*Adolat va qonun ustuvorligini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish* yo‘nalishidagi vazifalar O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlab o‘tganidek, “*Jamiyatimizda qonun – ustuvor, jinoyatga jazo – muqarrar*” degan prinsipni og‘ishmay amalga oshirish asosida davom ettiriladi. Eng asosiy vazifa – mamlakatimizning dunyodagi qonun ustuvorligi indeksi yuqori darajada bo‘lgan davlatlar qatoridan joy olishga erishishdan

iboratligi qayd etildi. Mulk huquqini ishonchli himoya qilish, ma'muriy sudlar vakolatlarini kengaytirish orqali fuqaro va tadbirkorlar huquq va erkinliklarini kafolatli ta'minlash bo'yicha yangi tizim yaratish zarur.

*Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish* yo'nalishida strategiyada belgilangan vazifalar:

- maktab ta'limi sifatini oshirish, kelgusi besh yilda maktablarda qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish hamda darsliklarni yangilash;

- barcha hududlarda maktabgacha ta'limning qamrov darajasini 67 foizdan 80 foizga yetkazish;

- kamida 10 ta oliygohning nufuzli xalqaro reytinglarga kirishini ta'minlash;

- xususiy sheriklik asosida 100 ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish;

- byudjetdan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratiladigan mablag'larni 3 baravarga oshirish;

- birlamchi tibbiyot xizmatlari sifatini oshirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamli tibbiyotni keng joriy qilish.

Ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo'lsa, xalqimiz ham, davlatimiz ham shuncha kuchli bo'ladi. Strategiyaning *ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish* yo'nalishi bo'yicha quyidagi vazifalarning ahamiyati alohidadir:

- mavjud 12 mingdan ziyod kutubxona imkoniyatlaridan samarali foydalanib, kitobxonlikni ommalashtirish;

- jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 33 foizga yetkazish;

- mamlakatimizda Olimpiya va Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish.

Taraqqiyot strategiyasidagi yana bir muhim vazifa – *Vatanimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borishdan* iborat. Bu borada dunyoda va mintaqada yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarni inobatga olib:

- Yangi O'zbekiston xavfsizligi konsepsiyasini qabul qilish;

- axborot texnologiyalari bilan bog‘liq xurujlarning oldini olish va kiber xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi ishlarni takomillashtirish;

- Qurolli Kuchlarning boshqaruv tizimini yangi bosqichga olib chiqish;

- favqulodda vaziyatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish;

- ichki va tashqi moliyaviy oqimlarni monitoring qilish va ular bilan bog‘liq xavf-xatarlarni oldini olish kabi muhim vazifalar turibdi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi kotibiyat va departamentlari rahbarlari boshchiligida 7 ta yo‘nalishda doimiy ishlovchi shtablar tuzilib, vazirlik, idora va hududlar bilan topshiriqlarning kunlik ijrosini tashkillashtiradi.

Ma‘muriy va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, ro‘yxatga olish, litsenziyalash va ruxsat berishga doir tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning tezkorligini oshirish maqsadida barcha hududlarda **201 ta** davlat xizmatlari markazi tashkil etildi. Ushbu markazlar tomonidan 200 ga yaqin davlat xizmatlarini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan 450 dan ortiq qonunchilik hujjatida belgilangan ayrim turdagi ma‘lumot va hujjatlarni aholi hamda tadbirkorlardan talab qilinishi bekor qilindi, ushbu hujjatlarni vakolatli davlat organi tomonidan “Elektron hukumat” platformasi orqali olish tartibi joriy etildi. Shu bilan birga, davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan “Ochiqlik indeksi” joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, fuqarolik institutlarining huquq va erkinliklariga rioya qilish kafolatlari, ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib berishga oid tamoyillar mustahkamlab qo‘yilgan. Bu borada qabul qilingan jami ikki yuzdan ortiq qonun hujjatlari mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini izchil rivojlantirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi *“Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi PQ-4501-son

Qarori hamda 2021-yil 4-martdagi “2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmonida ko‘zda tutilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ushbu ijobiy jarayonni rivojlantirish, ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishda fuqarolik institutlari rolini kuchaytirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy va ishbilarmonlik faolligini oshirishga yordam bermoqda.

2022-yilda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va asosiy vazifalar doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi. Keng ko‘lamli va samarali islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotga shu yilning o‘zida 8 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksport hajmi esa 19 milliard dollarga yetdi. Bunday katta natijalar ilgari bo‘lmagan.

Tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste‘mol xarajatlaridan kam bo‘lmagan darajaga olib chiqildi. Misol uchun, 2017-yilda kam ta‘minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo‘lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko‘mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag‘lar esa, 7 barobar ko‘paytirilib, yiliga 11 trillion so‘mga yetdi. Bu davrda qo‘shimcha 500 ming o‘quvchi o‘rni yaratilib, ularning jami soni 5 million 300 mingga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023-yil 11-sentyabrdagi** tegishli farmoni bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatda quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilgan:

- *barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;*

- *aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;*

- *aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;*

- *xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;*

- *mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash.*



“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta’minlanadi. Hujjat bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda strategiya ijrosini baholash imkoniyatini yaratuvchi onlayn portalni ishga tushirishi belgilangan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. 2017-yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatit va asosiy strategik maqsadi nimadan iborat?
2. “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida asosan nimalar aks ettirilgan?
3. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasining jamoatchilik muhokamasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi qanday g‘oyalarga asoslangan?
5. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi qanday ustuvor yo‘nalishlardan iborat?
6. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston haqida qanday fikrlarni bildirdan?
7. 2026-yilgacha Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan 5 ta asosiy vazifa nimalardan iborat?
8. “Ochiqlik indeksi” joriy etilishidan ko‘zlangan asoisy maqsad nima?
9. ShHTning Samarqand sammiti haqida nimalarni bilasiz?
10. Turkiy davlatlar tashkilotiga qaysi davlatlar a’zo?
11. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yo‘nalishlar bo‘yicha belgilangan asosiy vazifalar haqidagi ma’lumotlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

<b>T/r</b>	<b>Yo‘nalish nomi</b>	<b>Belgilangan asosiy vazifalar</b>
------------	-----------------------	-------------------------------------

#### **4-§. O‘ZBEKISTONDA DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR**

**Parlament tizimidagi islohotlar.** Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda mustaqillikni mustahkamlash, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgan chuqur siyosiy islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat barpo etishdek strategik maqsadni amalga oshirish yo‘lidagi eng muhim vazifa davlat boshqaruvini liberallashtirish, modernizatsiya qilish va demokratlashtirishdir. Mamlakat rahbariyati tomonidan yangi institut va tizimlarni shakllantirish, hokimiyat va nazorat mexanizmlarini o‘zgartirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi. *O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi* oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati – besh yil.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda parlamentning rolini yanada kuchaytirish borasida bir qator muhim ishlar amalga oshirildi. Harakatlar strategiyasi doirasida beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha har yili qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilgan davlat dasturlarining ijrosi natijasida Yangi O‘zbekiston poydevorining tamal toshlari qo‘yildi. O‘zbekiston Prezidenti bu borada yana bir yangi an’anani parlament amaliyotiga kiritish taklifi bilan chiqdi. Ya’ni, endilikda Bosh vazir hukumat a’zolari bilan birga O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi doirasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Senat va Qonunchilik palatasida har uch oyda hisobot bermoqda.

Eng muhimi, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilgan izchil islohotlar Oliy Majlis palatalari faoliyatida ham muayyan ijobiy natijalarga erishilishi uchun zamin yaratdi. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, mamlakatimiz Prezidenti

tashabbusi bilan mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirishda Oliy Majlis palatalarining mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha Oliy Majlis palatalariga qo'shimcha vakolatlar berildi.

*Birinchidan*, 2019-yildan boshlab hukumatning Davlat dasturi ijrosi bo'yicha parlament oldida har chorakda hisobot berishi amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shunga muvofiq, Qonunchilik palatasida hamda uning qo'mitalari va siyosiy partiyalar fraksiyalari majlislarida hukumatning tegishli yilga mo'ljallangan Davlat dasturi ijrosi yuzasidan hisoboti har chorakda ko'rib borilayotganligi belgilangan vazifalarning izchil bajarilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

*Ikkinchidan*, Oliy Majlisning faoliyatiga hukumat ishi ustidan parlament nazoratining muhim turi – muntazam ravishda o'tkaziladigan “hukumat soati” instituti joriy etildi. Oliy Majlis palatalari sog'liqni saqlash, tashqi ishlar, ichki ishlar, adliya vazirlari va hukumatning boshqa a'zolari hisobotlarini vaqti-vaqti bilan eshitib borishi yo'lga qo'yildi. Zero, bu jarayon joylarda aholini tashvishga solib kelayotgan qator muammolar va masalalarni hal etishda ijro etuvchi hokimiyat hamda parlament hamkorligining eng samarali usuliga aylandi. Masalan, 2021-yilda 7 marotaba “hukumat soati” o'tkazilib, ularda hukumatning jami 8 nafar a'zosi xalq vakillarining dolzarb masalalarga doir savollariga atroflicha javob berdi.

*Uchinchidan*, ijro hokimiyatining xalq vakillari oldidagi mas'uliyatini oshirish hamda Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibini yanada demokratlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan hukumat a'zolari nomzodlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasida muhokama qilish amaliyoti joriy etildi. 2021-yil davomida hukumat a'zoriga 9 nafar nomzod Qonunchilik palatasining majlislarida ko'rib chiqildi. Nomzodlarning muayyan sohani rivojlantirish bo'yicha yaqin muddatga va istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturi bilan deputatlar oldida chiqish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida, parlament nazoratining samaradorligini va deputatlar korpusining ham mas'uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

*To'rtinchidan*, parlament nazorati ob'yektlari qatoriga xo'jalik boshqaruvi organlari ham kiritildi. Shundan kelib chiqib, xo'jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ham parlament so'rovini yuborish institutidan foydalanish natijadorligi kengaytirildi. Agar 1991–2016-yillarda Qonunchilik palatasi 6 ta so'rov, 2004–2016-yillarda Oliy Majlis Senati tomonidan 7 ta so'rov yuborilgan bo'lsa, 2017–2021-yillar davomida esa, jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar, joylarda aholi bilan uchrashuvlar va sayyor qabullar hamda ijtimoiy tarmoqlarda ko'tarilgan masalalar yuzasidan Oliy Majlis Senatida bu ko'rsatkich 35 tani tashkil qilib, so'rovlar soni 5 barobarga, Qonunchilik palatasi so'rovlari soni 56 tani tashkil qilib, deyarli 8 barobarga ortdi.

*Beshinchidan*, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarini O'zbekiston tomonidan bajarishga, mamlakatimizning xalqaro reytinglar va indekslardagi ko'rsatkichlarini yanada yaxshilashga doir rejalar ijrosini nazorat qilish ham parlament amaliyotiga kirib keldi.

**2019-yil iyunda** ayol kishi, ya'ni Tanzila Narbayevaning Senat raisi etib saylangani mamlakat siyosiy hayotidagi eng muhim voqea bo'ldi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra, aynan Senat raisi mamlakatda prezidentdan keyingi ikkinchi siyosatchi ekanligini inobatga olsak, bu haqiqatan ham o'ta muhim va ahamiyatli o'zgarish bo'lib, siyosiy tizimning rivojidan dalolat beradi. Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Oliy Majlisga saylangan ayol deputatlar soni ikki baravarga ko'paygan. Agar 2014-yilda 24 nafar ayol va 126 nafar erkak saylangan bo'lsa, 2019-yilgi saylov natijalariga ko'ra – **48 nafar** ayol va **102 nafar** erkak saylangan.

2018–2021-yillarda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini oshirish bilan bog'liq 2 ta qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 ta farmon va qarori, Hukumatning 16 ta qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi *Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi* tashkil qilindi. Ayol senatorlarning soni qariyb **30 foizga**, deputat ayollar soni esa **50 foizga** o'sdi.

**2019-yil 22-dekabr** kuni O‘zbekistonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda viloyat, tuman, shahar Kengashlariga navbatdagi deputatlik saylovi bo‘lib o‘tdi. Mazkur jarayon yangi Saylov kodeksiga muvofiq hamda “*Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar*” shiori ostida o‘tkazildi. Partiyalar barcha 150 ta saylov okrugida o‘z nomzodlarini ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ldi. 22-dekabr va 5-yanvarda bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov yakunlariga ko‘ra, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (O‘zLiDeP) o‘z yetakchiligini saqlab qoldi. Ikki raund davomidagi ovoz berish yakunlari bo‘yicha O‘zLiDeP parlament quyi palatasidagi 150 o‘rindan 53 tasini, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi – 36, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi – 24, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi (XDP) – 22 va Ekologik partiya – 15 o‘rinni egallashdi.

Taraqqiyot strategiyasida “elektron parlament” doirasida deputatlarni o‘z saylovchilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish masalalari bo‘yicha ham vazifalar belgilangan. Bu borada Qonunchilik palatasida deputatlarni o‘z saylovchilari bilan bog‘lash, shu jumladan ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish, amalga oshirilayotgan ishlar, ko‘rib chiqilayotgan hujjatlar va saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish imkoniyatini beradigan “Qonun ijodkorligi faoliyati tizimi” [www.qonun.gov.uz](http://www.qonun.gov.uz) hamda “Deputatlar portali” [www.deputat.gov.uz](http://www.deputat.gov.uz) axborot tizimi ishga tushirildi. Shuningdek, kelgusida xalq vakillarining o‘z saylovchilari bilan yanada yaqinlashtirish, saylovchilarning kayfiyatidan doimiy ravishda xabardor bo‘lib turish maqsadida deputat yordamchilari faoliyati takomillashtiriladi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq, senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o‘zgarish 2024-yilda bo‘ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmaslikka, o‘zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi. Bundan

tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatga o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati berildi (palata a'zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi talab etiladi).

Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi. Endilikda buning uchun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli (avval har ikki palata a'zolarining uchdan ikki qismi ovoz berishi zarur edi; eslatib o'tamiz, ishonchsizlik votumi e'lon qilinsa, prezident bosh vazirni lavozimidan ozod etadi). Bosh vazir va hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish ham quyi palataning vakolatiga o'tkazildi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi hukumat a'zolarini iste'foga chiqarish to'g'risida prezidentga taklif kiritish vakolatiga ega bo'ldi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o'rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o'rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi hamda bosh prokurorga nisbatan ham tatbiq etilmoqda. Hokimlar va kengashlar raislari bo'yicha esa bu qoida surunkasiga ikki martadan ortiq aynan bitta viloyat, tuman yoki shaharda hokim yoki kengash raisi bo'lishni cheklaydi; ya'ni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq turli hududlarda hokim yoki kengash raisi bo'lishi mumkin.

**Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish.** Keyingi yillar tajribasi shuni tasdiqlamoqdaki, o'tayotgan har bir yilimiz ulkan dastur va loyihalarni amalga oshirish, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirish borasidagi bilim tajribamizni boyitish borasida yangi bosqichlarga yuksalish davri sifatida tarixga muhrlanmoqda. Bugun, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish yo'nalishidagi tub o'zgarishlar xalqimiz hayotida o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **2017-yil 8-sentabrda** "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoniga imzo chekdi. Xalq davlat

organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak, degan g'oya mazkur konsepsiyaning asosini tashkil etadi. Mazkur hujjat 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam hisoblanadi hamda mohiyatiga ko'ra O'zbekistonning davlat va jamiyat qurilishida yangi sahifani ochib beradi. O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning **6 ta** asosiy yo'nalishi belgilab berildi.

*Birinchi yo'nalish* ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bag'ishlangan.

*Ikkinchi yo'nalish* ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini aniqlashtirishni nazarda tutadi.

*Uchinchi yo'nalish* iqtisodiyot tarmoqlariga ma'muriy ta'sirni qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish hisoblanadi.

*To'rtinchi yo'nalishda*, jumladan, quyidagilar orqali vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish nazarda tutilgan

*Beshinchi yo'nalish* davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g'oyalar, ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan.

*Oltinchi yo'nalishda* professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlarini o'rnatish belgilangan.

**2018-yil 7-avgustda** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan "*Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining virtual makonda ishtirokini faollashtirish Konsepsiyasi*" tasdiqlandi. Mazkur Konsepsiya 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga oid vazifalarni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining virtual makondagi ishtirokini yanada

takomillashtirish, axborot xizmatlarining jamoatchilik fikrini, ushbu organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarga munosabatini tizimli o'rganish, ro'y berayotgan voqea-hodisalarga davlat organlarining o'z vaqtida munosabat bildirishini samarali tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi* – respublika hukumati, mamlakatning ijro etuvchi organi bo'lib, iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, Prezidentning farmon va farmoyishlari ijrosini ta'minlashga rahbarlik qiladi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va **2019-yil 10-dekabrda** qabul qilingan "*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida*"gi Qonun asosida amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va ular tomonidan tuzilgan xo'jalik boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi, ularning kelishilgan faoliyatini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisi oldida javobgardir. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari shaxsan Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **XX bobi** "*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi*" (114-119-moddalar) deb nomlanadi. Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy normalar doirasida va qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

**2019-yil 28-yanvarda** O'zbekiston Prezidenti "O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalarini amalga oshirish samaradorligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas'uliyatini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyatini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarorlarni imzoladi. Mazkur hujjatlar asosida mamlakat hukumati tuzilmasi va faoliyatiga qator muhim o'zgarishlar kiritildi. Masalan, **2019-yil 1-apreldan** boshlab O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining



o‘rinbosarlari, vazirlar lavozimlariga nomzodlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlash, vazirlar va davlat qo‘mitalari raislari, barcha darajadagi ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning rahbarlari faoliyatini baholash tartibi joriy etildi. Aniq yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlarning borishini o‘rganish bo‘yicha Hukumatning hududlarda sayyor (ochiq) yig‘ilishlarini tizimli ravishda o‘tkazish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 21-dekabr**dagi *“Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi Farmoniga ko‘ra, 2023-yil 1- yanvardan boshlab mustaqil faoliyat yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining sonini 61 tadan 28 tagacha, shu jumladan, vazirliklar sonini 25 tadan 21 tagacha qisqartirish belgilandi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi. Prezident Bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodni ko‘rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko‘pi ma‘qullasa, bosh vazir lavozimga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli. Avvalgi tartibga ko‘ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko‘p o‘rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma‘qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi.

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi: 1) viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024-yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo‘yicha; 2) tuman va shaharlarda 2026-yil 1-yanvardan boshlab. Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi.

Tegishli hududdagi ijro etuvchi hokimiyatga viloyat, tuman va shahar hokimi boshchilik qiladi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki

muddatdan ortiq ayni bir viloyat, tuman, shaharning hokimi etib tayinlanishi mumkin emas. Xalq deputatlari Kengashi va hokim o‘z vakolatlari doirasida tegishli hududdagi barcha tashkilotlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi.

Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim – sektorlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokurorlari, ichki ishlar va davlat soliq xizmati rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha **4 ta** sektorga bo‘lindi. O‘z navbatida, Senatda doimiy asosda ishlovchi senatorlar hududlardagi mahalliy Kengashlarga mas‘ul etib biriktirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga birinchi Murojaatnomasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi 15 ta deputatlik o‘rni belgilab qo‘yilmasdan, Ekologik harakat boshqa partiyalar bilan teng raqobatga kirishgan holda, saylovlar orqali deputatlik o‘rniga erishishi lozimligi taklif etildi. Shunga ko‘ra, 2019-yil 8-yanvarda O‘zbekiston Ekologik harakati negizida O‘zbekiston Ekologik partiyasi tashkil etildi. Shu tariqa O‘zbekistonda ayni paytda **5 ta** siyosiy partiya faoliyat ko‘rsatmoqda.

**Fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar.**

Mamlakatimizda “*Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari*” tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida aholi keng qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan, mustaqil ish olib boradigan, barqaror fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy va moddiy sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizni demokratik modernizasiya qilishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyati muttasil oshayotgani, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning fuqarolik ongi hamda siyosiy-huquqiy madaniyatining barqaror

o‘sayotganidan dalolat beradi. Bu esa kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatda demokratik islohotlar samaradorligi ko‘p jihatdan fuqarolar ongi, aholining siyosiy-huquqiy madaniyatining nechog‘li rivojlanganiga bog‘liqdir. Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Aholida inson huquq va erkinliklari, qonunlarni hurmat qilish, o‘zining konstitusion huquqlari, Vatanimiz taqdiriga, mamlakatimiz hamda dunyoda ro‘y berayotgan voqealarga daxldorligini anglash tuyg‘usini shakllantirish muhim vazifalardandir.

Fuqarolik jamiyati institutlari O‘zbekistonda aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, shaxs huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lmoqda. Bularning barchasi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va uning institutlarini isloh etish hamda demokratlashtirish, rivojlantirish jarayoni takomillashayotganidan dalolat beradi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg‘armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Ular O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining institutlari tuzilmasini tashkil etadi va fuqarolarning mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni bajarishda faol ishtirokini ta‘minlashga ko‘maklashadi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rni va ahamiyatini oshirishga qaratilgan bu kabi ezgu amallar zamirida Prezident Shavkat Mirziyoevning ushbu tizimni yanada taraqqiy ettirish, xususan, baxtli va osoyishta, obod va farovon, to‘kis va munosib hayot kechirishimizga bog‘liq barcha masalalar yechimini xalq ovozi bo‘lgan mahalla darajasiga tushirishga oid tashabbusi mujassamdir. Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda biz uchun eng muhim va asosiy poydevor bu – xalq ovozi, xalq fikri ustuvor bo‘lgan mahalladir”.

**2017-yil 3-fevralda** O‘zbekiston Prezidenti “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzoladi. Mazkur farmon asosida fuqarolar yig‘inlarining

uyushmasi sifatida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlariga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilishi belgilandi. Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo‘yicha rais o‘rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma’rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha rais o‘rinbosarlari lavozimlari joriy etildi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosari – yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 18-fevraldagi** “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, mehnat tizimini yuksaltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida oila va xotin-qizlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarish vazifalari belgilandi. O‘sha kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, yangi vazirlik – *Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi* tashkil etildi. O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va mahalla fuqarolarining o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashi isloh qilinib, ular yangi tashkil etilgan vazirlik tuzilmasi tarkibiga kiritildi. So‘nggi yillarda el-yurtimiz hayotining barcha soha va yo‘nalishlari bo‘yicha “mahallabay” ishlash tizimi keng joriy etilib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat ta’sirchan tuzilma faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi belgilab qo‘yilganligi diqqatga loyiqdir. Konstitutsiyamizda bunday kafolatning belgilanishi mahallalarga: *birinchidan*, o‘z hududini

mustaqil boshqarish; *ikkinchidan*, aholi manfaatlaridan kelib chiqib davlat bilan sheriklik asosida muammolarni hal etib borish; *uchinchidan*, hududni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish; *to'rtinchidan*, samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; *beshinchidan*, aholi farovonligini ta'minlash borasida muhim imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bu haqda fikr yuritganda, xususan, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy makonni kengaytirish maqsadida, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida: **2018-yil 12-aprelda** "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun qabul qilingani; **2018-yil 18-aprelda** qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, jumladan, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar yangi davr talablari asosida takomillashtirilgani; O'zbekiston Prezidentining **2018-yil 4-mayda** "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzolagani; **2018-yilda** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tuzilgani; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan **2019-yil 4-oktyabrda** "Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror qabul qilingani; O'zbekiston Prezidentining **2019-yil 30-oktyabrda** qabul qilingan "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashining samarali faoliyatini ta'minlash maqsadida Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring

qilish mustaqil instituti Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi maqomida qayta tashkil etilganini ta'kidlash o'rinlidir.

O'z navbatida, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ushbu sohaning joriy va istiqboldagi ustuvor maqsadlari hamda asosiy vazifalari belgilab berildi. Bunda, avvalambor, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 1-maqsadi "Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish", deb nomlanganiga e'tibor qaratish zarur.

Taraqqiyot strategiyasining 4-maqsadi "Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish" deb nomlangan. Unda, xususan, davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish; vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo'nalishlarini "Davlat – xalq xizmatchisi" tamoyili asosida fuqarolarga xizmat qilishga yo'naltirish vazifalari belgilangan. Eng asosiysi, Taraqqiyot strategiyasining "Ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish" deb nomlangan 12-maqsadida bu boradagi bevosita muhim bir qator vazifalar nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga noqonuniy aralashganlik va to'sqinlik qilganlik, jumladan, mansabdor shaxslar tomonidan senzura o'rnatish, tahririyat xodimlariga bosim va tazyiq o'tkazish, materiallar va texnik vositalarni ulardan g'ayriqonuniy ravishda olib qo'yish harakatlari sodir etilgani uchun javobgarlikni yanada kuchaytirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Taraqqiyot strategiyasining **89-maqsadi** "Fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash" deb atalgani katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtda Taraqqiyot strategiyasi ko'zda tutilgan eng muhim vazifalar qatorida Axborot kodeksi loyihasini tayyorlash ustida qizg'in ish bormoqda.

Mamlakatimizda so'z erkinligini ta'minlash, axborot va ommaviy kommunikatsiyalar sohasini boshqarish tizimini qayta

tashkil qilish, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muammoli masalalarini hal etishda ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ommaviy axborot vositalarining mamlakatimizdagi faoliyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1991-yili mamlakatimizda bor yo'gi 395 ta OAV faoliyat yuritgan. 2016-yilga kelib ularning soni 1437 taga yetgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 2 mingga yaqinlashdi.

O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalari uchun zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida **2018-yilda** Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi. O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi va Xalqaro press klub kabi tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonda yetakchi xorijiy OAV vakillari, jumladan Reuters, France Press, BBC, The Economist, Xinhua, "Amerika Ovozi", "Fergana.Ru", Eurasianet muxbirlari erkin ishlamoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 2-fevraldagi** PF-5653-son farmoni va PQ-4151-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi *Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi* tashkil etildi. Mazkur hujjatlarda Agentlikning fuqarolarning so'z va axborot erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarining ro'yobga chiqishini ta'minlash, mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, media-bozorda ular uchun teng sharoitlar yaratish, shuningdek, jurnalistlar huquqlarini himoya qilish kabi asosiy vazifalari belgilandi. Agentlik zimmasiga davlat organlari va boshqa tashkilotlarga ular faoliyatining ochiqligini ta'minlashda, davlat xizmatchilariga ommaviy axborot vositalari bilan ochiq, ommaviy o'zaro hamkorlik qilish madaniyatini singdirishda, shu jumladan, ularning Axborot xizmatlari (jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha bo'linmalari) faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy jihatdan ta'minlash orqali ko'maklashish vazifasi ham yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 27-iyundagi** “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori mazkur sohani yanada rivojlantirishda g‘oyat muhim qadam bo‘ldi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish – qonun ustuvorligini ta’minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonlarda ommaviy axborot vositalarining alohida roli bor. Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to‘sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi.

Bularning barchasi, shubhasiz, fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlantirish hamda jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki va ta’sirchan rolini oshiradi. Binobarin, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yanada ochiqligini ta’minlash, boshqaruv qarorlari qabul qilinishini sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarishda aynan fuqarolik jamiyati institutlari beqiyos ahamiyat kasb etadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipi deganda nimani tushunasiz?
2. Parlament nima?
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qanday palatalardan iborat?
4. O‘zbekistonda parlamentning rolini yanda kuchaytirish borasida qanday ishlar amalga oshrildi?
5. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, Oliy Majlis faoliyatiga doir qanday o‘zgartirishlar kiritildi?
6. “Parlament so‘rovi” nima?
7. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida yana kimlarga tadbiiq etilmoqda?



8. Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi qanday asosiy yo'nalishlardan iborat?
9. O'zbekiston Respubliaksi Vazirlar Mahkamasi qanday vazifani bajaradi?
10. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra, mahalliy davlat boshqaruvida qanday o'zgarishlar kutilmoqda?
11. Fuqarolik jamiyati institutlariga nimalar kiradi?
12. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining huquqiy asoslari nimalardan iborat?
13. Ommaviy axborot vositalari faoliyatida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
14. Qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ayni paytda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan vazirliklar haqida ma'lumot to'plang.
15. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida quyidagi jadvalni to'ldiring.

<b>T/r</b>	<b>Partiya nomi</b>	<b>Tashkil etilgan sanasi</b>	<b>Maqsadi</b>	<b>Rasmiy nashri</b>
------------	---------------------	-------------------------------	----------------	----------------------

## 5-§. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD-HUQUQ TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

**Saylov tizimidagi islohotlar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan saylov qonunchiligi bir qator qonun va qonunosti hujjatlaridan iborat bo'lsada, afsuski, hanuzgacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmaganligini ta'kidlab, xalqaro norma va standartlarga javob beradigan O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish vazifasini qo'ygan edi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev **2019-yil 25-iyun** kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 18-fevralda qabul qilingan va 28-fevralda Senat tomonidan ma'qullangan "*O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini tasdiqlash to'g'risida*"gi Qonunni imzoladi. Yangi kodeks 26-iyundan kuchga kirdi. Hujjat Prezident, Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini o'zida mujassam etgan. 18 bob, 103 moddadan iborat bo'lgan Saylov kodeksi ilgari saylov qonunchiligimizda mavjud bo'lmagan yangi tartib va qoidalar bilan yanada takomillashtirildi.

Saylov kodeksi kuchga kiritilishi munosabati bilan **30 ga** yaqin qonun hamda qonunlarga keyinchalik kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar, shuningdek, qonunosti hujjatlari o'z kuchini yo'qotdi. Mazkur kodeks tarqoq holdagi 5 ta qonun ("*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida*" (1991-yil 18-noyabr), "*Fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlari to'g'risida*", "*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida*" (1993-yil 28-dekabr), "*Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida*" (1994-yil 5-may), "*O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida*"gi (1998-yil 30-aprel)) va Markaziy saylov komissiyasining saylovlarni tashkil etish va o'tkazishga oid o'nlab nizom va yo'riqnomalarini yagona qonun hujjatida mujassam etdi. Aytish joizki, ularning barchasida fuqarolarning saylov huquqlariga doir deyarli bir xil normalar

takrorlanardi. Saylovga oid qonunlar ko'pligi ularni qo'llashda muayyan qiyinchiliklar tug'dirganligi ham o'z-o'zidan tushunarli.

Qayd etish joizki, Saylov kodeksi loyahasini tayyorlashda 50 dan ortiq ilg'or xorijiy davlatlarning tajribasi o'rganildi. Ayni paytda, xorijiy mamlakatlar saylov qonunchiligi va tajribasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda 40 ga yaqin davlatda, xususan Fransiya, Belgiya, Braziliya, Belarus va Ozarbayjon kabi davlatlarda saylov kodekslari qabul qilingan.

E'tiborli jihati shundaki, ilk bor Saylov kodeksi xalqaro ekspertizadan o'tkazildi. Xalqaro tashkilotlarning ekspertlari ishtirokida **2018-yil 16-17-noyabr** kunlari Buxoro shahrida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Saylov kodeksi loyihasi yuzasidan kelib tushgan takliflar atroflicha muhokama qilindi. Yevropadagi xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Butunjahon saylov organlari assotsiatsiyasi, Islom hamkorlik tashkiloti, Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan kodeks loyihasi o'rganilib, tavsiyalar berildi.

Yangi qabul qilingan Saylov kodeksiga binoan, saylov tizimida quyidagi o'zgarishlar ro'y berdi:

*Saylov uchastkalari bilan bog'liq o'zgarishlar.* Uchastka saylov komissiyasi a'zolarining yarmidan ko'pi bitta tashkilotdan tavsiya etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi. Bu esa, saylovlarni o'tkazish va tashkil etishda xolislik tamoyilining hayotga tatbiq etilganidan dalolatdir. Shuningdek, uchastka saylov komissiyalarining ovoz berish jarayoni tugagandan keyin amalga oshiradigan aniq harakatlari (ovozlarni sanash, bayonnomalarni tuzish, okrug saylov komissiyalari bilan o'zaro aloqalari va h.k) qonun darajasida mustahkamlandi. Ilgari bunday normalar Markaziy saylov komissiyasining hujjatlarida aks etgan edi.

*Nomzodlar bilan bog'liq o'zgarishlar.* Ma'lumki, ilgari xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ega edi. Endilikda, Saylov kodeksiga muvofiq, nomzodlarni xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan ko'rsatish tartibi bekor qilindi.

Mazkur yangilik mahalliy Kengashlarda partiyaviy yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, endilikda siyosiy partiya u yoki bu shaxsni nomzod etib ko'rsatish to'g'risidagi o'z qarorini saylovga kechi bilan o'n besh kun qolganida bekor qilishi mumkin. Avvallari esa, siyosiy partiyaning bunday qarori saylovga kechi bilan besh kun qolganda bekor qilinishi mumkin edi. Ushbu holat saylov kuniga yaqin tig'iz paytda birmuncha murakkabliklarni keltirib chiqarar edi.

*Ovoz berish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar.* Mazkur yo'nalishdagi o'zgarishlarda, avvalo, saylov byulletenidagi bo'sh kvadrat ichiga saylovchilar tomonidan nomzodga yoqlab ovoz berishda bir qancha belgilar (Q, √, X) qo'yish imkoniyati yaratilganligida ko'rishimiz mumkin. Bu saylovchilarga yanada qulaylik yaratishga qaratilgan amaliyotning tatbiq etilganligidan dalolatdir. Muddatdan oldin ovoz berish va saylov kuni ovoz berish uchun mo'ljallangan saylov byulletenini joriy qilish bilan "saylov varaqasi" tushunchasi chiqarib tashlanligiva saylovchilar yagona elektron ro'yxatining amal qilish mexanizmi tartibga solinganligi ham e'tiborga molik jihatlardandir.

Ilgari saylov kuni ovoz berish vaqti 06:00 da boshlanar va uchastka saylov komissiyasi a'zolariga muayyan qiyinchiliklar tug'dirar edi. Saylov kuni ovoz berish vaqti 08:00 dan 20:00 gacha etib belgilanligi komissiya a'zolari va saylovchilar uchun ham qulaylik yaratdi. Qolaversa, saylov byulletenlari Brayl alifbosi asosida tayyorlanishi joriy qilinib, imkoniyati cheklangan shaxslarning saylovga oid konstitutsiyaviy huquqlari kafolatlandi.

*Siyosiy partiyalar bilan bog'liq o'zgarishlar.* Siyosiy partiyalar tomonidan imzo yig'ishda saylovchilarga bir qancha partiyalarni yoqlab imzo qo'yish imkoniyati berildi. Ilgari mavjud bo'lgan bir saylovchining faqatgina bir siyosiy partiyaning qo'llab-quvvatlab imzo berishi mumkinligi haqidagi qoida turli siyosiy partiyalarga imzo to'plash jarayonida muayyan ma'noda murakkabliklar keltirib chiqarar edi. Ayni paytda, siyosiy partiyalar o'zlarining saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish to'g'risidagi axborotni saylov yakunlari e'lon qilinganidan keyin bir oy ichida o'z rasmiy veb-saytlarida va bosma nashrlarida e'lon qilishi qonun

darajasida belgilandi. Ilgari mazkur tartib mavjud emas edi. Bu esa, saylov jarayonlari yanada shaffof o‘tishiga zamin yaratadi.

*Boshqa o‘zgarishlarni ham ko‘rish mumkin.* Saylovchilarning yagona elektron ro‘yxatini yuritish tartibi belgilandi. Bu esa, bir saylovchining bir nechta ro‘yxatlarda nazarda tutilishini oldini olib, bir saylovchi bir ovozga ega bo‘lishini to‘liq ta‘minlaydi. Saylovchilarning ro‘yxatlariga o‘zgartishlar kiritish saylovga uch kun qolganida to‘xtatilishi belgilandi. Ilgari bunday normaning aniq belgilanmaganligi bu borada turlichalkashliklarga olib kelar edi.

Saylov okruglarini tuzishdagi yangiliklardan yana biri shuki, endilikda saylov okruglaridagi saylovchilar sonining yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p chegarasining chetga chiqishi o‘n foizdan oshmaydi. Bu esa, saylovchilarning barcha okruglarda teng taqsimlanishiga zamin yaratadi. Saylov kodeksida katta ijtimoiy xavfi bo‘lmagan jinoyatlar va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslarning saylovda ishtirok etishi bo‘yicha cheklovlar olib tashlandi. Endilikda ular ham saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lishdi.

**2021-yil 8-fevral** kuni mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktyabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida (oldin dekabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida edi) o‘tkaziladigan bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlashga haqli. Mazkur konstitutsiyaviy normadan kelib chiqqan holda, **2023-yil 9-iyul** kuni mamlakatimizda muddatidan ilgari prezident saylovi o‘tkazildi. Markaziy saylov komissiyasi bergan ma‘lumotga ko‘ra, saylovda jami ro‘yxatga olingan saylovchining 15,6 million nafari, ya‘ni saylovchilarning 79,8 foizi ovoz berdi. Saylov kodeksining

96-moddasiga muvofiq, agar saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarning **33** foizi ovoz berishda ishtirok etgan bo'lsa saylov o'tgan hisoblanadi. Saylovchilarning 87 foizdan ortiq ovozini olgani uchun Shavkat Mirziyoyev 7 yil muddatga O'zbekiston Prezidenti etib qayta saylandi.

**Sud-huquq tizimidagi islohotlar.** 2017-yildan O'zbekistonda boshlangan sud-huquq tizimidagi islohotlar 2-davrining asosiy xususiyati O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning **2017-yil 21-fevraldagi** "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlar shtat birliklari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimiga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2016-yil 21-oktyabrdagi** "Sud- huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, sudyalik lavozimiga tayinlash (saylash) muddatlariga qat'iy aniqlik kiritildi. Ya'ni sudyalik lavozimiga birinchi marotaba tayinlash 5 yilga, ikkinchi marotaba – 10 yil, keyingisida muddatsiz tayinlanish (saylanish) imkoni yaratildi. Bu sudyalarning yoshi, malakasi, kasb mahoratini inobatga olgan holda uzoqroq muddatga faoliyat ko'rsatishini kafolatlaydi. Sudyalikka hayot tajribasiga ega shaxslarni tayinlash maqsadida ilk marotaba tavsiya etiladigan nomzodlar uchun sudyalikka nomzodning yoshi kamida **35 yosh** etib belgilandi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish borasida strategik ahamiyatga ega muhim qadamlar tashlandi. Jumladan, sudlar mustaqilligini ta'minlash maqsadida, 2017-yilda *Sudyalar Oliy kengashi* tashkil qilindi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 135-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi

Sudyalar oliy kengashi sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi bo'lib, u sudyalar korpusining shakllantirilishini, sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisi va uning o'rinbosari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan besh yillik muddatga saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisi, rais o'rinbosari etib saylanishi mumkin emas.

Shuningdek, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo'jalik sudlari iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi, 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi instansiyada ko'rib chiqish vakolati berildi. Sudlarning o'z moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini mustaqil hal qilish boradagi vakolatlari adliya organlaridan olinib, Oliy sudga o'tkazildi. Shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi faqat sud muhokamasida o'z isbotini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi qat'iy belgilab qo'yildi. Qiynoqqa solish, ruhiy, jismoniy bosim o'tkazish va boshqa zo'rvonlik holatlari qat'iy taqiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi ishlarni ko'radi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilishga haqli.

Sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beruvchi muddat 3 yildan 1 yilga qisqartirildi. O'tgan davr mobaynida sudyalarning umumiy soni qariyb **30 foizga** oshdi, natijada sudyalar korpusi kuchaytirildi. Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning

oldini olish bo'yicha *sud inspeksiyasi* tashkil etildi. Shuningdek, investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlar faqat iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida ishtirok etish huquqi bekor qilindi. Endi, bundan buyon prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki prokurorning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **2020-yil 24-iyul** kuni "*Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*"gi qarorni imzoladi. Mazkur hujjatga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab, fuqarolik, jinoyat ishlari va xo'jalik sudlari bo'yicha viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar negizida umumiy yurisdiksiya sudlari – Qoraqalpog'iston sudi, viloyat sudlari va Toshkent shahar sudi tashkil etildi. Bunda sud ishlarini yuritish turlari bo'yicha sudyalarning ixtisoslashuvi va sudyalar hay'atlari shakllantirilib, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish vakolatlari jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi. Viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ma'muriy va boshqa jamoat munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni ko'rishga ixtisoslashgan tumanlararo ma'muriy sudlari ish boshladi va shu munosabat bilan tuman va shahar ma'muriy sudlari tugatildi, Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari saqlanib qoldi. Bundan buyon sudlar ishini tashkil etish aholi soni va amaldagi ish hajmiga qarab belgilanadigan bo'ldi. **2021-yil 1-yanvardan** "*Bir sud – bir instansiya*" tamoyili joriy etildi va bir necha sud bosqichlari bekor qilindi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra, sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi. Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo'lmaydi. Avvalgi tartibga ko'ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil edi. Sudda ishlarni ko'rib chiqishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini ro'yobga chiqarish maqsadida jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda dastlabki eshituv instituti joriy etildi. Ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlari kamaytirildi.



Sudyalikka nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmi joriy etilgani alohida e'tirofga loyiq. Ilk bor sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash bo'yicha imtihon jarayonlarini onlayn yoritib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuningdek, sudyalik lavozimiga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarni ko'rib chiqish muqobilik asosida amalga oshiriladigan bo'ldi. Albatta, malakali va yetuk sudyalar korpusini hamda sud apparati xodimlarini tayyorlashning yangi tizimi jamiyatda sud idoralariga bo'lgan ishonchni oshirish, adolat barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash, tom ma'noda sudni "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirish hamda odil sudlovning yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, sud ishlarini yuritishda nazorat instansiyasi tugatildi. Sud tizimida ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish orqali "*Bir sud – bir instansiya*" tamoyili, shuningdek, tumanlararo sudlarning qarorlarini viloyat sudlari tomonidan, viloyat sudlarining birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'ati tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Aybiga iqrorlik bo'yicha kelishuv instituti joriy qilindi. U mamlakatda jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligining tatbiq etilishi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasi yuqori pog'onaga ko'tarilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, Bosh prokuror va o'rinbosarlarining sudning qarorlari ustidan nazorat tartibida protest kiritish huquqi bekor bo'ldi. Sudya faoliyatining samaradorligini elektron reyting orqali ochiq va shaffof baholashni ta'minlaydigan aniq mezonlar (reyting dasturi) amaliyotga tatbiq etildi. Sudyalar daxlsizligini ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish maqsadida tuzilgan sud inspeksiyasi, shubhasiz, sudyalar daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat ayblovchisi ayblovdan voz kechgan taqdirda, reabilitatsiya asoslariga ko'ra, jinoyat ishi tugatiladigan bo'ldi.

O'zbekiston tarixida ilk marotaba davlat organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari hamda g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish borasida yangi tizim yo'lga qo'yildi. Konstitutsiyaviy huquqni amalda ta'minlash maqsadida

yaratilgan ushbu tizim qisqa muddatda o'z natijasini bera boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 22-iyundagi** Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi tasdiqlangani mamlakatda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning va inson huquqlarini himoya qilish institutsional mexanizmlarini yaratishning muhim bosqichi hisoblanadi. Milliy strategiya Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda BMT Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari Boshqarmasi, YEXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi hamda xalqaro ekspertlar tavsiyalari hisobga olingan.

Sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, byurokratik g'ov va to'siqlarni bartaraf etish orqali fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini tubdan oshirish bo'yicha ham aniq vazifalar belgilandi. Jumladan, sud tizimini raqamlashtirish sudlarda ishlarni tez va sifatli ko'rib chiqishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo'lib, xalqaro maydonda O'zbekistonning nufuzini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Endilikda sud muhokamasida onlayn ishtirok etish, sudga murojaat qilish va ko'plab shunga o'xshash xizmatlarni elektron tarzda amalga oshirish imkoni yaratilmoqda.

**2022-yil 1-yanvardan** boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, advokatlar tomonidan sudlarga da'vo, ariza va shikoyatlarni faqat elektron shaklda taqdim etish amaliyoti joriy etildi. "Xabeas korpus" institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish belgilangan bo'lib, sud nazorati – jinoyat protsessida shaxsning sud himoyasida bo'lish konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash hamda protsess ishtirokchilari va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.

O'zbekistonda yuridik ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha barcha zarur choralar ko'rilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 29-aprelda** qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida, jumladan, advokatura uchun kadrlar tayyorlashni rivojlantirish yo'nalishi belgilab berilgan. Shu asosda Samarqand,

Namangan va Termiz davlat universitetlarida huquqshunoslik fakultetlari ochildi. Xulosa o'rnida shuni alohida qayd etish lozimki, mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilgan tizimli va salmoqli islohotlar o'tgan davr mobaynida sud hokimiyatni mustaqil va alohida hokimiyat tarmog'i sifatida tashkil etish, uni jazolash organidan inson huquq va erkinliklarini muhofaza qiluvchi hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qiluvchi mustaqil institutga aylantirdi.

**O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi islohotlar. 2017-yil 3-yanvarda** O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish va unga qarshi kurashishda muhim qadam bo'ldi. Shu bilan birga ushbu me'yoriy hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yagona davlat siyosatining maqsadli va tizimli yo'lga qo'yilishi uchun huquqiy zamin yaratdi. Qonundan ko'zlangan maqsad – korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyatiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, unda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to'liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, shuningdek korrupsiyani ijtimoiy hayotning barcha sohalaridan to'liq bartaraf etishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga qaratilgan me'yorlar o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari hamda bu boradagi davlat siyosatining muhim yo'nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohadagi ishtiroki, shuningdek xalqaro hamkorlik mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur qonun asosida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-

yil 2-fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qonun normalarini hayotga tatbiq etish maqsadida yuqorida ko‘rsatilgan Prezident qarori bilan 2017-2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi, *Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi* tarkibi tasdiqlandi. Mazkur hujjatlar o‘z mazmun-mohiyati, maqsadi bilan mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning yangi bosqichini boshlab berdi.

Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalar tashkil etilgani ushbu sohada samarali parlament nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishning huquqiy asoslari yaratildi va barcha davlat organlari va tashkilotlarida yuridik xizmatlar tashkil etildi. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan 20 ga yaqin qonun, 50 ga yaqin Prezident va hukumat qarorlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Prezidentining **2019-yil 9-yanvardagi** PF-5618-son Farmoniga muvofiq “Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oya asosida tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilishni nazarda tutuvchi *Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi* ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonligini oshirish, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. U “shaxs - oila - mahalla - ta’lim muassasasi - tashkilot – jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 27-maydagi** “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni asosida 2019-yil 1-avgustdan boshlab qurilish va ta’lim sohasida “korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish belgilab qo‘yildi. Farmonning 2-ilovasiga asosan

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi raisi – O'zbekiston Bosh prokurori tomonidan "Kapital qurilish va ta'lim sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi qabul qilindi. Mazkur farmon asosida 2019-2020-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Bundan tashqari Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 29-iyundagi** "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan *O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi* tashkil etildi. Agentlik maxsus vakolatli organ bo'lib, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul organ hisoblanadi. Agentlik Prezidentga bo'ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdordir. Shu bilan birga, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va uning hududiy idoralararo komissiyalari *O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi* va uning hududiy kengashlari etib qayta tuzildi. Milliy kengash raisi vazifasini *Oliy Majlis Senati raisi* bajaradigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarida Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi tashkil etildi.

**2021-yil 6-iyulda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatlardan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiyotni yanada o'stirish, xalq farovonligini oshirish, mamlakatda investisiya muhitini yaxshilash borasidagi strategik vazifalarni hal etish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining samarali

amalga oshirilishini ta'minlash hamda korrupsiya ko'rinishlarining sabab va shartsharoitlarini bartaraf etishdan iborat.

**Fuqarolar huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarining ta'minlanishi.** 2017-2021-yillarda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha muhim qadamlar tashlandi. Jumladan, mamlakat aholisi uchun uzoq yillardan buyon og'riqli masala bo'lib kelgan "propiska" tizimi tubdan isloh qilindi. Fuqarolik berish tartibining soddalashtirilishi natijasida 2018–2021 yillarda **70 mingdan ortiq** shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi. Byurokratik to'siqlarni kamaytirish yo'lida jismoniy shaxslar uchun bojxona hududiga kirib kelish va uni tark etish bo'yicha "yashil" va "qizil" yo'lak tizimi amaliyotga tatbiq etildi. Avvallari O'zbekiston Respublikasiga kirib kelishda yo'lovchi bojxona nazoratidan o'tish uchun o'rtacha 2 soatgacha vaqt sarflagan bo'lsa, endilikda o'rtacha 30 daqiqadan 1 soatgacha vaqt ichida chegara va bojxona nazoratini tark etishi mumkin. Uzoq yillar davomida mamlakat uchun tamg'a bo'lib kelgan Jasliq jazoni ijro etish koloniyasi tugatildi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan afv etish tizimi yo'lga qo'yildi. 2017–2021-yillarda jazo muddatini o'tayotgan **6 mingga yaqin** mahkumga nisbatan afv etish aktlari qo'llanildi.

1991-yildan 2007-yilga qadar respublikada jami 482 nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxs O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilingan bo'lsa, 2007-yildan 2016-yilning dekabr oyiga qadar bunday shaxslarga umuman fuqarolik berilmagan. 2016-yil dekabr oyidan 2021-yil may oyiga qadar prezidentning **87** ta farmoni asosida 22269 nafar shaxs mamlakatimiz fuqaroligiga qabul qilingan. O'zbekistonda 2023-yil birinchi yarmidagi holatga ko'ra, 25 ming 413 nafar fuqarolikka ega bo'lmagan shaxs yashaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida kelasi yili mamlakatda 2005-yildan beri doimiy yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston fuqaroligi berilishini e'lon qilingan edi. **2020-yil 13-martda** yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonunning 6-moddasiga ko'ra, 2005-yil 1-yanvargacha mamlakatga kelgan,

shuningdek, mamlakatda 15 yildan beri muqim istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston fuqarolari deb tan olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda qaroriga muvofiq, 2019-yil 1-yanvar kundan boshlab O'zbekistonda vaqtinchalik xorijga chiqish uchun ruxsatnoma yozuvi stikerlari berish to'xtatilib, xorijga chiqish biometrik pasportlari joriy etildi. Mazkur passport 10 yil muddatga beriladi.

**2020-yil 22-sentyabrda** O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, 2021-yildan boshlab 2011-yilgi namunadagi biometrik pasportlar o'rniga ID-kartalar joriy etildi. Biometrik pasportlari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxs va chet davlat fuqarolarining yashash guvohnomalarini ID-kartalariga almashtirish ikki bosqichda amalga oshirilmoqda: 1) 2021-yil 1-yanvardan 2022-yil 31-dekabrga qadar – ixtiyoriylik asosida 16 yoshga to'lganda hamda qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa sabablarga ko'ra; 2) 2023-yil 1-yanvardan 2030-yil 31-dekabrga qadar – majburiy tartibda. Ya'ni amaldagi biometrik pasport va O'zbekiston Respublikasida pasport tizimi to'g'risidagi Nizom 2030-yil 31-dekabrgacha haqiqiydir. 2011-yilgi namunadagi biometrik pasport 2031-yil 1-yanvardan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "*Bola huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*"gi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari – *Bola huquqlari bo'yicha vakil* lavozimi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi "Bola huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan Bola huquqlari bo'yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 19-yanvardagi** "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmatlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari

belgilandi. Mazkur qaror asosida davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik ta'minlash, ularning xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirish bo'yicha maxsus vakolatli organ etib belgilandi.

**2019-yil 6-sentyabrda** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholiga huquqiy axborotni yetkazish va yuridik yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qarordan ko'zlangan asosiy maqsad aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada oshirish, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirish, aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishdan iborat. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan "Advice.uz" (e-maslahat.uz) huquqiy axborot portali ishga tushirildi va mazkur portal orqali barcha onlayn rejimda bepul huquqiy maslahat olishlari mumkin. Qaror asosida aholiga huquqiy maslahatlar beruvchi bir qator muassasalar tashkil etildi.

Ma'lumki, **2020-yil 30-iyun** kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o'tkazilgan odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida sud-huquq tizimi, xususan, uning muhim tarkibiy qismi bo'lmish advokatura sohasiga doir muammolar ham ko'rib chiqilgandi. O'shanda advokatura muammolari tilga olinar ekan, avvalo kadrlar tanqisligi va sifati masalasiga e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda bugungi kunda 4 mingdan ortiq advokat faoliyat yuritishi, ya'ni aholi jon boshiga hisoblaganda 8,5 ming kishiga o'rtacha 1 ta advokat to'g'ri kelishi, ularning ham 43 foizi, ya'ni 1 ming 733 nafari Toshkent shahrida ish olib borishi ta'kidlandi. Qolaversa, Samarqand, Andijon, Termiz, Nukus, Mirishkor, Zafarobod, Uzun kabi 20 ta tumanda birorta ham advokatlik firmasi ro'yxatdan o'tmagani tanqid qilindi.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadi – "Advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish,



shuningdek, aholi va tadbirkorlik sub'yektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish"dan iborat. Bu ustuvor maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

*Birinchi*dan, advokatura institutini to'laqonli o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish va advokaturaga yosh malakali kadrlarni jalb qilish;

*Ikkinchi*dan, Advokatlar palatasi boshqaruv organlarining advokatlar hamjamiyati oldidagi hisobdorligini kuchaytirish;

*Uchinchi*dan, advokatlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy va institutsional asoslarini shakllantirish;

*To'rtinchi*dan, advokatlik faoliyatini raqamlashtirish. Boshqacha aytganda, advokatlik faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali ortiqcha byurokratiya va qog'ozbozlikka chek qo'yish, sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlari bilan elektron hujjatlar almashinuvini yo'lga qo'yish;

*Beshinchi*dan, bepul huquqiy yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish;

*Oltinchi*dan, notariat va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlarining xizmatlaridan ovoragarchiliksiz, shu jumladan masofadan turib va "yagona darcha" tamoyili asosida foydalanishni ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, "Yuridik yordam" axborot tizimi yaratilmoqda. Ushbu tizim advokat so'rovini elektron yuborish, elektron tartibda advokat orderini olish, advokatlar, sud, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa davlat organlari o'rtasida elektron ma'lumot almashish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, advokatning elektron shaxsiy kabineti orqali jismoniy va yuridik shaxslar bilan onlayn muloqot qilish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda masofadan turib yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida onlayn bitimlar (shartnomalar) tuzish va onlayn yuridik yordam ko'rsatishiga ham yo'l ochadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Fuqarolarning saylash va saylanish huquqi haqida nimalarni bilasiz?
2. Yangi Saylov kodeksining qabul qilinishi bilan qaysi qonunlar o'z kuchini yo'qotdi?

3. Saylov tizimida ovoz berish bilan bog‘liq qanday muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
4. O‘zbekistonda endilikda saylovlar qachon otkaziladi va buning sababi nimada?
5. O‘zbekistonda sud-huquq tizimidagi islohotlarning 2-davri nimadan boshlandi?
6. “Bir sud – bir instansiya” tamoyilini qanday tushunasiz?
7. Sudyalarni tayinlash (saylash) tartibiga qanday o‘zgarishlar kiritildi?
8. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?
9. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun nima maqsadda qabul qilindi?
10. O‘zbekistonda qaysi davlat organlari bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari bilan shug‘ullanadi?
11. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi nima maqsadda tashkil etildi?
12. O‘zbekistonda yuridik yordam olish tizimiga qanday o‘zgarishlar kiritildi?
13. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan asosiy vazifalarni ajratib ko‘rsating.

*13-maqsad: ...*

...

*20-maqsad: ...*

## 6-§. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISH – IQTISODIY ISLOHOTLARNING MUHIM ASOSI

**Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va turizm sohasidagi islohotlar.** 2016-yilda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish jarayoning *4-bosqichi* boshlandi. O‘zbekiston Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta‘minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, tadbirkorlikni yanada jadal rivojlantirishga e‘tibor kuchaytirildi. 2018-yil tasdiqlangan “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili – davlat dasturi”da tadbirkorlik sub‘yektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga ikki yil muddatga moratoriy (to‘xtab turish) e‘lon qilindi.

Tadbirkorlik sub‘yektlarining huquqlarini himoya qilish tizimi takomillashtirilib, O‘zbekiston Prezidentining **2017-yil 5-maydagi** tegishli farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi *Tadbirkorlik sub‘yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili instituti (biznes-ombudsman)* ta‘sis etildi. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil mustaqil hamda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslariga tobe bo‘lmaydi, o‘z faoliyatida shaxsan davlat rahbariga hisobdordir. Biznes-ombudsman va uning o‘rinbosarlari davlat rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. Uning vakolati jumlasiga yetarlicha keng vakolatlar doirasi kiritilgan. Zarur hollarda tadbirkorlik sub‘yektlari manfaatlarini ko‘zlab sudlarga davlat boji to‘lamasdan arizalar va da‘volar bilan murojaat qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlikka keng yo‘l ochildi. Tadbirkorlik sub‘yektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirish bekor qilindi, tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibotlari soni, ro‘yxatdan o‘tish uchun ketadigan vaqt qisqartirildi. Yana bir muhim jihat – rejali tekshiruvlar, shuningdek, **42 turdagi** faoliyatga litsenziyalar va ruxsatnomalar berish bekor qilindi.

**2020-yil 8-iyunda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxati belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrda tagishli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni xabar berish tartibida ro‘yxatdan o‘tkazish va faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Hozirgi kunda o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar o‘z faoliyatini davlat soliq qo‘mitasidan ro‘yxatdan o‘tkazish orqali ish stajiga ega bo‘ladilar. Buning uchun o‘zini o‘zi band qiladigan shaxs sifatida soliq idoralari yoki Davlat soliq qo‘mitasi mobil ilovasidan ro‘yxatdan o‘tib, yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 50% ini to‘lash orqali bir yillik ish stajiga ega bo‘lish mumkin. Ushbu summa to‘liqligicha byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va undan kelib chiqqan holda o‘rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi.

**2018-yil 28-mart** kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlikni hamda xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlikni hamda xususiy sektorni yanada rivojlantirish, aholiga ko‘rsatiladigan sport-sog‘lomlashtirish xizmatlari sifatini yaxshilash, jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklik uchun qulay sharoitlar yaratish hisoblanadi. Mazkur qaror asosida Yoshlar siyosati va sport vazirligining jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlari, shu jumladan bo‘sh turgan va faoliyat ko‘rsatmayotgan inshootlari, shuningdek, suzish havzalari bazasida jismoniy tarbiya-sport hamda sog‘lomlashtirish xizmatlarini davlat-xususiy sheriklik asosida ko‘rsatish tartibi joriy etilgan. **2019-yil 4-martda** “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi.

Ta'kidlash joizki, maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirib, tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy, qulay va samarali usuliga aylanib bormoqda. So'nggi yillarda respublikamizning barcha hududlarida faol tashkil etilayotgan bunday iqtisodiy maydonlar import qilinayotgan mahsulotlarni mahalliyashtirish, joylarda eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlashda yirik "drayver"ga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2016-yil oktabrdagi** "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida" va 2017-yildagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari asosida ayni paytda O'zbekistonda **23 ta** erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. Ularda umumiy qiymati 2,6 mlrd. dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilib, 36 mingga yaqin ish o'ri ni yaratildi. Erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun tegishli imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi. Imtiyozlar investitsiya hajmiga bog'liq bo'lib:

- 300 ming AQSH dollaridan 3 mln. AQSH dollarigacha investitsiya kiritilganda – 3 yil muddatga;
- 3 mln. AQSH dollaridan 5 mln. AQSH dollarigacha investitsiya kiritilganda – 5 yil muddatga;
- 5 mln. AQSH dollaridan 10 mln. AQSH dollarigacha investitsiya kiritilganda – 7 yil muddatga;
- 10 mln. AQSH dollari va undan ortiq investitsiya kiritilganda – 10 yil muddatga, keyingi 5 yil mobaynida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi stavkalari amaldagi stavkalardan 50 foiz past miqdorda qo'llanilgan holda beriladi.

Shuningdek, yetakchi tarmoqlarga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarining samarali faoliyati uchun tegishli infratuzilmalar yaratildi. Hozirda **348 ta** kichik sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. Kichik sanoat zonalarida 5 trln. so'mlik 1497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta'minlandi. Bu, mazkur tizimni yo'lga qo'yish borasida yurtimizda zarur tajriba to'planganiga dalolatdir.

O‘zbekiston turizm sohasida katta salohiyatga ega. Taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilib, unga milliy iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida qaraldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2016-yil 2-dekabr**dagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida turizmga turizmning strategik tarmog‘i maqomi berilishi belgilandi. iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, barcha hududlar va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarni kompleks rivojlantirishda yetakchi kuchga aylanish. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti, mahalliy byudjetni tarkibiy o‘zgartirish va barqaror rivojlanishning kuchli vositasiga aylantirish.

Shu bilan birga, o‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini yanada rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirildi. Ulardan asosiylari:

– 2019-yilda 65 ta davlat uchun vizasiz rejim joriy etilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 90 mamlakat uchun vizasiz rejim, 48 mamlakat fuqarolari uchun vizasiz tranzit rejimi joriy etildi. 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston fuqarolari 22 ta xorijiy mamlakatlarga vizasiz kirishi mumkin. Shuningdek, 33 ta davlatda soddalashtirilgan viza tartiblari o‘rnatilgan. O‘zbekiston fuqarolari ushbu davlatlarga oldindan viza olmasdan borishlari mumkin. 2023-yilda Henley & Partners xalqaro konsalting kompaniyasi Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi ma’lumotlariga tayangan holda pasportlarning global reytingida O‘zbekiston 85-o‘rinda qayd etilgan.

– 2019-yilda 75 davlat fuqarolari uchun turistik vizalar berishni soddalashtirish tartibi joriy etilgan. 2018-yil iyul oyidan boshlab elektron vizalar, 16 yoshgacha bo‘lgan xorijiy fuqarolar uchun vizasiz rejim va 54 davlatdan tranzit yo‘lovchilar uchun besh kunlik vizasiz rejim joriy etildi. Bundan tashqari, 2018-yil 15-martdan boshlab amal qilish muddati 30 kun bo‘lgan ikkilik va ko‘p martalik elektron kirish vizalari joriy etildi.

– 2018-yil 15-iyuldan boshlab [www.emehmon.uz](http://www.emehmon.uz) tizimi orqali xorijiy fuqarolar va shaxslarni ro‘yxatga olishning uchta masofaviy usuli ishga tushirildi.

O‘zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish orqali sayyohlik infratuzilmasi rivojlantirildi. Xalqaro sayyohlar soni 2016-yildagi 2 mln.dan 2019 yilda 6,7 mln.gacha ko‘paydi. BMT huzuridagi Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2019-yilda eng yaxshi rivojlanayotgan sayyohlik yo‘nalishiga ega mamlakatlar beshligiga kirdi.

2016-2021-yillarda mahalliy sayyohlarning soni 24 mln.ga yetgan bo‘lsa, xorijliklarning soni qariyb 20 mln. kishini tashkil etdi. Ta‘kidlash lozimki, koronavirus pandemiyasi fonida joriy etilgan cheklovlar va ularning natijasida yuzaga kelgan global inqiroz oqibatlari tufayli 2020-yilda O‘zbekistonga 1,5 mln., 2021 yilda esa, 1,7 mln. chet ellik sayyohlar tashrif buyurdi. Vaholanki, 2019-yilda O‘zbekistonga qariyb 7 mln. nafar sayyoh kelgan edi.

O‘zbekistonning fiskal sohadagi siyosati tubdan o‘zgardi, xususan byudjetning shaffofligi va ochiqligi ta‘minlandi, soliqqa tortishni soddalashtirish va takomillashtirish bo‘yicha soliq islohotlari amalga oshirildi, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonning tashqi savdo faoliyatida 2017–2021-yillarda tashqi savdoni liberallashtirish va respublika eksport salohiyatidan samarali foydalanish natijasida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, eksport qilinadigan barcha tovarlar va xizmatlar uchun bojxona to‘lovlari bekor qilindi, litsenziyalash va eksport tizimi soddalashtirildi. Tovarlarining 60 foizdan ortiq turlari uchun bojxona to‘lovlarining “nol” darajasi belgilandi. Bojxona to‘lovi stavkasi 6,45 foizgacha pasaytirildi.

Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish, jahon bozorida talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar eksportining nomenklaturasini oshirish uchun sharoit yaratildi. Masalan, eksportni rag‘batlantirish maqsadida mahsulotlar uchun oldindan to‘lov tartibi bartaraf etildi va kafillik majburiyatisiz tashqi bozorga mahsulot yetkazib berish tizimi yaratildi. Eskirgan litsenziyalash tartib-taomillari bekor qilindi, eksportchilar uchun soliq imtiyozlari kengaytirildi. Eksport shartnomalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitorlik qarzlari hisoblashning yagona muddati 120 kungacha uzaytirildi.

Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, iqtisodiy sohalarni yanada rivojlantirish va

amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar samarasi 2017–2019-yillar davomida iqtisodiyotning barqaror, muvozanatlashtirilgan holda rivojlanishini ta'minladi. Jumladan, mamlakatdagi iqtisodiy o'sish 2017-yilda 4,4 foizga, 2018-yilda 5,4 foizga, 2019-yilda esa 5,7 foizga barqaror o'sishi ta'minlandi.

**2020-yilda** boshlangan global pandemiya sababli vujudga kelgan inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan (jami qiymati 2,1 mlrd. doll.dan ortiq) iqtisodiy choralar ko'rildi. Natijada, 2020-yilning dastlabki III chorak yakunlari bo'yicha iqtisodiyot mo'tadil darajada o'sishda (0,4%) davom etib, IV chorakdan iqtisodiyotning aksariyat tarmoqlarida faollik qayd etildi va yil yakuniga ko'ra iqtisodiy o'sish 101,9 foizni tashkil etdi. Qayd etish joizki, O'zbekiston dunyodagi global pandemiya paytida Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida 2020-yilda iqtisodiyoti o'sishi qayd etilgan sanoqli davlatlardan biri bo'ldi.

2021-yilda mamlakatda iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib, olib borilgan iqtisodiy islohotlar natijasida yil yakuniga ko'ra, YAIM o'sish sur'ati 107,4 foizni tashkil etdi. Jahon bankining 2022-yil yanvar oyidagi prognozlariga muvofiq, 2022–2023-yillarda O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi yuqori iqtisodiy o'sishi kutilayotgan yetakchi davlat sifatida qayd etildi.

**Transport va valyuta tizimidagi muhim o'zgarishlar.** 2017–2021-yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida sanoatning yetakchi tarmoqlari (to'qimachilik, elektrotexnika, avtomobil sanoati, qurilish materiallari sanoati, kimyo va neft-kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, energetika kabi tarmoqlar)ni rivojlantirish strategiyalari qabul qilindi. Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni izchil amalga oshirish, iqtisodiy sohalarni yanada rivojlantirish va amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar samarasi 2017–2019-yillar davomida iqtisodiyotning barqaror, muvozanatlashtirilgan holda rivojlanishini ta'minladi. Jumladan, mamlakatdagi iqtisodiy o'sish 2017-yilda 4,4 foizga, 2018-yilda 5,4 foizga, 2019-yilda esa 5,7 foizga barqaror o'sishi ta'minlandi.



Jahon iqtisodiyotining muhim infratuzilmaviy tarmoqlaridan biri transport tizimi bo'lib, uni rivojlantirish har bir milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ham ushbu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda va buning natijasida sohada qator ijobiy o'zgarishlar ham kuzatilmoqda.

**2019-yil 1-fevralda** O'zbekistonda Transport vazirligi tashkil etildi va u transport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini oshirish, transport kommunikatsiyalarini strategik rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida davlat boshqaruv organi sifatida belgilandi. Transport vazirligi tashkil etilgandan so'ng, vazirlik tomonidan Transportning barcha turlari va yo'l xo'jaligi rivojlanishi uchun muhim bo'lgan "Transport to'g'risida"gi Qonun hamda "*O'zbekiston Respublikasi transport tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi*" loyihalari ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritildi.

Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2017-2020-yillar davomida **394 ta** yangi mahalliy avtobus yo'nalishlari ochildi. Bugungi kunda, olib borilayotgan islohotlar natijasida aholiga va turistlarga yengillik yaratish maqsadida, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari va Rossiya Federatsiyasiga jami 32 ta muntazam xalqaro avtobus qatnovlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu davr mobaynida jami **70 ta** avtovokzal va avtostansiyalarda qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. **2019-yilda** xalqaro va mahalliy yo'nalishlarda sutkasiga 5 ming nafar yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega "Toshkent avtovokzali"ni jahon talablariga muvofiq rekonstruksiya ishlari to'liq yakunlanib, foydalanishga topshirildi. 2017-2021-yillar davomida tasdiqlangan dasturga muvofiq jami **2 050 ta** yangi avtobuslar xarid qilinib yo'nalishlarga joylashtirildi.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan 2017-2020-yillarda investitsiya dasturlari doirasida **20,75 trln. so'm** o'zlashtirildi. Natijada **16 ta** loyiha ishga tushirildi. Xususan,

“Angren-Pop” temir yo‘l uchastkasining ochilishi munosabati bilan Toshkent-Andijon, Andijon-Moskva, Andijon-Xiva, Andijon-Buxoro, Andijon-Termiz yangi yo‘nalishlarida yo‘lovchi poyezdlarning harakatlanishi yo‘lga qo‘yildi. “Buxoro – Xiva” mahalliy yo‘nalishi hamda “Toshkent – Qozon”, “Toshkent – Moskva”, “Andijon – Ufa” va “Termiz – Moskva” yangi xalqaro yo‘nalishlarda poyezdlarning muntazam qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Qarshi-Kitob temir yul uchastkasi elektrlashtirilishi natijasida esa Toshkent-Kitob yo‘nalishida Afrosiyob yuqori tez yurar poyezdi harakati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, Qo‘qon-Namangan temir yul uchastkasi elektrlashtirildi va qayta ta‘mirlanishi ortidan Qo‘qon-Namangan yo‘nalishida elektropoyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Bekobod va Xovos shahri aholisiga qulaylik yaratish maqsadida esa Toshkent-Bekobod tez yurar elektropoyezdi yo‘lga qo‘yildi.

2019-yilda aviatsiya tizimini isloh qilish doirasida “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK negizida “Uzbekistan Airways” va “Uzbekistan Airports” aksionerlik jamiyatlari tashkil etilib, ularning Ustavlari tasdiqlandi. Respublikamizdagi 11 ta xalqaro aeroport baholanib, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlariga aylantirildi. 2019-yilda soatiga 400 yo‘lovchi o‘tkazish quvvatiga ega Termiz aeroportining yangi terminali foydalanishga topshirildi. 2017-2020-yillarda Uzbekistan Airways tomonidan 3 ta yangi “Boing-787” va 2 ta yangi “A-320 NEO” havo kemalari xarid qilinib, aviakompaniyaning zamonaviy havo kemalari soni 29 taga yetdi. **2022-yil 18-mart** kuni Samarqand xalqaro aeroportining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Majmua soatiga 800 yo‘lovchiga xizmat ko‘rsata oladi va “Ochiq osmon” rejimida ishlaydi.

O‘zbekiston Prezidentining 2016-yil 7-noyabrdagi farmoni bilan Toshkent metropoliteni Yunusobod yo‘nalishining davomi qurilishi boshlandi va **2020-yil 29-avgustda** mazkur metro yo‘nalishida **2 ta** yangi bekat – “Yunusobod” va “Turkiston” bekatlari yo‘lovchilar uchun ochildi. Yo‘nalishning dastlabki oltita bekati 2001 yilda foydalanishga topshirilgan edi, ammo u hududning aholisi nisbatan zichroq joylashgan joylar bilan bog‘liq emas edi. “Yunusobod” va “Turkiston” bekatlarining ochilishi bilan yo‘l 3 kmga uzaytirildi. Yo‘nalishning uzaytirilishi 103,8 million dollarga baholandi. **2020-yil 30-avgustda** qurilishi 2017 yilda

boshlangan Toshkent metropoliteni yangi yerusti Qo‘yliq yo‘nalishi (“Do‘stlik-2” bekatidan “Qo‘yliq” bekatigacha) ishga tushirildi. “Do‘stlik-2” bekatidan “Qo‘yliq” bekatigacha bo‘lgan mazkur yo‘nalish uzunligi 11 kilometr bo‘lib, 7 ta bekat barpo etilgan. Birinchi bekatdan oxirgisigacha 19 daqiqada yetib olish mumkin. Bu masofada har biri 4 ta vagondan iborat 4 ta poyezd qatnaydi. Ushbu yo‘nalish kuniga 46 ming yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

**2020-yil 26-dekabr** kuni Toshkent metropolitenining yangi yerusti Sergeli yo‘nalishi ochildi. Beshta bekatni o‘z ichiga olgan 7,1 kilometrlik maydon aholi zich joylashgan Sergeli tumanini markaz va boshqa poytaxt tumanlari bilan bog‘lab turibdi. Endi Sergelidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Chilonzor yo‘nalishining “Buyuk ipak yo‘li” bekatiga yetib borish mumkin (uning uzunligi 15 km). **2023-yil 5-aprel** kuni Toshkentda yerusti Halqa metro liniyasining beshta yangi bekati ochildi. Shunday qilib, liniya Quruvchilar massivigacha qariyb 8 kilometrga uzaytirildi. O‘zbekiston hukumatining 2023-yil 9-avgustdagi qarori bilan Toshkent metropolitenidagi yerusti uchastkalarining **19 ta** bekatlari nomlari tasdiqlandi.

Poytaxt metropoliteni liniyalarining umumiy uzunligi **70 km** dan oshdi. Bekatlar soni 50 taga yetdi. Metroda yuruvchi kunlik yo‘lovchilar soni 600 minggacha oshdi. Shuningdek, “Qo‘yliq” bekatida yerusti halqa metrosining keyingi bosqichlar qurilishi bo‘yicha loyihaning umumiy qiymati 422 million dollardan ziyod bo‘lib, beshta bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Ikkinchi bosqichda Qo‘yliq bozori bilan Toshkent yerosti metrosining “Olmazor” bekati bog‘lanadi. Uchinchi bo‘lib “Beruniy”, undan keyin “Bodomzor” bekatigacha bo‘lgan qism quriladi. So‘nggi bosqichda esa halqa metro liniyasi yana “Do‘stlik” bekatiga ulanadi. Bu yo‘llarning jami uzunligi qariyb 55 kilometr, bekatlar 35 ta bo‘ladi.

2017-yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlarining rolini oshirishga qaratilgan eng muhim iqtisodiy islohotlardan biri, bu milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan

bog‘liq amaliy qadamlar bo‘ldi. Shu bilan birga, to‘lov tizimlari rivojlantirildi, naqd pul muammosi hal etildi, uzluksiz ishlovchi avtomatlashtirilgan bankomatlar xizmati yo‘lga qo‘yildi.

Markaziy bank tomonidan taqdim etilgan statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, hozirda mamlakat bo‘yicha bankomatlar va axborot kiosklarining umumiy soni 11 572 tani tashkil qilmoqda. Shuningdek, 2019–2021-illarda aholiga xizmat qiladigan valyuta ayirboshlash shoxobchalarining umumiy soni 1 724 tadan 2 664 taga, shu jumladan, “24/7” rejimida ishlovchi avtomatlashtirilgan valyuta ayirboshlash shoxobchalari soni 722 tadan 1 306 tagacha yetkazildi hamda milliy valyutani chet el valyutasiga qulay ayirboshlash imkoniyati yaratildi. *2017-yil 22-avgustdan* boshlab O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qiymati 50000 so‘m bo‘lgan, *2019-yil 25-fevraldan* boshlab qiymati 100 000 so‘m bo‘lgan, *2022-yil 15-iyuldan* boshlab esa nominal qiymati 200 ming so‘m bo‘lgan banknot ko‘rinishidagi yangi pul belgilarini muomalaga chiqardi.

**2017-yil 2-sentyabrda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinishi qilinishi bilan yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda mablag‘larini o‘z xohishiga ko‘ra erkin tasarruf etish huquqlari ta‘minlandi, milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilashda faqatgina bozor mexanizmlariga asoslanish yo‘lga qo‘yildi. Farmonga ko‘ra, o‘sha yilning 5-sentyabridan boshlab mamlakatimizda faqat bozor mexanizmlari asosida faoliyat yurituvchi valyuta bozorini shakllantirish jarayoni boshlandi. Natijada yuridik va jismoniy shaxslar tijorat banklarida chet el valyutasini cheklovlarsiz sotib olish va sotish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Iqtisodiyotda liberallashtirish boshlanganidan beri (ya‘ni, faqat dastlabki 3 oyda) xorijiy valyutani oldi-sotdi operatsiyalari hajmi 1,5 barobar oshib, qariyb 1,3 milliard dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari davlat 1,1 milliard dollarga oshgan. O‘z navbatida, valyuta bozori faoliyatini erkinlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosati mexanizmlarini yangi sharoitlardan

kelib chiqqan holda takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 13-sentyabrdagi** "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, pul-kredit siyosatining makroiqtisodiy barqarorlik va milliy valyutaning mustahkamligini ta'minlashdagi rolini kuchaytirish bo'yicha bir qator ishlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimizda ichki narxlar barqarorligini samarali ta'minlash maqsadida o'rta muddatli istiqbolda rivojlangan xorijiy mamlakatlar markaziy banklari tomonidan keng qo'llaniladigan inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. **2019-yil avgust** oyida mamlakatimizda valyuta bozorini liberallashtirish yakunlandi va shu paytdan boshlab valyutani naqd shaklda istalgan vayuta ayirboshlash shoxobchalarida xarid qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

**2018-yilning fevral** oyi oxirida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan "Obod qishloq" dasturi bo'yicha ishlar boshlangandi. Namuna sifatida avval Jizzax viloyatidagi "Manas" qishlog'i, keyinroq Samarqand viloyatidagi "Jom" qishlog'i obod qilindi. 2018-yilning 29-martida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Obod qishloq" dasturi to'g'risida"gi farmoni imzolanadi. Shu kuni Prezidentning "Obod qishloq" dasturini 2018-yilda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham imzolanib, dastur ijrosini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tuziladi.

**Qishloq xo'jaligi va soliq tizimidagi islohotlar.** Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Shuningdek, bu soha aholining salmoqli qismining bandligini ta'minlab kelmoqda. So'nggi yillarda fermerlik harakatini rivojlantirish natijasida mamlakatimizda ko'p ming sonli fermer xo'jaliklari shakllanib, ular bugun 10 dan ortiq yo'nalishlarda samarali faoliyat yuritmoqda. Eng quvonarlisi, 12 mingdan ziyod fermer xo'jaligi rahbarlarini 30 yoshgacha bo'lgan

yoshlar tashkil etsa, 6 mingdan ortiq fermer xo‘jaliklarimizga xotin-qizlar rahbarlik qilmoqda. Respublikamizning barcha hududlarida “Tomorqa xizmat”lari tashkil qilindi.

**2017-yil 25-avgustda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi hodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonunni imzoladi. Unga ko‘ra, dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni etib belgilandi.

Yer munosabatlari bo‘yicha katta ishlarni boshlab, 2022-yilning o‘zida 100 ming gektar ekin yerini aholiga dehqonchilik qilish uchun bo‘lib berildi. Buning hisobidan 1,5 million tonna qo‘shimcha oziq-ovqat yetishtirildi. Eng asosiysi, qishloqlarda 400 mingta yangi dehqon xo‘jaligi tashkil qilindi, 1 million 200 mingdan ziyod odamlarning bandligi ta‘minlandi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini istiqbolda barqaror rivojlantirish sohada davlat siyosatini yangicha yondoshuvlar asosida yuritishni talab qilmoqda. Shu bois 2019-yil 23-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan “*O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi*” tasdiqlandi. Mazkur Strategiyaning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Strategiyani amalga oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha har yili 1-dekabrga qadar kelgusi yilga mo‘ljallangan dastur ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Mamlakatimiz soliq tizimidagi islohotlar milliy iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish, qulay ishbilarmonlik

muhitini yaratishga xizmat qilmoqda. Soliqlar aslida davlatning mustahkam byudjetini shakllantirishga qaratilgan tushumlar manbai hisoblanib, hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishga qayta yoʻnaltirilishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois har bir fuqaro oʻzi tasarruf etgan mulki yoki daromadining belgilangan ulushini mamlakat rivoji uchun ajratishi bu iqtisodiy jarayonning barqarorligini taʼminlaydi.

2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida belgilangan, soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, soliq maʼmuriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlar yigʻiluvchanligini oshirish maqsadida **2017-yil 18-iyulda** Oʻzbekiston Prezidentining “*Soliq maʼmuriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarning yigʻiluvchanligini oshirish choratadbirlari toʻgʻrisida*”gi Farmoni qabul qilindi. **2018-yil 1-yanvaridan** boshlab, soliq organlari va halol soliq toʻlovchilar oʻrtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal etishda har tomonlama koʻmaklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini taʼminlaydigan soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringini joriy etish belgilandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining **2018-yil 29-iyundagi** tegishli farmoni bilan *Oʻzbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi* tasdiqlandi. U keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamgʻarmasi, Jahon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib, soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida qabul qilindi. Hujjat loyihasi keng jamoatchilik muhokamasidan oʻtdi.

Konsepsiya doirasida **2019-yil 1-yanvardan** quyidagi oʻzgarishlar joriy etildi:

1. Mehnatga haq toʻlash fondiga soliq yuki kamaytirildi.

2. Aylanmadan (yalpi tushumdan) soliqlarni optimallashtirish bilan umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqlar to'lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish mezonlari takomillashtirildi.

3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq siyosatini takomillashtirishning salbiy ta'sirini kamaytirish choralari amalga oshirildi.

4. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini hisoblash va to'lash tartibi takomillashtirildi.

**2019-yil 30-dekabrda** O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi yangi tahrirda qabul qilindi. 2020-yil 1-yanvardan soliq imtiyozlari faqat Soliq kodeksi bilan taqdim etiladigan bo'ldi. Ayrim soliqlar bo'yicha imtiyozlar faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin.

Soliq o'zgarishlarini amalga oshirishda 3 ta masala – soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortishni soddalashtirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishni hal etish vazifasi belgilangandi. Byudjet tashkilotlaridan boshqa barcha tadbirkorlik sub'yektlari uchun yagona ijtimoiy to'lov **12 foiz** miqdorida belgilandi. Bu ko'rsatkich avval 25 foiz edi. Yangi kodeksda YATTlar (yakka tartibdagi tadbirkorlar) to'laydigan soliq summasi **30 foizgacha** kamaytirilishi belgilandi. Eski kodeksga ko'ra, YATTlar soliq to'lashda deyarli boshqa faoliyati keng darajadagi yuridik shaxslar to'laydigan summani to'lardi.

Eski kodeksda mavjud bo'lgan **13 ta** soliq turlari yangisida **9 tagacha** kamaytirildi. Yagona yer solig'i, davlat boji, bojxona to'lovlari va tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq turlari bekor qilindi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliqlarni to'lashni tanlash huquqi berildi. Xususan, ular soliqni qat'iy belgilangan miqdorlarda to'lash yohud jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya asosida to'lashi mumkin bo'ladi. Soliq nazorati shakllari **13 tadan 2 taga** qisqartirildi. Tekshirishlarni tayinlash tartibiga o'zgartirish kiritilmoqda, tekshirishlar inson omilisiz faqat dastur asosida amalga oshiriladi. Davlat soliq xizmati organlari endilikda jarimalarni profilaktik tadbirlar o'tkazgandan keyingina qo'llaydi.



Yangi kodeksda ortiqcha undirilgan soliq qaytarilishida foizlar qo‘shilishi ham belgilab qo‘yildi. Unga ko‘ra, ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar soliq to‘lovchi undan soliq ortiqcha undirilgani fakti o‘ziga ma‘lum bo‘lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e‘tiboran o‘ttiz kun ichida murojaat etgan taqdirda hisoblanadi. Foizlar undirilgan kundan keyingi kundan e‘tiboran haqiqiy hisobga olingan (qaytarilgan) kunga qadar hisoblanadi. Hisoblangan foizlar tegishli byudjet mablag‘lari hisobidan to‘lanadi. Foiz stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining shu kunlardagi amal qilayotgan qayta moliyalashtirish stavkasiga teng etib qabul qilinadi.

Konsert-tomosha ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo‘li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi **5 foiz** qilib belgilandi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbekistonda biznes-ombudsman lavozimi nima maqsadda tashkil etildi?
2. O‘zini o‘zi band qilish deganda nimani tushunasiz?
3. Jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?
4. Erkin iqtisodiy zonalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni qanday?
5. Ayni paytda O‘zbekiston iqtisodiyotida turizm sohasining o‘rni qanday?
6. Global pandemiya O‘zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta‘sir ko‘rsatdi?
7. O‘zbekistonda Transport vazirligi nima maqsadda tashkil etildi?
8. So‘nggi yillarda qaysi yo‘nalishlarda yo‘lovchi poyezdlarning harakatlanishi yo‘lga qo‘yildi?
9. Toshkent metropolitenida qanday yangi yo‘nalishlar va bekatlar bunyod etildi?
10. O‘zbekistonda valyuta siyosatini liberallashtirish borasida qanday muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?

11. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?

12. Soliq o‘zgarishlarini amalga oshirishda qanday masalalar asosiy vazifa qilib belgilangan?

13. So‘nggi yillarda O‘zbekiston transport tizimida sodir bo‘lgan muhim voqealar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

<b>T/r</b>	<b>Jarayon</b>	<b>Yili</b>	<b>Ahamiyati</b>
------------	----------------	-------------	------------------

## 7-§. ADOLATLI IJTIMOY SIYOSAT YURITISH – DAVLAT SIYOSATINING MUHIM USTUVOR YO‘NALISHI

**Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar.** Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, *O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat*, deb belgilandi. O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e‘lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta‘lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta‘lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak.

So‘nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish va qo‘shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo‘shimcha mexanizmlarni joriy etish yo‘nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan:

– kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish maqsadida *“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”* axborot tizimi joriy qilindi;

– kam ta‘minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni oxirgi uch yilda to‘rt barobarga oshib, 1,9 millionga yetdi;

– kam ta‘minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to‘lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o‘rtacha 1,5 barobarga oshirildi;

– ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari 3,2 baravarga oshirildi, aholini bandligini ta'minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi instrumentlar joriy etildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sharofati bilan o'tgan yillarda tabu qo'yilgan (taqiqlangan) kambag'allik muammosi jamoatchilik muhokamasiga olib chiqildi va ko'p hollarda mamlakatning ijtimoiy siyosati strategiyasini belgilay boshladi. U ilk bor bu mavzuga o'zining *2020-yil 24-yanvarida* Parlamentga murojaatida to'xtalib, aholining kam ta'minlangan qatlami umumiy aholi miqdorining **12-15 foizini** yoki **4-5 mln** kishini tashkil etishini ta'kidladi. Aynan shu paytdan boshlab kambag'allikni qisqartirish muammosini hal qilishga majmuaviy yondashuvlarni ishlab chiqish boshlandi. Dastavval, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi, Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida moliyaviy-iqtisodiy masalalar va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bosh vazir o'rinbosari lavozimi paydo bo'ldi.

Ma'lumki, O'zbekiston aholisi soni tez o'sib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, **2023-yilning 1-oktyabr** holatiga ko'ra, respublikamizning doimiy aholisi soni 36,6 million kishini tashkil etgan. Shundan 18 million 423 ming nafari erkaklar, 18 million 177 ming nafari ayollardir. 2017-yilda O'zbekistonda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi **73** yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich **74,3** yoshga yetdi. Ushbu ko'rsatkich erkaklar uchun 72,1 yosh, ayollar uchun 76,6 yoshga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, o'rtacha umr ko'rish davri shahar joylarda 74,8 yosh, qishloq joylarda 73,6 yoshni tashkil etgan.

O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi mamlakatda kambag'allik chegarasini aniqlashda ko'rsatkich va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha mo'ljallanish rolini o'ynaydigan uy xo'jaliklarini o'rganish natijalari bo'yicha aholining eng kam iste'mol xarajatlari (IHEKM, insonning oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, xizmatlarga kundalik ehtiyojini hisoblashni boshladi. Bundan tashqari, Butunjahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi ekspertlari

bilan hamkorlikda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda kambag‘allikni qisqartirish maqsadlarini aniqlash uchun “2021-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish strategiyasi”ning loyihasi ishlab chiqildi.

Majmuaviy yondashuv aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini manzilli qo‘llab-quvvatlashni ham o‘z ichiga oladi. “Temir”, “Ayollar” va “Yoshlar” daftarlarini yaratish, yagona ijtimoiy reyestr orqali muhtojlarga yordam ko‘rsatish kabi tashabbuslarni alohida ta’kidlash kerak. Ko‘rilgan chora-tadbirlar sharofati bilan ijtimoiy pensiya va nafaqa oluvchi oilalar miqdori ikki barobarga oshdi. “*Temir daftar*” – ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir oilalar hamda alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etish, muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi. Unga ehtiyojmand oilalarning 7 toifasi kiritiladi.

“*Ayollar daftari*” – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi hisoblanadi. Unag 30 yoshdan oshgan 6 toifadagi xotin-qizlar kiritiladi. “*Yoshlar daftari*” – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi. Unga 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan 4 toifadagi yoshlar kiritiladi.

Mamlakatda qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha ham faol ish olib borilmoqda: uning darajasi 2000-yildagi **28 foizdan** 2020-yilda **11 foizgacha** pasaydi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolar kasb-hunarga o‘qitish, ishga joylashish va moliyaviy yordam shaklida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularning tashabbusini moliyalashtirish maqsadida **2018-yildan** boshlab hududlarda 25 ta “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazi va 157 ta “Yoshlar mehnat guzari” kompleksi faoliyat boshladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 25-iyuldagi** tegishli Farmoni bilan *O‘zbekiston Respublikasi aholisini*

*ijtimoiy himoya qilish strategiyasi* tadsdiqlandi. Unda fuqarolar uchun minimal ijtimoiy himoya darajasini kafolatlash tizimini yaratish nazarda tutilgan bo‘lib, strategiya to‘rt yo‘nalishni qamrab oladi. 1) Ijtimoiy xizmatlar – oilalarning individual holatlariga qarab xizmatlar va yordam ko‘rsatiladi; 2) Ijtimoiy sug‘urta tizimi – ayollarga homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini to‘lash tartibi o‘zgaradi; 3) Ijtimoiy yordam – bolalar nafaqasini to‘lash tartibi o‘zgaradi; 4) Bandlikka ko‘maklashish – kasb-hunarga o‘qitish kengaytiriladi, bandlik subsidiyalari ijtimoiy shartnoma orqali to‘lanadi.

Shuningdek, islohotlarni amalga oshirish davomida kam ta‘minlangan fuqarolarni turar-joy bilan ta‘minlash chora-tadbirlari ko‘rilmogda, bu esa ijtimoiy tengsizlik muammolarini hal qilish bilan bog‘liq vaziyatga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Arzon uy-joy dasturi doirasida nafaqat shahar va qishloq joylarida faol yangi uylar qurilmogda, balki O‘zbekiston Prezidentining *“Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”*gi Farmoni asosida imtiyozli ipoteka kreditlari ham taqdim etilmogda. Shuningdek, 2021-yil 1-martidan boshlab O‘zbekistonda kam ta‘minlangan va turar-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan fuqarolar uchun subsidiya berish bo‘yicha xizmatlar ish boshladi.

2023-yil fevral oyi holati bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizdagi ishsizlik darajasi **8,9%**ga, qashshoqlik darajasi esa **14,1%**ga kamaygan.

O‘tgan 5 yil ichida O‘zbekistonning ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari borasidagi siyosati tubdan o‘zgardi. Xususan, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirishda ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1 373 ta qishloq vrachlik punkti qisqartirilib, o‘rniga 793 ta qishloq oilaviy poliklinikasi, 441 ta tez tibbiy yordam shoxobchalari hamda kunduzgi statsionarlar ochildi. 306 ta shahar va tuman kasalxonalarida esa yangi ixtisoslashtirilgan poliklinikalar hamda 1 200 ta tez yordam shoxobchasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Viloyatlardagi ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari 14 ta statsionar va mobil raqamli rentgen, 8 ta MRT (1,5 tesla) bilan jihozlangan

bo'lsa, respublika hamda 6 ta hududiy onkologiya muassasasi 6,5 mln. AQSH dollariga teng 2 turdagi 15 ta gamma terapiya uskunalari bilan ta'minlandi.

2017-2022-yillarda shifoxonalar soni 187 taga yoki 2017-yilga nisbatan 16 foizga ortib, 2022-yilda 1 322 taga yetdi, shifoxonalardagi o'rinlar soni esa 2017-yildagi 135,7 mingdan 170 mingga yoki 25 foizga oshdi. Mazkur davrda sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 2,1 marta o'sib, 1,7 trln so'mdan 6,4 trln so'mga yetdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023-yil 1-iyundagi** tegishli Farmoni bilan Prezident huzuridagi *Ijtimoiy himoya milliy agentligi* tashkil etildi. Agentlikning asosiy vazifalaridan biri og'ir ijtimoiy holatga tushgan va tushish xavfi bo'lgan aholi bilan manzilli ishlashni tashkil qilishdan iborat bo'lib, aholining 31 ta toifasiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish maqsadida, band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi "Monomarkaz" MCHJ tashkil etildi. Bugungi kunda hududlarda **14** ta "Ishga marhamat" monomarkazlari, **30 ta** kasb-hunarga o'qitish markazlari, **11** ta qisqa muddatli kasb-hunarga o'qitish kurslari, **136** ta mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlarining faoliyat yuritayotganligi sohadagi islohotlar samarasidir.

Mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qismini, shu jumladan yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiymuhofaza qilishni yanada kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Har yili 9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan urush qatnashchilari mukofotlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga ko'ra, 2023-yilda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari **18 mln** so'mdan mukofotlandi. **2019-yil 1-yanvardan** boshlab barcha ishlaydigan pensionerlarga pensiya to'liq holda to'lanadigan bo'ldi.

**Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish borasidagi islohotlar.** O'zbekistondagi barcha o'zgarishlarning negizi hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda ta'lim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlar miqdori davlat byudjeti xarajatlar umumiy qiymatining yarmidan ko'prog'ini

tashkil etmoqda. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni ko'tara olmaydi, ammo qanchalik og'ir bo'lmasin, buning uchun zarur mablag' va resuslar izlab topilmoqda. O'zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo'yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta'kidlamoqda. Haqiqatan ham, islohotlarning taqdiri, natijasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechog'li javob bera olishiga bog'liq.

**2020-yil 23-sentyabrda** "Ta'lim to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" o'z kuchini yo'qotgan deb topildi. Mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy tamoyillar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi. Yangi qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- *maktabgacha ta'lim va tarbiya;*
- *umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;*
- *professional ta'lim;*
- *oliy ta'lim;*
- *oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;*
- *kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;*
- *maktabdan tashqari ta'lim.*

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Agar 2017-yilda mamlakatimizda 5211 ta bolalar bog'chalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 19316 taga yetdi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Bolalar 6-7 yoshga to'lgunga qadar maktabgacha ta'lim oilalarda, bolalar bog'chalarida va boshqa ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson butun hayoti davomida olgan ma'lumotlarining 70 foizini 5 yilgacha bo'lgan davrda oladi. Bolalarning sog'lom, yuksak bilimli va malakali, katta salohiyatga ega bo'lib voyaga yetishida bog'cha ta'lim-tarbiyasi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali



pedagog kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev **2017-yil 30-sentyabr** kuni "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmonni imzolagan edi. Ushbu hujjatga muvofiq Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi va yangi vazirlik tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning shahar va tuman bo'limlari faoliyat ko'rsata boshladi.

**2019-yil 8-mayda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida*"gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan Konsepsiyani 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda 2019-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi. 2030-yilgacha 3-7 yoshdagi bolalarning 80,8 foizini (2019-yilda 38,1 foiz) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishining ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Konsepsiya o'rta va uzoq muddatli istiqbol uchun maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadlari, vazifalari, ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab berdi.

**2019-yil 16-dekabrda** O'zbekiston Respublikasining "*Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida*"gi qonuni qabul qilindi. 2017-2022-yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi **27** foizdan **70** foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola maktabgacha ta'lim muassasalariga bormoqda. Taraqqiyot strategiyasida keyingi besh yillikda bu ko'rsatkichni kamida **80 foizga** yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025-o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish belgilangan.

Mamlakatda Prezident maktablari, maxsus iqtidorli bolalar maktablari, ijod maktablari va harbiy litseylar negizida "*Temurbeklar maktabi*" tashkil etildi. 2017-yil umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tub islohotlar yili bo'ldi. Xalq

qabulxonalari va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya’ni 12-yillik majburiy ta’limdan 11-yillik ta’limga qaytildi. Xalq ta’limi tizimidagi islohotlar natijasida 2017–2020-yillarda **328 ta** yangi maktab barpo etildi va umumta’lim maktablari soni 10000 dan ortdi.

**2019-yil fevral** oyida O‘zbekiston Prezidentining “Iqtidorli bolalar uchun Prezident maktablarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. O‘sha yili sentyabr oyida Toshkent shahrida birinchi Prezident maktabi ish boshladi. Dekabr oyi boshida esa Xiva, Namangan va Nukusda uchta yangi Prezident maktabi ochildi. Prezident maktablarida darslar Kembrij universiteti mutaxassisleri bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o‘quv rejalari va dasturlari asosida ingliz tilida olib boriladi. Chet elda o‘qituvchilarni tanlash Teachaway va TIC Recruitment tomonidan amalga oshirildi. O‘quv jarayoniga mahalliy o‘qituvchilar ham jalb etilgan. Maktablar uchun darsliklar va qo‘llanmalar Kembrij universiteti nashriyoti, Oksford universiteti nashriyoti, Kollinz va boshqa nashriyotlar tomonidan taqdim etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 9-sentabrdagi** qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida *Prezident, ijodiy va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi* tashkil etildi.

**2019-yil 29-aprel** kuni “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Yo‘l xaritalari har yil uchun alohida qabul qilinadi. Inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o‘quvchining raqobatbardoshlik *даражасини* belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish xalq ta’limi tizimining strategik maqsadi etib belgilandi. O‘zbekistonning 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha

jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ko'zda tutilgan.

2022-yildan boshlab metodologik, institutsional, infratuzilmaviy xarakterdagi bir necha yo'nalishlarini o'z ichiga oladigan maktab ta'limi tizimini isloh qilishning yangi bosqichiga start berildi. Birinchidan, bu yangi metodikalar asosida o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularni mamlakat mintaqalari hamda har bir tumandagi maktablarning 20 foiziga tatbiq etish dasturidir. Moliyalash hajmi 100 mln dollar qilib belgilangan. Shuningdek, o'qituvchilarning jamiyatdagi maqomini oshirish va ularning daromadlarini ko'tarish yuzasidan chora-tadbirlar ham ko'riladi. Islohotlar maktab direktorlariga daxl qiladi – yangi o'quv yilidan boshlab ularni sertifikatlash tizimi kiritiladi, shu asosda bu lavozimga nomzodlar saralanadi.

Ikkinchidan, to'lib ketgan maktablar, shuningdek, maktablarni ta'minlash va ularni zamonaviy kompyuter asbob-uskunalari va yuqori tezlikdagi Internet bilan jihozlash muammolari hal qilinadi. Uchinchidan, zamonaviy davr talablarini inobatga olgan holda 193 ta ta'lim muassasalari negizida tabiiy va aniq fanlar yo'nalishi bo'lgan maktablarni tashkil etish rejalashtirilgan. To'rtinchidan, maktablarda ma'naviy muhitni tubdan yaxshilashning yangi konsepsiyasi ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Prezidentining **2022-yil 11-maydagi** tegishli farmoni bilan *2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur* tasdiqlandi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda uning huzuridagi ta'lim va ilmiy tashkilotlar Xalq ta'limi vazirligi tasarrufiga o'tkazildi. 2024-yil 1-yanvarga qadar pedagog kadrlarning umumta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishi sertifikatsiyadan o'tkazildi.

**2022-yil** boshidan Qoraqalpog'iston va Xorazmda 285 ming nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish yo'lga qo'yildi. 2023-2024-o'quv yilidan boshlab ushbu amaliyot qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etiladi va buning uchun 2,3 trillion so'm ajratiladi.

Bugungi kunda yangi professional ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarning isloh qilinishi oqibatida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qoshimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni Ozbekiston tarixida yangi professional ta'lim tizimini tashkil etishga asos bo'ldi. O'zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda 2020-2021-o'quv yilidan boshlab kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida Milliy malaka tizimini ishlab chiqish, yurtimizda 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan edi. 2020/2021-o'quv yilidan boshlab O'zbekistonda boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimida tegishli ta'lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Yosh avlodning oliy ta'lim olishga o'sib borayotgan istagi fonida oliy ta'lim tizimi jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. 2017-yilda 10 yildan ortiq tanaffusdan so'ng davlat va jamiyatning malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini inobatga olib, Prezidentimiz tashabbusi bilan masofaviy ta'lim tizimi tiklandi. **2017-yil 16-noyabrda** O'zbekiston Prezidentining "*Respublika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga kirish test sinovlari o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida*"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatga ko'ra, *2018-2019-o'quv yilidan* boshlab madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, musiqa, san'atshunoslik, sport va jismoniy tarbiya kabi alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha test sinovlari o'tkazilmaydigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan **2018-yil 1-sentyabrdan** boshlab, xorijiy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda talabalarni o'qitish va ikki tomonlama tan olinadigan diplom berish amaliyoti joriy etildi. Oliy ta'lim muassasalarining jamiyat oldidagi hisobdorligi va ta'lim sifatini ta'minlashdagi mas'uliyatini oshirish, professor-o'qituvchilar bilan talabalar

oʻrtasidagi byurokratik unsurlarni bartaraf etish masalalariga bagʻishlangan xalqaro tajriba oʻrganilmoqda.

Oʻzbekiston Prezidentining **2019-yil may** oyidagi qaroriga asosan, 2020/2021 oʻquv yilidan boshlab abituriyentlar OTMga kirish uchun 5 ta fandan imtihon topshiradigan boʻldi (ijodiy imtihon topshiradiganlar uchun 3 ta fan). Savollar majmuasining birinchi boʻlimiga barcha test topshiruvchilar uchun majburiy 3 ta fan: ona tili (oʻzbek, rus yoki qoraqalpoq tili), matematika va Oʻzbekiston tarixi fanlari kiritiladi. Ikkinchi boʻlimdagi savollar esa tanlangan bakalavriat taʼlim yoʻnalishiga mos ikkita fandan iborat boʻladi. Matematika, ona tili va Oʻzbekiston tarixi fanlaridan kirish imtihonlarida majburiy test olinishining asosiy maqsadlaridan biri – bitiruvchilarning dunyoqarashini kengaytirishdir.

**2019/2020-oʻquv yilidan** boshlab davlat oliy oʻquv yurtlariga oʻqishga kiruvchi abituriyentlar ikki shaklda: Davlat xizmatlari markazlari orqali yoki my.gov.uz portali orqali hujjat topshirishlari mumkin boʻlgan oliy oʻquv yurtlariga kirishning yangi qoidalari joriy etildi. Yana bir yangilik shundan iboratki, endilikda abituriyentga oʻzi oʻqishni hohlagan uchta (keyinchalik beshta) yoʻnalish yoki oliy oʻquv yurtini tanlashga ruxsat beriladi, biroq u oʻqishning bir shakliga amal qilishi shart.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 8-oktyabrdagi** qarori bilan “*Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi*” tasdiqlandi. Hujjatga koʻra, oliy taʼlim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, hududlarda davlat va nodavlat oliy taʼlim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy taʼlim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sogʻlom raqobat muhitini yaratish, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, taʼlim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mamlakatda oliy taʼlim tizimini isloh qilishning ustuvor yoʻnalishlarini belgilash, kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarish, oliy taʼlimni modernizatsiya qilish, ilgʻor taʼlim texnologiyalari asosida

ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

2017-2022-yillarda respublikadagi oliy o‘quv yurtlari soni 2,5 barobar ko‘payib, **198 taga** yetdi. Oliy ta‘limga qamrab olish darajasi esa 2016-yilgi **9 foizdan** 2022-yilda **38 foizga** yetdi. **41 ta** oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, ularda transformatsiya ofislari ochildi. Nodavlat ta‘lim muassasalari va xorijiy universitetlar filiallari soni ham oshib bormoqda. Masalan, 2018-yilda Toshkent shahrida Koreyaning *Bucheon universiteti*, 2019-yilda Hindistonning *AMITY universiteti* va *Sharda universiteti*, *D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti*, Samarqand shahrida *Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti*, Farg‘ona shahrida *Koreya xalqaro universiteti*, 2020-yilda AQShning *British Management universiteti* va *Webster universiteti* filiallari o‘z ishini boshladi. Masofaviy ta‘lim tizimi joriy etildi. Bunga “IT-ParkUniversity” onlayn-universitetining ochilishini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Ta‘lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan oliy ta‘limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida **25 foizga** oshirilganligi, oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirilganligi, oliygohlar va ta‘lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida **65 ta** akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi bo‘ldi. Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak, ta‘lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida hamda bir qator ilg‘or xorijiy mamlakatlarning xalqaro amaliyotini o‘rgangan holda **2017-yilning 1-iyulidan** boshlab oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi. Birinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog‘i

bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi tayanch doktorantura va ikkinchisi – dissertatsiya himoya qilish va tegishli fan tarmog'i bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini berishni nazarda tutuvchi doktorantura tizimidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev **2016-yil 30-dekabr** kuni ilk bor mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashdi. Uchrashuv natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ilm-fanga e'tibor yanada kuchayishi belgilandi. O'zbekiston Prezidentining **2017-yil 17-fevraldagi** "*Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiytadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi qarori asosida 9 ta ilmiy tadqiqot muassasasi Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi, qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etildi, Fanlar akademiyasining fan yo'nalishlari bo'yicha 3 ta bo'limi va Navoiy bo'limi tashkil etildi, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Prezidentining 2017-yildagi tegishli qarori bilan *O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi* tashkil etildi. Mazkur vazirlikning davlat va jamiyat qurilishiga, iqtisodiyot tarmoqlariga, qishloq xo'jaligiga, ijtimoiy rivojlanishga, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tizimiga innovatsiyalarni joriy etish hamda ilg'or texnologiyalar joriy etilishini tashabbus qilish, muvofiqlashtirish va rag'batlantirish sohasidagi asosiy vazifalari belgilab berildi.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a'ziligiga oxirgi saylovlar 1995-yilda o'tkazilgan edi. O'tgan yillar mobaynida akademiklarning soni ikki martadan ko'proqqa qisqardi va 2017-yilga kelib akademiyaning atigi 63 nafar haqiqiy a'zosi qolgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi tarixiy farmoni bilan 22 yillik uzoq tanaffusdan so'ng Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a'zolari tasdiqlandi.

**2020-yil 24-iyulda** O'zbekiston Prezidenti tomonidan "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun imzolandi. Qonunga

muvofig, innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Qonunga ko‘ra, innovatsiyalarni yaratishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish va tasdiqlash Fanlar akademiyasi, vazirliklar, idoralar va boshqa manfaatdor tashkilotlar takliflari asosida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Qonunga asosan, innovatsiyalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- mahsulotga oid innovatsiyalar;
- jarayonga oid innovatsiyalar;
- marketingga oid innovatsiyalar;
- tashkiliy innovatsiyalar.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, intellektual mulk ulushi Yevropada yalpi ichki mahsulotning 45, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. **2020-yilning 12-oktyabr** kuni O‘zbekiston Prezidenti raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilish ham “Intellektual mulkni himoya qilish – Uchinchi uyg‘onish davri uchun ishonchli poydevor bo‘lib xizmat qiladi” mavzusiga bag‘ishlangan edi. O‘shanda davlatimiz rahbari patent egalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta‘minlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 29-oktyabr**dagi tegishli farmoni bilan *Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi* tasdiqlandi. Konsepsiya hamda uning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, milliy reyting tizimini joriy etish, davlat va ilmiy tashkilotlar o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish hamda uning doirasida loyihalarni amalga oshirish kabi vazifalarni nazarda tutadi. Unga ko‘ra, 2025-yilga qadar ilm-fanga yo‘naltiriladigan jami mablag‘larning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini 6 baravarga, 2030-yilgacha esa 10 baravarga oshiriladi.

2025-yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030-yilgacha esa 30 foizga yetkaziladi. Innovatsion



ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yetakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda 2025-yil 10 ta venchur jamg'armasi tashkil qilinadi.

**Yoshlarga oid davlat siyosatining takomillashtirilishi.** O'zbekiston Markaziy Osiyoning eng ko'p aholisi bo'lgan respublikasi bo'lib, ulkan inson salohiyatiga ega. O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar umumiy aholining 56,7 foizini (bolalar – 29,6 foiz, yoshlar – 27,9 foiz) tashkil etadi. Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoitlar yaratilgan. Ayni paytda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar ma'naviyati qanchalik yuksak bo'lsa, uning yot g'oyalarga qarshi immuniteti ham shunchalik mustahkam bo'ladi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati – barkamol, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk, intellektual boy, nafaqat ko'p qirrali bilimlarga ega, balki mustaqil fikrlaydigan, kelajakka dadil nazar tashlaydigan, o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar uchun mas'uliyatni olishga qodir yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – **2016-yil 14-sentabrdagi** *“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”*gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi

ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Alohida ta’kidlash joiz, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham bu masala alohida o‘z aksini topdi. Jumladan, yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

*birinchidan*, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

*ikkinchidan*, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish;

*uchinchidan*, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan respublikada yoshlarga oid davlat siyosatida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida amaliy qadamlar qo‘yildi. Xususan, 3 ta qonun, davlat rahbarining o‘nlab farmon, qaror va farmoyishlari, hukumat qarorlari qabul qilindi. **2017-yil 30-iyun** kuni “Kamolot” ijtimoiy harakatining Prezidentimiz ishtirokidagi qurultoyida mazkur tuzilmani O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu kun endilikda Yoshlar kuni sifatida keng nishonlanmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining **2017-yil 5-iyuldagi** “*Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida*”gi Farmoniga muvofiq “*Mard o‘g‘lon*” davlat mukofoti ta’sis etildi. U jamiyat hayotining turli sohalarida yuqori natijalarga erishib kelayotgan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, shijoatli va fidoyi yigitlarni

ragʻbatlantirish maqsadida har yili “Yoshlar kuni” arafasida Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining 2 nafardan vakillariga topshirilishi belgilandi.

Shuni tushunish kerakki, bandlik muammosi, oʻz navbatida, yoshlarning buzgʻunchi kuchlar taʼsiriga tushib qolish, noqonuniy migratsiya oqimini kuchaytirish xavfini oshiradi. Davlatimiz rahbarining **2018-yil 27-iyundagi** qaroriga muvofiq, “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturini amalga oshirish yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslari, startaplari, gʻoyalari va loyihalarini ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash, kasb-hunarga oʻqitish orqali ularning bandligini taʼminlash, mehnat bozorida talabga ega boʻlgan mutaxassislar tayyorlash va ularda tadbirkorlik koʻnikmalari shakllantirish, umuman, ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan. Shu maqsadda Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar – kelajagimiz” jamgʻarmasi, uning viloyat va shahar boʻlimlari tashkil etildi. Ushbu jamgʻarma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, gʻoyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik **7 foiz** stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qoʻyildi. Ushbu hujjatga eʼtibor qaratisa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini koʻrish mumkin.

**2019-yil 19-martda** Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, maʼnaviy-maʼrifiy sohalardagi saʼy-harakatlarni tizimli asosda yoʻlga qoʻyish boʻyicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi Oʻzbekiston tarixida yoshlar taʼlim-tarbiyasi boʻyicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

*Birinchi tashabbus* – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va sanʼatning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, isteʼdodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

*Ikkinchi tashabbus* – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yoʻnaltirilgan.

*Uchinchi tashabbus* – aholi va ba yoshlar oʻrtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

*To'rtinchi tashabbus* – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

*Beshinchi tashabbus* – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

**2020-yil 30-iyunda** O'zbekiston Prezidentining "*O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, *O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi* hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi. Agentlikning asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari belgilandi. Agentlik, jumladan, yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo'nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. Shuningdek, yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

Farmon bilan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va uni amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi. Dasturda O'zbekiston yoshlari portalini tashkil etish va unda yoshlar siyosatini baholash milliy indeklari hamda yoshlarga oid qonun hujjatlari bazasini shakllantirish belgilangan, yoshlar loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, turli o'quv, ijodiy va amaliy tadbirlarni tashkil etish nazarda tutilgan. Dasturda nazarda tutilgan tadbirlar Agentlik tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki nodavlat notijorat tashkilotlariga ijtimoiy buyurtma shaklida ajratiladigan davlat grantlari va subsidiyalar taqsimlash orqali moliyalashtiriladi. Bundan tashqari, Agentlik tomonidan maktablarda musiqa, sport va IT-to'garaklar tashkil etiladi, kutubxonalar badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanadi.

Yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etish maqsadida, Oliy Majlis Senatida *Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi* tashkil etildi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida esa *Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya* faoliyati yo'lga qo'yildi. So'nggi besh yilda yurtimizning iste'dodli va fidoyi o'g'il-qizlaridan 795

nafari davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Jumladan, 142 nafar yigit “*Mard o'g'lon*” davlat mukofoti, 61 nafar yosh esa “Kelajak bunyodkori” medali, 592 nafari “O‘zbekiston belgisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

**2021-yildan** e'tiboran yoshlarning “Biznesga birinchi qadam” startap g‘oyalari tanlovi doirasida har bir tuman va shaharda kamida uch nafardan g‘olibga bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobarigacha davlat byudjetidan grantlar berish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Yoshlar bandligini ta’minlash, ularning muammolarini hal etishga qaratilgan yangi tizim – “Yoshlar daftari” va “Yoshlar dasturlari” joriy etildi. Tizimni raqamlashtirish, yoshlarga berilayotgan imtiyozlar shaffofligini ta’minlash, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni uch bosqichda monitoring qilib borish imkonini beruvchi “yoshlardaftari.uz” - yagona elektron platformasi ishga tushirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2021-yil 18-yanvardagi** tegishli qarori bilan *O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi* tasdiqlandi. Konsepsiya BMTning “Yoshlar-2030” strategiyasida belgilangan “Yoshlar manfaatlarini ko‘zlab, ular bilan ishlash” bosh tamoyiliga asoslanadi. Konsepsiya 2023-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan tegishli “yo‘l xaritalari” asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Mamlakat miqyosidagi 12 mingdan ziyod sport inshootiga yoshlarni maksimal darajada qamrab olish choralari ko‘rilib, barcha umumta’lim maktablari sport anjomlari bilan to‘liq jihozlanadi. Shu bilan birga, olis va chekka hududlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun’iy qoplamali maydonlar quriladi. Bolalar va o‘smirlar sport maktablari soni yanada ko‘paytiriladi. Muxtasar aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari,

mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari – “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish yuzasidan dastlab qanday ishlar amalga oshirilgan?
2. “Temir”, “Ayollar”, “Yoshlar” daftarlari nima maqsadda tashkil etilgan edi?
3. Subsidiya deganda nimani tushunasiz?
4. Respublika hududlarida nima maqsadda Monomarkazlar tashkil etildi?
5. O'zbekistonda qanday ta'lim turlari mavjud?
6. Sizningcha, maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga nimalar kiradi?
7. Prezident maktablarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?
8. So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalariga qabul va kirish imtihonlari tartibida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
9. Oliy ta'limga qamrab olish darajasi nimalar hisobiga oshirilmoqda?
10. Oliy o'quv yurtidan keying ta'lim deganda nimani tushunasiz?
11. Harakatlar strategiyasida yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qanday ustuvor vazifalar belgilangan?
12. “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi qanday maqsadda amalga oshirilmoqda?
13. Yangi tahrirda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun asosida respublikamizda ta'limning qanday shakllari mavjudligi haqida ma'lumotlar to'plang.
14. 2017-yildan O'zbekistonda ta'lim sohasidagi muhim o'zgarishlar xronologiyasini tuzing.

*Masalan: 2017-yil 30-sentabr – Maktabgacha ta'lim vazirligi tuzildi.*

## 8-§. YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

**Xotira abadiy, inson qadri muqaddas.** Jamiyat ma’naviyati mamlakat barqarorligi taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Biron-bir mamlakat o‘z ma’naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg‘otmay va mustahkamlamay turib, yuksak taraqqiyot darajasiga ko‘tarila olmaydi. Ma’naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli kuchdir.

Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir.

Yangi O‘zbekiston strategiyasidagi asosiy maqsad har bir fuqaroning millati, tili va dinidan qat’i nazar uning qonuniy manfaatlarini va farovonligini ta’minlanadigan, kelgusida erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish amalga oshiriladigan xalq va insonparvar davlatni yaratish hisoblanadi. Bu maqsad “*Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat*” konsepsiyasi, shuningdek, davlat organlari ishining asosiy tamoyili bo‘ladigan qonun ustuvorligi va adolatli ijtimoiy siyosat tamoyillari asosida jamiyatni ma’naviy rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “*Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari*” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 28-iyuldagi** “*Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida*”gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo‘li bilan ularning negizida Respublika Ma’naviyat va

ma'rifat markazi qayta tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga raislik qilishi belgilandi.

Mamlakatimizda xalqimiz ma'naviyatining yulduzlari bo'lgan buyuk allomalar, tarixiy shaxslar tavallud topgan sanalarini keng nishonlash an'anaga aylangan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning e'tibori bilan el-u yurtga mehnati singgan insonlarning hurmatini joyiga qo'yish an'anasi davom ettirilmoqda. 2017-yilning o'zida bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Namangan viloyatida Is'hoqxon Ibrat, Xorazm viloyatida Komiljon Otaniyozov, Qoraqalpog'istonda Ibroyim Yusupov, Farg'onada Erkin Vohidov, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Andijonda Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish bo'yicha yirik tadbirlar o'tkazildi. Ularning nomi bilan ataladigan markazlar, ijodiy maktablar tashkil etildi. **2019-yil 1-sentyabrdan** „O'zbekiston tarixi“ televizion kanali o'z faoliyatini boshladi.

**2017-yil 4-noyabrda** Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuasi ochildi. Shahardagi tarixiy Xo'ja Nuriddin madrasasida Hamid Olimjon va Zulfiyaning adabiy merosini keng targ'ib qilish maqsadida muzey tashkil etildi. Buning uchun madrasa binosi tubdan ta'mirlanib, tarixiy ko'rinishi tiklandi. Madrasaning gumbaz qismi sirlangan koshin bilan qoplandi. Muzey ekspozitsiyasi mazmuni O'zbekiston Prezidentining *“Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”* asari hamda Hamid Olimjon va Zulfiya xiyoboni, ular nomi bilan ataluvchi maktab-internat tashkil etish bo'yicha bildirgan fikr-mulohazalari asosida shakllantirilgan.

Yurtimiz taraqqiyoti yo'lida fdokorona xizmat qilgan, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi nishonlanishi xalqimizni quvontirdi. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 27-martdagi *“Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida”*gi qarori asosida **2017-yil 6-noyabr** – Sharof Rashidov tug'ilgan kuni Jizzaxda tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi. Jizzax shahridagi tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat



Mirziyoyev ishtirok etib, nutq soʻzladi. Jizzax shahrida uning xotirasiga bagʻishlangan yodgorlik majmuasi barpo etildi va haykali oʻrnatildi.

Oʻzbekistonda rasman **3 ta** xotira kuni mavjud: 1) 1999-yildan boshlab 9 may – “Xotira va qadrlash kuni”; 2) 2001-yildan eʼtiboran 31-avgust – “Qatagʻon qurbonlarini yod yetish kuni”; 3) 2017-yildan boshlab 2-sentyabr – Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasi kuni.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 25-yanvardagi** “*Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish toʻgʻrisida*”gi qaroriga koʻra, Islom Karimov haykallari 2017-yilda Toshkent shahriga, Islom Karimov tugʻilib oʻsgan Samarqand shahriga va Islom Karimov birinchi rahbar boʻlib ishlagan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahriga (2018) oʻrnatildi. Bundan tashqari, 2018-yilda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va rahnamoligida Samarqand shahrida, Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etildi. Islom Karimov koʻp yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohida Islom Karimov nomidagi ilmiy-maʼrif y yodgorlik majmuasi tashkil etildi.

Islom Karimov nomi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent xalqaro aeroporti, Fargʻona shahridagi Sanʼat saroyi va Asakadagi GM Uzbekistan avtomobil zavodiga berildi. Shuningdek, bir qator koʻchalar va yirik obʻyektlarga Islom Karimov nomi berildi. Prezident farmoni bilan **2018-yil 30-yanvarda** Islom Karimov tavalludining 80 yilligi keng nishonlandi, 24-martda esa Samarqandda xalqaro konferensiya oʻtkazildi.

**2021-yilda** mamlakatimizda Oʻzbekiston Prezidentining 2020-yil 19-oktyabrdagi qarori asosida Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi keng keng nishonlandi. Mazkur qaror asosida “Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish toʻgʻrisida”gi qarori loyihasini ishlab chiqish, buyuk mutafakkir ijodiy merosini chuqur oʻrganish va ommalashtirishga ulkan hissa qoʻshganlik uchun taqdirlash maqsadida Alisher Navoiy ordenini taʼsis etish yuzasidan taklif kiritish, Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz oʻqitish konsepsiyasi ishlab chiqilishi hamda

2021/2022-o‘quv yilidan barcha ta‘lim muassasalarida shu asosda o‘qitishning yo‘lga qo‘yilishi, 2021-yilda Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi ijod maktabi tashkil etilishi belgilab qo‘yildi.

So‘nggi yillarda Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, uning o‘lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish hamda xotirasini abadiylashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilgani (2016), mamlakatimiz hamda bir qator xorijiy davlatlarda haykallari o‘rnatilgani, asarlar to‘plami to‘liq nashrdan chiqarilgani, poytaxtimiz markazidagi ulug‘ bobomizning muazzam me‘moriy yodgorligiga mutanosib ravishda **Adiblar xiyoboni** barpo etilgani (2020) madaniy hayotimizdagi ulkan voqealarga aylandi.

**2018-yil martda** Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog‘i hududida o‘zbek va tojik adabiyotining ikki buyuk mutafakkiri – Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali o‘rnatildi. **2021-yil dekabrda** Janubiy Koreyada Seulning nufuzli tumanlarining birida Alisher Navoiy haykali o‘rnatildi. Ochilish marosimida Koreya jamoatchilik vakillari va Oliy Majlis deputatlari ishtirok etishdi. **2022-yil 22-dekabr** kuni O‘zbekiston va Qozog‘iston prezidentlari o‘tkazgan muzokaralar chog‘ida Ostona shahri markazida buyuk o‘zbek shoiri, davlat arbobi Alisher Navoiy haykalini o‘rnatish bo‘yicha qaror qabul qilindi.

**2021-yil 12-noyabr** kuni bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi sammitida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta‘sis etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ta‘sis etilgan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ilk sohibi – turkiy dunyo birligiga qo‘shgan hissasi uchun buyuk adib va jamoat arbobi, ulug‘ gumanist *Chingiz Aytmatov* bo‘ldi. 2022-yil 11-noyabrda Prezidentimiz tomonidan mazkur xalqaro mukofot Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovga topshirildi.

**2020-yil 9-may kuni** O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan fashizm ustidan qozonilgan Buyuk g‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan Toshkentning Olmazor

tumanida noyob yodgorlik bog‘i ochildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirig‘i asosida ishlab chiqilgan loyihaga muvofiq, boqqa kirishda ramziy darvoza shaklida G‘alaba arkasi bunyod etildi. Bog‘da urush davri manzaralari, jumladan, okop va blindajlar, palatkalar, dala oshxonalar va boshqa lavhalar aks etgan kompozitsion majmualar qurildi. O‘sha davrdagi harbiy texnika va qurol-yarog‘lar ko‘rgazmasi ochiq osmon ostidagi muzey vazifasini o‘tamoqda. Shuningdek, muzey, kutubxona, Wi-Fi zona, amfiteatr va kinoteatr tashkil etildi. Bog‘da o‘sha vaqtlardagi temir yo‘l vokzali ham bunyod etilib, o‘zbekistonlik jangchilarni urushga eltgan poyezd vagonlari ham olib kelib, joylashtirilgan.

“G‘alaba bog‘i”ning umumiy maydoni 14,6 gektar. Majmua ramziy 12 ta hududga bo‘lingan bo‘lib, kirish qismi, urushning dahshatli qiyofasi, markaziy xiyobon, harbiy texnikalar maydonchalari, temir yo‘l vokzali, front orti hududi, amfiteatr va ma‘muriy bino, motam va anduh hududi, shodu-xurramlik hududi, g‘alaba hududi, “Shon-sharaf” davlat muzeyi va shukronalik hududidan tashkil topgan. Bog‘ning “*Matonat madhiyasi*” majmuasida butun o‘zbek ayollarining sadoqati ramziga aylangan zangiotalik Zulfiya Zokirova va uning urushda halok bo‘lgan besh o‘g‘lining vafodor rafiqalari aks etgan.

“*Ko‘z yoshi*” majmuasi urushning mudhishligi, millati va dinidan qat‘i nazar, barcha odamlar birligi ramzini ifodalaydi. “Shon-sharaf” davlat muzeyining yuqori qismida Ikkinchi jahon urushida qatnashgan 301 nafar qahramonlarimiz sharafiga ekilgan daraxtlar, shuningdek “*Mangu jasorat*” deb nomlangan majmuada afsonaviy o‘zbek generali Sobir Rahimov va barcha o‘zbekistonlik botir jangchilarning so‘nmas xotirasi ifodalangan. Bu majmua yurtimizdan yetishib chiqqan qo‘rqmas, mard va jasur, matonatli sarkardalar, jangchilardan faxrlanish, jasoratlaridan doimo ibrat olish, dunyodagi eng buyuk xalqlardan biri ekanligimizni his qilish, Vatandoshlarimizda shu zamin, shu yurt farzandi ekanligidan g‘urur, faxr-iftixor tuyg‘ulari uyg‘onishiga xizmat qiladi.

**2022-yil 29-avgust** kuni Urganch shahrida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Balandligi 25 metr bo‘lgan yodgorlikda “yurtni himoya qilishga

intilayotgan” sarkarda ot ustida tasvirlangan. Yodgorlik oldiga epitafiya toshining nusxasi o‘rnatilgan bo‘lib, unga Qur‘on oyati va sarkardaning nasabnomasi o‘yib yozilgan.

**Madaniyat va san‘at sohaslarini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar.** O‘tgan yillar davomida mamlakatimizda madaniyat va san‘atni qo‘llab-quvvatlash, milliy madaniy va ma‘naviy merosni saqlash hamda ko‘paytirish, xalqimizni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, moddiy-texnik bazani yaxshilash va xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Binobarin, davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san‘atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash, madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

**2017-yilda** bo‘lib o‘tgan I Toshkent xalqaro badiiy hunarmandchilik festivalining o‘tkazilishi xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash, O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarning an‘anaviy va zamonaviy san‘at va hunarmandchiligini ommalashtirish, unutilib borayotgan xalq hunarmandchiligini qayta tiklash, amaliy san‘atda qiziqarli eksperimental shakllarni aniqlash. Unda Ozarbayjon, Buyuk Britaniya, Eron, Italiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Latviya, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Germaniya, Yaponiya va O‘zbekistondan kurator va magistrilar ishtirok etdi. Festival doirasida turli loyihalar namoyish etildi.

**2017-yil 8-sentyabr** kuni Toshkent shahri markazida “O‘zbekim” milliy qadriyatlar festivali bo‘lib o‘tdi. Festival doirasida tayyorlangan megapalov Ginnesning rekordlar kitobiga kirdi. Taomning sof og‘irligi 7360 kilogrammni tashkil etdi. Uni tayyorlash uchun 50 nafar oshpaz 6 soat davomida ish olib borgan.

2019-yil iyul oyida Marg‘ilon shahrida “*Buyuk ipak yo‘li*” xalqaro xalq musiqa festivali bo‘lib o‘tdi. Unda dunyoning 20 davlatidan folklor jamoalari ishtirok etdi. Shu yilning sentabr oyida Qo‘qon shahrida Xalqaro hunarmandlar festivali bo‘lib o‘tdi, shuningdek, “*Buyuk ipak yo‘lida Sharq va G‘arb madaniyatlarining o‘zaro ta‘siri: Xanchjou, Marg‘ilon, Valensiya*” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya ham tashkil etildi.

**2018-yil 26-avgustda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “*O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatga ko‘ra, madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirishni ta‘minlash, madaniyat va san‘at muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, aholining ularga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish, mamlakatimizni jahon madaniy makoniga integratsiyalashuvini ta‘minlash, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida bir qator vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2018-yil 28-noyabrdagi** “*O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida*”gi qarori ushbu sohadagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur Konsepsiya besh bobdan iborat bo‘lib, unda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan bir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, tizimdagi muassasalar huquqiy maqomini belgilash, ijodkorlarni ijtimoiy himoyalashning huquqiy bazasini, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san‘at muassasalari moddiy-texnika imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 26-maydagi “*Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi Farmoni, 2021-yil 9-dekabrda “*Madaniyat va san‘atni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida*”gi

hamda 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida ham sohaga oid dolzarb masalalar belgilangan bo‘lib, ularni amalga oshirishda soha mutasaddilariga juda katta vazifalar yuklatilgan.

O‘zbekistonda ma’naviyat maskanlaridan biri hisoblangan muzeylar faoliyatiga ham alohida e’tibor berilmoqda. **2022-yil 1-yanvar** holatiga O‘zbekistondagi muzeylar soni **127 tani** tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich 2020-yilda 105 ta bo‘lgan. 2018-yil sentabr oyida O‘zbekiston Mustaqilligining 27 yilligiga bag‘ishlab O‘zbekiston Ichki ishlar vazirligi tarixi muzeyi tashkil etildi. **2020-yil may** oyida Toshkentda ilk bor Toshkent shahar muzeyi ochildi.

O‘zbekistonning boy noyob madaniy merosini yanada asrab-avaylash va keng tanishtirish maqsadida O‘zbekiston rahbariyati tomonidan qator muhim tashabbuslar ilgari surildi va amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2018-yil 6-apreldagi** qarori bilan o‘sha yili **6-10-sentabr** kunlari Shahrisabz shahrida birinchi marta *Xalqaro Maqom san’ati forumi* o‘tkazildi. Unda jahonning **75** mamlakatidan yakkaxon xonandalar, folklor jamoalari, diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi. Ma’lumki, mamlakatimizda baxshilik san’ati qahramonlik, vatanparvarlik hamda yurt tarixini qo‘shiq va dostonlarda kuylovchi baxshi-shoirlar, oqin va jirovlarning ijodiy tafakkuri bilan avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. **2019-yilning 5-10-aprel** kunlari mamlakatimizning janubdagi gavhari Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san’ati festivali, **2021-yil 17-20-sentyabr** kunlari esa Nukus shahrida II Xalqaro baxshichilik san’ati festivali bo‘lib o‘tdi. Ushbu Xalqaro festivalga dunyoning 22 davlatidan 44 ta ishtirokchi va 60 ga yaqin xorijiy mehmonlar ishtirok etgan.

O‘zbekiston Prezidentining **2017-yil 16-oktabrdagi** qarori asosida Madaniyat vazirligi huzurida *Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi* tashkil etildi. **2018-yil 1-avgustda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur hujjat ijrosini ta’minlash maqsadida 2019-yil 9-iyulda Vazirlar Mahkamasining “Madaniyat va san’at sohasida

davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko‘maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan madaniyat va san‘at sohasida davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi qonunchilik asosida berilishi mumkin bo‘lgan davlat mulki ob‘yektlarining ro‘yxati tasdiqlandi.

O‘zbekiston Prezidentining **2017-yil 7-avgustdagi** “*Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi Qarori asosida yiliga 30 ta to‘liq metrajli badiiy film yaratish uchun mablag‘ ko‘paytirilmoqda. Davlat rahbarining **2018-yil 24-iyuldagi** “Milliy kinoindustriyani rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida “Uch shahar” loyihasi amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston madaniy diplomatiyasi tomonidan mintaqaviy darajada muhim qadamlar qo‘yildi. Respublika ikki tomonlama aloqalarni, jumladan, ta‘lim, fan, texnologiya, innovatsiyalar, turizm, madaniyat, san‘at va sport sohalaridagi aloqalarni chuqurlashtirish asosida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona munosabatlarni har tomonlama mustahkamlash tarafdori. Xullas, 2018-yil Qozog‘istonda O‘zbekiston yili, 2019-yil O‘zbekistonda Qozog‘iston yili katta muvaffaqiyat bilan o‘tkazildi. Madaniyat arboblari mintaqa xalqlari o‘rtasidagi madaniy aloqalar va do‘stlik rishtalarini mustahkamlashda davom etmoqda, bu esa Markaziy Osiyoda o‘zaro anglashuv va ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunga qadar O‘zbekiston milliy videokutubxonasida qator hujjatli, badiiy va animatsion filmlar mavjud. Zamonaviy milliy kino bugungi kunda repertuarining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi, bunda asosiy ulushni o‘zbek filmlari egallaydi. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan xalqaro madaniy tadbirlar orasida Samarqand shahrida har ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali alohida o‘rin tutadi. **2019-yil avgustda** bo‘lib o‘tgan “*Sharq taronalari*” XII xalqaro musiqa festivalida dunyoning 78 davlatidan vakillar ishtirok etib, dunyoning 33 davlatidan 29 musiqiy jamoa bellashdi.

“Ipak yo‘li durdonasi“ XIII Toshkent xalqaro kinofestivali 2021-yilning 28-sentyabr-3-oktyabr kunlari “*Tinchlik, taraqqiyot va ma‘rifat*“ shiori ostida o‘tkazilgan. 2022-yil 14-18-sentyabr kunlari

“Ipak yo‘li durdonasi“ XIV Toshkent xalqaro kinofestivali bo‘lib o‘tdi. XIV Toshkent xalqaro kinofestivali “Tinchlik, ma’rifat va taraqqiyot uchun“ shiori ostida bo‘lib o‘tdi. Unda dunyoning 40 ta davlatidan 500 ga yaqin kinematograflari ishtirok etdi. Kinofestival doirasida 150 ta badiiy, hujjatli va qisqa metrajli filmlar namoyish etildi.

**Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash borasidagi islohotlar.** Ko‘pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni shakllantirish bo‘lishi zarur. Bugun respublika hududida yashovchi **130 dan** ortiq millat va elat vakillari uchun O‘zbekiston Konstitutsiyasi millatlararo totuvlikni mustahkamlash, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlashning kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda tinchlik niyanada mustahkamlash, millatlararo barqarorlikni yuksaltirish maqsadida **2017-yil 19-mayda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “*Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*“gi Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, Baynalmilal madaniyat markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tashkil etildi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar hamda do‘stlik jamiyatlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishida davlat idoralari va jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishda mustahkam tayanch bo‘ladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo va butun dunyoda hamjihatlikka erishish, dinlararo totuvlik, tinchlikni saqlash yo‘lida muhim dasturilamal bo‘layotganini, bu jihatlar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham o‘z aksini topganini e’tirof etdi.



Mamlakatda millatlararo totuvlikni ta'minlash borasida chuqur o'ylangan siyosat natijasida fuqarolar orasida o'zaro hamjihatlik yanada mustahkamlanib, millatlararo va konfessiyalararo muloqotning mexanizmlari takomillashtirildi hamda fuqarolar erkinliklarini kengaytirishning huquqiy va tashkiliy asoslari mustahkamlanmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi huzurida *Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi* tashkil qilindi hamda millatlararo munosabatlar sohasida davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik darajasini yanada oshirish maqsadida *Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi* tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 15-noyabrda** qabul qilingan "*Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida*"gi Farmoni qabul qilindi. **2020-yil 23-sentyabr** kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida mintaqa va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kabi masalalarda **12 ta** tashabbusni ilgari surdi. Ushbu tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda.

O'zbekiston Prezidentining **2020-yil 29-dekabrda** Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini qayd etib, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30-iyul – Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanishi, shu bois mazkur sanani O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb belgilashni taklif etgani yurtimizda istiqomat qiluvchi ko'p millatli fuqarolarimizni benihoya quvontirdi. Endilikda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 10-fevraldagi Qonuniga asosan, mamlakatimizda **30-iyul – Xalqlar do'stligi** kuni etib belgilangan.

O'zbekistonda millatlararo totuvlik va hamjihatlik sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratilib, 2021-yil yakuniga kelib, do'stlik jamiyatlari soni **38 ta**, milliy madaniy markazlar soni esa

**150 ta**ga yetdi. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida **138 ta** milliy madaniy markaz, bundan tashqari, **16 ta** konfessiyaga tegishli **2300 ga** yaqin diniy tashkilot faoliyat yuritadi.

Diniy bag'rikenglikni ta'minlash masalalarida mutlaqo yangicha yondashuv natijasida nafaqat milliy siyosat, balki mazkur sohada xalqaro maydonda ilgari surilayotgan tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi. Jumladan, **2018-yilda** Xalqaro diniy erkinlik bo'yicha hisobotdagi "alohida xavotir uyg'otuvchi" davlatlar ro'yxatidan chiqarilgan bo'lsa, muntazam olib borilgan ijobiy o'zgarishlar natijasida O'zbekistonning **2021-yildan** diniy erkinlik sohasidagi "maxsus kuzatuvdagi davlatlar" ro'yxatidan ham chiqarilgani demokratik islohotlarning e'tirofi bo'ldi. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi yondashuvlar konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqildi. Asosiy e'tibor aholi o'rtasida profilaktika va tushuntirish ishlarini faol olib borishga qaratilib, sa'y-harakatlar "jaholatga qarshi ma'rifat" degan g'oyaga asoslanmoqda.

O'zbekiston Prezidentining **2017-yil 27-martdagi** "*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi qaroriga muvofiq Samarqandda ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Uning tarkibida hadisshunoslik oliy maktabi, hadis, kalom va qiroat ilmini o'rganishga mo'ljallangan xonalar, qo'lyozmalar kutubxonasi, muzey tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 23-iyundagi** "*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi qarori asosida Toshkentda Islom madaniyati markazi hamda Prezidentning **2017-yil 15-dekabr**dagi farmoni asosida *O'zbekiston Islom akademiyasi* tashkil etildi.

O'zbekiston Prezidentining **2018-yil 16-apreldagi** "*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi qaroriga muvofiq, Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi

tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 nafardan **17 nafar** a'zoga – O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi. E'tiborli jihati, kengash a'zolariga a'zolari oz sonli diniy tashkilotlarning rahbarlari ham kiritildi.

**2018-yilda** O'zbekiston tarixida ilk bor O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Qur'on kitobxonlarining ko'p bosqichli keng ko'lamli respublika tanlovi o'tkazildi. Unda O'zbekiston musulmonlari idorasi va Toshkent islom universiteti huzuridagi diniy ta'lim muassasalari talabalaridan tashqari masjidlar imom-xatiblari va imom noiblari hamda 18 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan barcha iqtidorli erkak va ayollar ishtirok etdi. Qur'on o'qing. Tanlov maxsus kanallar orqali efirga uzatildi va katta shuhrat qozondi.

**2017-yil 19-sentabrda** BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zga chiqqan Prezident Sh.M. Mirziyoyev Islom dinining chinakam insonparvarlik mazmun-mohiyatini keng dunyo jamoatchiligiga yetkazish muhimligini ta'kidlab, Bosh Assambleyaning "*Ma'rifat va diniy bag'rikenglik*" maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif qildi. Uning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olishini ta'minlash, savodsizlik va jaholatga barham berish, bag'rikenglik va o'zaro hurmatni rivojlantirish, diniy erkinlikni ta'minlash, dindorlarning huquqlarini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikdir.

**2018-yil 12-dekabrda** BMT Bosh Assambleyasi "*Ma'rifat va diniy bag'rikenglik*" rezolyutsiyasi loyihasini qabul qildi va BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Qarorda inson huquqlarini ta'minlash, sayyoramizda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash yo'lida bag'rikenglik muhitini shakllantirishda ta'limning muhim o'rni borligi alohida ta'kidlangan.

**2017-yil 28-dekabrda** O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "*2018-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida*"gi farmonni imzoladi. Farmon sharhida qayd etilishicha, 2018-yildan Qurbon Hayit va Ramazon Hayit bayramlarida uch kunlik dam olish kunlarini belgilash ko'zda tutilmoqda. Bugun respublikamizda **9 ta** islom madrasasi, shu jumladan **2 tasi** – qizlar uchun, bundan tashqari, Islom universiteti

va Islom instituti, imom-xatiblar malakasini oshirish uchun ixtisoslashgan Imom al Buxoriy xalqaro o‘quv markazi, **2100 dan ortiq** masjidalr ishlab turibdi.

**2018-yildan** boshlab O‘zbekiston fuqarolari uchun kichik haj ziyorati (umra) kvotasi yiliga 6 mingdan 10 mingga oshirildi. O‘sha yili oktyabr oyidan boshlab O‘zbekiston fuqarolarining muqaddas ziyoratga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish maqsadida Umra safariga boruvchi ziyoratchilarning sonini belgilash bo‘yicha (kvota) cheklovlar olib tashlandi. Pandemiya davrida haj ziyorati yuzasidan bir qator cheklovlar o‘rnatilgan edi. 2022-yil sentyabr oyida O‘zbekiston fuqarolari uchun yillik haj kvotasini ikki barobar – 24 ming nafargacha, umra kvotasini esa 100 ming nafargacha oshirish yuzasidan o‘zaro kelishuvga erishildi.

**2021-yil 5-iyul** kuni O‘zbekiston Respublikasining “*Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida*”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur qonun vijdon erkinligi me‘yorlarini aniq ko‘rsatib, fuqarolarning xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmasligini ta‘minlaydi. Shuningdek, har qanday dinga zo‘ravonlik bilan kiritishni taqiqlaydi. Demokratik davlatlar qatorida, qonun ustuvorligi tamoyilidan kelib chiqib O‘zbekistonda ham dinning siyosatga aralashishi hamda dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda do‘stlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash, hech shubhasiz, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va ma'naviy sohalarda shiddatli islohotlarni izchil amalga oshirish hamda xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada yuksaltirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi. Bu hayotiy haqiqat amalda o‘z tasdig‘ini topmoqda.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ma'naviyat deganda nimani tushunasiz?
2. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining asosiy vazifasi nimalardan iborat?
3. O‘zbekistonda qanday rasmiy xotira kunlari mavjud?

4. O‘zbekistonning qaysi shaharlarida Islom Karimov haykali o‘rnatilgan?
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘grisida”gi Qarori asosida qanday ishlar amalga oshirildi?
6. Xorijdagi qaysi shaharlarda Alisher Navoiy haykali o‘rnatilgan?
7. Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot qachon ta’ sis etilgan?
8. Toshkent shahrida barpo etilgan “G‘alaba bog‘i” qanday qismlardan iborat?
9. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasida qanday muhim vazifalar belgilangan?
10. O‘zbekistonda madaniy merosga oid qanday xalqaro madaniy tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda?
11. So‘nggi yillarda o‘zbek kino san’atida qanday muhim voqealar sodir bo‘ldi?
12. O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlash borasida qanday me’ yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?
13. BMT BAda “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishning asosiy maqsadi nima edi?
14. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunida qanday muhim o‘zgarishlar kiritilgan?
15. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishida belgilandan asosiy vazifalarni aniqlang.

*Masalan: 71-maqсад – ..., ..., 78-maqсад – ...*

## 9-§. YANGI O‘ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIGA OID DAVLAT SIYOSATI

**Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish tizimidagi islohotlar.** Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki jismoniy tarbiya va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptiradi. Turli kasalliklar, yoshlar o‘rtasida zararli odatlarning oldini oladi. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi.

Bugun O‘zbekistonda sport ta‘lim va tarbiyaning ajralmas qismiga aylangan. O‘zbekiston aholisi yosh bo‘lgan davlat bo‘lib, respublika hududida istiqomat qiluvchilarning qariyb **40 qoizidan** ko‘prog‘ini 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Ularning har tomonlama rivojlanib, ham ma‘nan, ham jismonan kamolotga erishishlari muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasining “*Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida*”gi Qonunining yangi tahriri **2015-yil 4-sentyabrda** qabul qilindi. Mazkur Qonunda O‘zbekiston hukumatining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish huquqiy me‘yoriy asoslari Konstitutsiya va xalqaro huquq normalariga mos ravishda yaratildi. Mazkur Qonun *8 bob va 47 moddadan* iborat.

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport rivojiga e‘tibor, avvalambor sohaga ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalaridan boshlanadi. Mamlakatimizda davlat sport-ta‘lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmog‘da. Sport-ta‘lim muassasalari soni yildan yilga oshmog‘da. Masalan, **2021-yil 1-yanvar** holatiga ko‘ra, respublikamizda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan jami **352 ta** sport-ta‘lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2022-yilning 1-yanvar holatiga ularning soni **367 taga** yetgan. Shundan shahar joylarda - **324 ta**, qishloq joylarda - **43 ta**.

Ayni paytda respublikamizda **254 ta** bolalar sport maktablari, **56 ta** ixtisoslashtirilgan sport maktablari, **15 ta** olimpiya zahiralari kollejlari, **12 ta** oliy sport mahorati maktablari faoliyat koʻrsatmoqda. Oʻz navbatida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanuvchi aholi soni ham oshib bormoqda. Bunda esa mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Toshkent, Namangan, Jizzax, Fargʻona, Buxoro, Xorazm, Andijon, Samarqand, Guliston va boshqa shaharlarda xalqaro standartlarga javob beradigan qator sport majmualari bunyod etildi. **2022-yilning 1-yanvar** holatiga koʻra, respublikamizda jami **6907,8 ming** kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shugʻullanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining **2017-yil 10-avgustdagi** “*Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida*”gi qaroriga muvofiq, Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya institutini Toshkent viloyati, Chirchiq shahriga koʻchirildi. Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida *2017–2018-oʻquv yilidan* boshlab taʼlimning sirtqi boʻlimi tashkil etildi.

Oʻzbekiston Prezidentining **2018-yil 5-martdagi** “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoniga muvofiq, Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport institutiga “universitet” maqomi berilgan edi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-noyabrdagi 924-son qarori asosida Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali va 2020-yil 3-noyabrdagi 4877-son qaroriga muvofiq mazkur universitetning Fargʻona filiali tashkil etildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni ijrosi bilan bogʻliq mamlakat aholisining barcha qatlamlari, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda oʻz irodasi, kuchi va

imkoniyatlariga ega bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mardlik, vatanparvarlik, ona yurtga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, umuman, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilayotganligi quvonarli hol, albatta. Jumladan, **2017-yil 3-iyunda** "*Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi Prezident qarori, **2018-yil 5-martda** "*Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi Prezident farmonining, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining **2019-yil 29-yanvardagi** "*O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholini jismoniy va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida*"gi, **2019-yil 13-fevraldagi** "*2019-2023 yillar davrida O'zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida*"gi qarorlarining qabul qilinishi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi Qarori asosida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish dasturi va dasturning bajarilishini muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Ushbu dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad respublika hududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijadorligini oshirishdan iborat.

*2019-2023 yillar davrida O'zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi* doirasida maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab jismoniy tarbiyaning innovatsion usullari takomillashtirilmoqda. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga talabalarni tanlashda ularning trenerlik kasbida ishlash ishtiyoqiga e'tibor berilmoqda. Jismoniy tarbiya sohasidagi kadrlar Sport Management (sportni boshqarish), Sport Leadership (sportga rahbarlik qilish), Sport Administration (sport



ma'muriyatchiligi) yo'nalishlari bo'yicha tajriba orttiradi. Respublika barcha hududlarida "Sport bayrami" milliy festivali o'tkazilayapdi. Shuningdek, president qarori bilan Konsepsiyani amalga oshirish chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dastur doirasida, "*Jismoniy tarbiya va sport*" ixtisoslashtirilgan nashriyot markazi tashkil etildi.

2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida *O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi* va uning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi. Farmonga ko'ra, quyidagilar jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanayotgan aholining umumiy sonini 30 foizgacha, sport tashkilot va muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning umumiy sonini 20 foizgacha oshirish;

- joylarda yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni tanlab olish (seleksiya)ning samarali va shaffof to'rt bosqichli – tashkilot-tuman (shahar)-hudud-respublika tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

- O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi tizimidagi sport maktablari o'quvchi-sportchilari o'rtasida "Bolalar sport o'yinlari"ni o'tkazish orqali iqtidorli sportchilarni aniqlash va yoshlar terma jamoalariga zaxira yaratish hamda oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Talabalar sport o'yinlari"ni tashkil etish natijasida talabalarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish;

- sport turlari bo'yicha 18 yoshgacha bo'lgan hududiy terma jamoa a'zolarini hududiy bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazlarining o'smirlar bo'limlarida va undan katta yoshdagi hududiy terma jamoa a'zolarini tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida muntazam ravishda chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazib borish mexanizmini joriy etish;

- huquqni muhofaza qilish organlari va Qurolli Kuchlar tizimidagi ta'lim muassasalari, jumladan "Temurbeklar maktabi"

o'quvchi-talabalari uchun "Armiya o'yinlari" dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha fakultativ mashg'ulotlar va to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.

**2020-yil 30-oktabrda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon asosida Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Farmonda ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha oilalar, sinflar, mehnat jamoalari va hududlar o'rtasida sport musobaqalarini muntazam ravishda o'tkazish, har bir tuman (shahar)da turli sport tanlovlarini tashkil etish, barcha davlat organlari va tashkilotlarida rahbar va xodimlarning jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi ta'minlash, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarga ham sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish belgilab berildi.

**2022-yil 28-yanvarda** qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "*2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida*"gi Farmoniga asosan "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat bo'lgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan *Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi* tasdiqlandi. Taraqqiyot strategiyasining **67-maqsadi** jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirishga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, barpo etiladigan har bir "Yashil hudud"da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun "Salomatlik yo'laklari" hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish, milliy olimpiada sport o'yinlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko'rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli trenerlarning amaldagi **54 foizlik** ulushini 2022-yilda **62 foizga**, 2026-yilda **85 foizga** oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Mahallalarda yoshlar oʻrtasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sogʻlom turmush tarzini keng targʻib qilish, ularni ommaviy sportga jalb etishni yangi bosqichga olib chiqish hamda 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi 67-maqsadida belgilangan vazifalarning ijrosini taʼminlash uchun **2022-yil 11-aprelda** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “*Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida*”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida mahallalarda yoshlar oʻrtasida ommaviy sportni yanada rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Qarorga koʻra, 2022-yildan boshlab har yili anʼanaviy tarzda **30-iyun** – Oʻzbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida oʻtkaziladigan “Yoshlar forumi” doirasida sportning 9 ta turi - futbol, minifutbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat, shashka, stol tennis, stritbol, vorkaut turlari boʻyicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini oʻtkazish tizimi joriy etildi. 2022-yil yakuniga qadar **6 million** nafar yoshlarning sport tadbirlari bilan qamrab olinishini taʼminlash belgilab qoʻyildi. Shuningdek, “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi sport musobaqalarini tashkil etish va oʻtkazish boʻyicha ishlar muvofiqlashtiriladi.

**Ommaviy va milliy sport turlarining rivojlanishi.** Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari ancha rivojlandi. Ommaviylik asosida sport mahoratlarini oshirish ancha oʻsdi. Futbol, tennis, oʻzbek kurashi, boks, sharqona yakka kurash sport turlari (karate, dzyu-do, taekvando, ushu, qoʻl toʻpi va h.k.) yoshlar orasida tobora ommalashmoqda. Buning eng asosiy sabablari shundaki, “Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida”gi qonun, qator qarorlarni amalga oshirishda katta sport tadbirlari oʻtkazildi. Ularning natijalari esa respublikada oʻtkazilgan sport musobaqalari, xalqaro turnirlar va sportchilarning Osiyo va jahon birinchiliklarida ishtirok etishi, erishilgan yutuqlar mazmunida namoyon boʻlmoqda. Respublikada futbolni rivojlantirish, tennis, boks va kurash boʻyicha xalqaro turnirlar oʻtkazish haqidagi hukumat qarorlari muhim ahamiyatga egadir.

2017-2023-yillar davomida Oʻzbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishini toʻrtta asosiy yoʻnalishlarda kuzatish

mumkin: ommaviy sport, bolalar sporti, xotin-qizlar sporti, yuqori natijalar sporti.

Ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida aholini ommaviy tarzda qamrab oladigan musobaqalar orqali barcha ijtimoiy qatlamga mansub aholi vakillari sportga jalb qilinmoqda. Har yili yoshlar, ishchi va xizmatchilar, madaniyat, huquq-tartibot, mudofaa xodimlari o'rtasida basketbol va voleybol bo'yicha "Kamolot kubogi", milliy o'yinlar bo'yicha "Alpomish" sport musobaqalari, yoshlarning "Shunqorlar" harbiy sport musobaqalari, ayollarning "To'maris" sport festivali, "Jasorat-iroda-g'alaba" nogironlar sport musobaqalari, o'quvchi va talabalarning "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" uzluksiz sport musobaqalari muntazam o'tkazilmoqda.

Besh tashabbus hamda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida sport ob'yektlari ishga tushirilib, yoshlar sportga faol jalb etilmoqda. Olimpiya o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari g'olibi bo'lgan 204 nafar sportchi tuman va shaharlarga biriktirildi, ayrimlarining sport maktablari ochildi. Aholining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilovchi "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarini o'tkazish tizimi joriy etildi. Sport nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lomlik asosi, balki hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni turli zararli yot g'oya va odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyati va iste'dodlarini to'la ruyobga chiqarish vositasi hamdir. Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda bu borada qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar imzolandi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqaruv tizimida ham bir qator islohotlar o'tkazildi. Jumladan, 2017-2018-yillarda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi, 2018-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, 2021-2022-yillarda Turizm va sport vazirligi, 2022-yilda Sportni rivojlantirish vazirligi ushbu soha faoliyatini boshqargan. **2022-yil 21-dekabrda** qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, bir qancha vazirliklar, jumladan, O'zbekiston

Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi qaytadan tashkil etildi.

O‘zbek kurashi jahonga yuz tutishi bilan yanada baynalmilal xususiyat kasb etdi. 2016-yilga kelib Xalqaro kurash Assotsiatsiyasining jahonning barcha qit’alarida **120 dan ortiq** kurash federatsiyalari tashkil etildi. Milliy sport turimizning xalqaro maydonda keng tan olinishi ham mamlakatimiz xalqaro aloqalarini yanada kengayishiga, uning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. **2017-yilda** o‘zbek kurashining 2018-yili Indoneziyada bo‘lib o‘tgan XVIII Osiyo o‘yinlari dasturiga rasman kiritilganligi ma’lum qilindi. Bu haqda Turkmanistonning Ashxobod shahrida o‘tgan Yopiq inshootlarda va jang san’atlari bo‘yicha V Osiyo o‘yinlari doirasidagi Osiyo Olimpiya kengashi Bosh assambleyasida e’lon qilindi.

**2023-yilning avgust** oyida kurash Kongo Demokratik Respublikasining Brazzavil shahrida o‘tadigan Afrika o‘yinlari tizimidan alohida sport turi sifatida rasman joy oldi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi bosh kotibi va texnik direktori Muhammad Rizo Nosiriy mazkur o‘yinlar bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish maqsadida Kongoga xizmat safari uyushtirdi. Tashrif davomida Kongo Yoshlar va sport, fuqarolik ta’limi vaziri Xuguyes Ngouyelondele bilan uchrashdi. Muloqotlar davomida kurashning Afrika o‘yinlaridagi texnik jihatlariga oid masalalar muhokama qilindi. Kurash musobaqalari uchun zarur bo‘lgan vositalar, texnik talablar va takliflar bildirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”*gi qaroriga ko‘ra, 2022-yildan boshlab yoshlar o‘rtasida ommaviy sport musobaqalari quyidagi bosqichlarda o‘tkazilmoqda:

Birinchi bosqichda – ko‘chalararo mahalla musobaqalari;

Ikkinchi bosqichda – mahallalararo sektor musobaqalari;

Uchinchi bosqichda – sektor musobaqalarida g‘olib bo‘lgan mahalla jamoalari o‘rtasida tuman (shahar) musobaqalari;

To‘rtinchi bosqichda – tuman (shahar) musobaqalari g‘olib mahalla jamoalari o‘rtasida viloyat musobaqalari;

Beshinchi bosqichda – viloyat musobaqalarida g‘olib bo‘lgan mahalla jamoalari o‘rtasida respublika (final) musobaqalari.

Bunda, mazkur ommaviy sport musobaqalari mahallalarda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik, madaniyat va san‘at, intellektual o‘yinlar, axborot texnologiyalari hamda sport turlari bo‘yicha tashkil etilayotgan besh bosqichli “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, **2023-yil 1-martdan** boshlab olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarini o‘tkazish tizimi joriy qilinadi:

birinchi bosqichda – tuman (shahar) musobaqalari;

ikkinchi bosqichda – viloyat musobaqalari;

uchinchi bosqichda – respublika (final) musobaqalari.

Yoshlar siyosati va sport vazirligi olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha sport musobaqalarini o‘tkazish dasturining ishlab chiqilishi, sport musobaqalari o‘tkaziladigan sport obyektlari infratuzilmasining yaxshilanishi va zarur sport inventarlari bilan jihozlanishi, sport musobaqalarining yuqori darajada tashkil etilishi hamda g‘olib va sovrindorlarning munosib rag‘batlantirilishini ta‘minlaydi.

Uch bosqichli sport musobaqasida yoshlar **28 ta** sport turi bo‘yicha bellashadi. Jumladan, futbol, gandbol, voleybol, mini-futbol, basketbol, stritbol, dzyudo, ushu, badminton, tennis, yengil atletika, velosport, suzish, stol tennisi, sport va badiiy gimnastika, boks, og‘ir atletika, shaxmat, armrestling, karate, taekvondo, kurash, turon va belbog‘li kurash, o‘zbek jang san‘ati, erkin va yunon-rum kurashlari turlari bo‘yicha bellashuvlar bo‘lib o‘tadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan musobaqalar davomida g‘oliblarni tayyorlagan maktablarning jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari va sport-ta‘lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmaydi va ularga quyidagi malaka toifalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri beriladi:

tuman (shahar) bosqichi musobaqalarida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun – ikkinchi malaka toifasi;

viloyat bosqichi musobaqalarida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun – birinchi malaka toifasi;

respublika (final) bosqichida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun – oliy malaka toifasi.

**2022-yil 25-mayda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “*Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi qarorni imzolandi. Unga ko‘ra, Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturini 2022–2023-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. **2023-yil 1-martdan** boshlab milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli respublika o‘yinlari tashkil etiladi. Shuningdek, har yili Toshkent shahrida “Uzbekistan Ethno Games” respublika festivali bo‘lib o‘tadi. Xivada esa har ikki yilda bir marotaba Xalqaro etnosport festivali tashkil qilinadi. Har bir hududda ot sporti turlariga tegishli anjomlar do‘koni ochiladi. Shuningdek, 2023-yildan boshlab, har ikki yilda bir marotaba polvonlar va dorbozlar ishtirokida “Polvonlar sulolasi” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi.

**2022-yil 16-noyabrda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kibersport turlarini yanada rivojlantirish va keng ommalashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – respublikada kibersportni xavfsiz rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha ekotizim yaratish, musobaqalar va turnirlarni tizimli ravishda o‘tkazish orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional kibersportga yo‘naltirish, axborot texnologiyalari va IT-industriya uchun salohiyatli kadrlarni tayyorlash va ularni sohaga jalb qilish ishlarini yanada kengaytirishdan iborat.

Ushbu hujjatda kibersport turlari bo‘yicha professional kibersportchi va murabbiylar, malakali hakam va sharhlovchilar, shuningdek, boshqa mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini joriy etish ko‘zda tutilgan. Kibersport turlari bo‘yicha respublika va xalqaro chempionat va turnirlar tashkil etish, xalqaro va mintaqaviy musobaqalarda munosib ishtirok etishni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Mazkur qaror asosida “Kibersport turlarini yanada rivojlantirish va keng ommalashtirish chora-tadbirlari dasturi” tasdiqlandi.

**2022-yil 23-dekabrda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra, 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab quyidagi dasturlar joriy qilinadi:

- maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Gimnastikaga ilk qadam”;
- umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan “Bolalar uchun gimnastika”.

Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallarida gimnastika bo‘yicha amaldagi o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini ikki baravarga oshirish choralarini ko‘rish vazifasi topshirildi. Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi: 1) 2023-2025 yillarda gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”; 2) 2023-2025 yillarda gimnastika sport turlarini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari.

**O‘zbekiston sportchilarining xalqaro sport musobaqalarida erishgan yutuqlari.** Mamlakatimiz sportchilari nufuzli xalqaro sport musobaqalarida ham faol ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritishmoqda. Ma‘lumki, 1998-yili ilk marta O‘zbekiston alpinizm terma jamoasi (9 nafar) Tibet tarafdin Ilyos Tuxvatullin boshchiligida Everestni zabt etishgan. **2021-yil 1-iyunda** o‘zbekistonlik alpinist Sergey Denisenko dunyodagi eng baland tog‘ – Everestning 8848 metrli Jomolungma cho‘qqisiga ko‘tarildi.

**2018-yil 18-avgust – 2-sentyabr** kunlari Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlarida o‘tkazilgan XVIII Osiyo o‘yinlarida o‘zbekistonlik sportchilar 21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta bronza, umumiy hisobda 70 ta oltin medal qo‘lga kiritib, medallar sifati bo‘yicha beshinchi o‘rinni egalladi.

**2018-yil 28-martda** qayta tashkil etilgan O‘zbekiston xokkey federatsiyasi (2013-yil dekabr oyida tashkil etilgan) 2019-yil 26-sentabrdan Xalqaro shaybali xokkey federatsiyasi a‘zosi hisoblanadi. **2023-yil 11–17-mart** kunlari Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida o‘smirlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan xokkey



bo'yicha muusobaqada O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi Osiyo va Okeaniya U-18 chempionati g'olibiga aylandi.

**2021-yil aprel** oyida Polshaning Kelse shahrida boks bo'yicha yoshlar o'rtasida jahon chempionatining qizlar orasidagi final janglarida O'zbekistondan ikki vakil ishtirok etdi. -54 kg vazn toifasida janglarda ishtirok etgan samarqandlik Nigina O'ktamova ukrainalik Kristina Lakichukka qarshi ringga chiqdi va 4:1 hisobida g'alaba qozondi. *Nigina O'ktamova* o'zbek bokschi qizlari orasida jahon chempionligini qo'lga kiritgan ilk sportchiga aylandi. Bungacha O'zbekiston yoshlar terma jamoasi qizlari xech qachon jahon chempionati finaliga qadar yetib kela olishmagandi. Terma jamoamiz a'zolari Polshadan 3 ta oltin, bitta kumush va 6 ta bronza medali bilan ortga qaytishdi.

**2022-yil 5-9 aprel** kunlari Ruminiyaning Tirgu-Muresh shahrida boks bo'yicha Golden Belt seriyasiga kiruvchi "Nikolaye Linka" xalqaro musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi umumjamoaa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Jahonning 13 mamlakatidan sportchilar ishtirok etgan musobaqada o'zbekistonlik bokschilar 6 ta oltin, 4 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Boks bo'yicha O'zbekiston erkaklar milliy jamoasi Iordaniyada o'tkazilgan 2022-yilgi Osiyo chempionatida umumjamoaa hisobida birinchi bo'ldi. Qit'a birinchiligida biz bilgan nomdor bokschilar Hasanboy Do'smatov, Abdumalik Xalakov, Ruslan Abdullayev, Saidjamshid Jafarov va Lazizbek Mullajonovlar oltin medalga ega chiqishdi.

**2023-yil may** oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha kattalar o'rtasidagi Jahon chempionatida O'zbekiston bokschilari umumiy hisobda 5 ta oltin, 2 ta kumush hamda 2 ta bronza medaliga ega chiqib, Jahon chempionatida umumjamoaa hisobida 1-o'rinni egalladi. -51 kg vaznda jahon chempionligini qo'lga kiritgan Hasanboy Do'smatov IBA tomonidan Jahon chempionatining eng yaxshi bokschisi sifatida e'tirof etildi. Musobaqa yakunlariga ko'ra, To'lqin Qilichev murabbiyligidagi O'zbekiston jamoasi JCHning eng yaxshi jamoasi deb topildi. Ma'lumot uchun, 4 ta oltin va 1 ta kumush medalga ega chiqqan Qozog'iston jamoasi umumjamoaa hisobida 2-o'rinni band etgan

bo'lsa, 2 ta oltin va 4 ta bronza medali bilan Rossiya jamoasi 3-o'rin sohibiga aylandi.

**2022-yil avgust** oyida Turkiyaning Konya shahrida o'tkazilgan V Islom birdamligi o'yinlarida 24 ta sport turida 268 ta sportchi bilan qatnashgan O'zbekiston delegatsiyasi 51 ta oltin, 42 ta kumush va 65 ta bronza - jami 158 ta medal bilan umumjamoahisobida 2-o'rinni egalladi.

**2022-yil avgustda** Hindistonning Chennay shahrida bo'lib o'tgan 44-Butunjahon shaxmat Olimpiadasida O'zbekiston birorta ham mag'lubiyatga uchramagan yagona jamoa bo'lib, 188 jamoa ishtirok etgan Olimpiada chempioniga aylangandi. Natijada, ilk marta o'zbekistonlik 4 shaxmatchi FIDE reytingida TOP-100 talikdan joy olgandi. Nodirbek Abdusattorov FIDE reytingida kuchli 30 talikdan joy oldi. Rustam Qosimjonov 72-o'rinda qayd etildi. Nodirbek Yoqubboyev va Javohir Sindorov ham yuqori yuzlikka kirdi va bu reytingdagi o'zbekistonliklar soni tarixda birinchi marta 4 nafarga yetdi.

**2022-yil noyabrda** Quddus shahrida shaxmat bo'yicha milliy jamoalar o'rtasida FIDE jahon chempionatida O'zbekiston shaxmatchilari jahon chempionatida ikkinchi o'rinni egalladi. 2023-yil yanvarda Niderlandiyada o'tkazilgan "Tata Steel Chess-2023" xalqaro turnirining "Masters" toifasida O'zbekiston milliy jamoasi a'zolaridan Nodirbek Abdusattorov 5-turdan buyon peshqadamlikni hech kimga bermay, so'nggi turdagi yagona mag'lubiyati sababli yakunda 2-o'rinni egallagan bo'lsa, "Challengers" tasnifida o'zbekistonlik yana bir shaxmatchi Javohir Sindorov 3-o'rinni egalladi. Niderlandiyadagi xalqaro turnir yakunida *Nodirbek Abdusattorov* va *Javohir Sindorov* yilning eng yaxshi shaxmat mamlakatiga topshiriladigan "Tour D'or" – "Oltin minora" sovrinini qabul qilib olishdi.

**2022-yilda** Kolumbiyadagi yengil atletika bo'yicha yoshlar o'rtasidagi (U20) jahon chempionatida 15 yoshli *Sharifa Davronova* uch hatlab sakrash dasturida barcha raqibalarini ortda qoldirdi va jahon chempioni bo'ldi. U keyin Islom birdamliklari o'yinlari va Osiyo chempionatida oltin medalni qo'lga kiritdi. Kuvaytda o'tgan yengil atletika bo'yicha yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida O'zbekiston terma jamoasi 3-o'rinni egalladi. **2023-**

**yil 11-12-fevralda** Qozog‘istonning Astana shahrida yengil atletika bo‘yicha yopiq inshootlarda o‘tkazilgan Osiyo chempionatida terma jamoamiz 2 ta oltin, 1 tadan kumush hamda bronza medallariga sazovor bo‘ldi.

**2022-yil may** oyida Gretsiyaning Iraklion shahrida og‘ir atletika bo‘yicha yoshlar o‘rtasidagi jahon chempionati bo‘lib o‘tdi. Qizlar o‘rtasida -87 kg vazn toifasida Tursunoy Jabborova dast ko‘tarish va siltab ko‘tarish mashqida jahon chempionligini qo‘lga kiritdi. Shu yili oktabrda Bahraynda og‘ir atletika bo‘yicha Osiyo chempionatida O‘zbekiston sportchilari 2 ta oltin va 4 ta bronza medali bilan umumjamoa hisobida beshinchi o‘rinni egalladi.

**2022-yil avgust** oyida Nur-Sultonda (Qozog‘iston) dzyudo bo‘yicha o‘tkazilgan Osiyo chempionati yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston terma jamoasi vakillari 9 ta – 1 ta oltin, 2 ta kumush va 6 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi va umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinni egalladi.

**2022-yil 6-13-oktyabr** kunlari Toshkent shahridagi Humo Arena majmuasida o‘tkazilgan dzyudo bo‘yicha jahon chempionatida erkaklar o‘rtasida - 90 kg vazn toifasida Davlat Bobonov yurtimiz hisobiga ilk oltin medalni taqdim etdi. -100 kg vazn toifasidagi final yakunidagi hal qiluvchi bellashuvda o‘zbekistonlik Muzaffarbek To‘raboyev kanadalik Kayl Reyyesni mag‘lub etib, O‘zbekiston hisobiga ikkinchi oltin medalni taqdim etdi. U vazari usulini ishlatib, raqibidan ustun keldi. Shu tariqa, jahon chempionatida O‘zbekistonning oltin medallari soni ikkitaga yetdi. Qo‘lga kiritgan oltin medallar evaziga O‘zbekiston ilk bor jahon chempionatining yakkalik bellashuvlarida umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinni egalladi.

**2022-yil 27 iyun** kuni Janubiy Koreyaning Chunchon shahrida taekvondo bo‘yicha XXV Osiyo chempionati yakuniga yetdi. O‘zbekiston taekvondo terma jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etdi va jami 4 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo‘lga kiritdi. Ulug‘bek Rashidov, Jasur Jaysunov, Nikita Rafalovich va Shuhrat Saloyev barcha raqiblarini mag‘lub etib, Osiyo chempioni degan nomga sazovor bo‘lishdi va terma jamoa hisobiga 4 ta oltin medalni olib keldi. Osiyo chempionatidan so‘ng taekvondochilarning yangilangan reytingi e‘lon qilindi. Unda

*Charos Qayumova* taekvondo sport turi bo'yicha ayollar o'rtasidagi jahon reytingida birinchi o'rinni egallagan ilk o'zbekistonlik sportchiga aylandi.

O'sha yili Meksikada bo'lib o'tgan jahon chempionatida o'zbek taekvondosi tarixida ilk bor *Svetlana Osipova* ayollar o'rtasida oltin medalni qo'lga kiritib, jahon chempioni bo'ldi. Bolgariyadagi taekvondo WT bo'yicha kadetlar o'rtasidagi jahon chempionatida Laylo Hasanova "oltin"ga sazovor bo'ldi. Bundan tashqari, u eng yaxshi qiz taekvondochi deb topildi. 2023-yil bahorida Xitoyning Usi shahrida taekvondo WT bo'yicha "Katta dubulg'a" musobaqasida O'zbekiston terma jamoasi 2 ta oltin va 1 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Tokio olimpiadasi chempioni Ulug'bek Rashitov va Jasur Jaysunov turnir g'olibiga aylandi, Svetlana Osipovada esa bronza medalni qo'lga kiritdi.

**2022-yil aprelda** BAAda o'tgan qilichbozlik bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatining ikkinchi kuni sportimiz uchun tarixiy sanaga aylandi. O'zbekistonlik qilichboz *Zuhriddin Qodirov* g'alaba qozonib, O'zbekiston tarixida jahon chempionligini qo'lga kiritgan ilk qilichboz bo'ldi.

**2022-yilda** Oksana Chusovitina Misr poytaxti Qohirada o'tkazilgan sport gimnastikasi bo'yicha jahon kubogida kumush medalni, Qatar poytaxti Dohada o'tgan jahon kubogida esa oltin medalni qo'lga kiritgandi. O'sha yili Toshkent mezbonlik qilgan badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogining ikkinchi bosqichida O'zbekiston **7 ta** medalni qo'lga kiritdi: 4 ta oltin, 2 ta kumush. Bu terma jamoaning jahon chempionati tarixidagi eng yaxshi natijasi hisoblanadi. Taxmina Ikromova ko'pkurash, halqa va bulava mashqlarida oltin, tasmada esa bronza medalini qo'lga kiritdi. **2022-yilning mart** oyida Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan sport gimnastikasi bo'yicha jahon kubogi bosqichida Oksana Chusovitina shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. U tayanib sakrash dasturida kumush medalni qo'lga kiritdi.

**2022-yilda** O'zbekiston milliy terma jamoasi muddatidan ilgari 2023-yilda futbol bo'yicha bo'lib o'tadigan Osiyo kubogiga yo'llanma oldi. O'zbekiston ketma-ket 8-marta unda ishtirok etadi. Toshkentda bo'lib o'tgan U23 Osiyo kubogida o'zbekistonlik futbolchilar kumush medalga ega chiqishdi. O'sha yili Turkiyada

bo‘lib o‘tgan amputant futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionatida O‘zbekiston termasi bronza medalini qo‘lga kiritdi. O‘zbekiston amputantlar terma jamoasi bunga qadar jahon chempionatida uchta oltin (2007, 2010, 2012), bitta kumush (1998) va ikkita bronza (1991, 2002) medalga ega chiqqan. Bundan tashqari, Kuvaytda o‘tkazilgan futzal bo‘yicha o‘tkazilgan Osiyo kubogida O‘zbekiston milliy jamoasi 3-o‘rinni egalladi.

**2018-yil** Xitoyda o‘tkazilgan 23-yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida futbol bo‘yicha o‘tkazilgan Osiyo chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. **2023-yil 18-mart** kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Iroq terma jamoalari o‘rtasidagi U-20 Osiyo kubogi final uchrashuvida futbol bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi chempion bo‘ldi. Uchrashuv “Bunyodkor” stadionida bo‘lib o‘tdi.

**2023-yil aprel** oyida Samarqand shahrida o‘tkazilgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo‘yicha U-18 va U-23, shuningdek, parakanoe bo‘yicha Osiyo chempionatida Qit‘aning 11 davlatidan kelgan sportchilar o‘rtasida O‘zbekiston terma jamoasi 18 yoshgacha va 23 yoshgacha bo‘lgan sportchilar o‘rtasida 26 ta oltin, 12 ta kumush va 10 ta bronza medalini qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egalladi. Paralimpiya terma jamoasi 4 ta oltin, 7 ta kumush va 4 ta bronza medali bilan umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinni qayd etdi.

**2021-yil 23-iyul-8-avgust** kunlari bo‘lib o‘tgan XXXII yozgi Olimpiada o‘yinlarida O‘zbekiston shrafini 67 nafar sportchi himoya qildi. O‘zbekiston sportchilari **17 sport** turi bo‘yicha **71 ta** litsenziyani qo‘lga kiritdi va bu mamlakat uchun rekord ko‘rsatkich bo‘ldi. COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan Xalqaro olimpiya qo‘mitasi o‘yinlarni 2021-yilga ko‘chirishga qaror qildi. 2020-yilning mart oyida XOQ Ijroiya kengashi Olimpiya o‘yinlarida gender tengligi siyosatini davom ettirib, O‘yinlarning ochilish va yopilish marosimlari bayonnomasiga o‘zgartirishlarni tasdiqladi, unga ko‘ra Milliy olimpiya qo‘mitalari bir erkak va bir ayolni bayroqdor deb e‘lon qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston terma jamoasining o‘yinlarning ochilish marosimida bayroqdorlar birinchi marta 1992-yilda Birlashgan terma jamoa tarkibida gimnastikachi Oksana Chusovitina va bokschi Bobousmon

Baturovlar Olimpiada chempioni deb e'lon qilingan. Ammo 23-iyul sanasida o'zgartirish kiritildi va bokschi Bahodir Jalolov va tayekvondochi Nigora Tursunqulova O'zbekiston terma jamoasi bayroqdoriga aylanishdi.

Yaponiyada o'zbekistonliklar jami 5 ta: uchta oltin va ikkita bronza medalini qo'lga kiritib, umumjamo'a hisobida 32-o'rinni egalladi. Tokio Olimpiadasida *Ulug'bek Rashidov* (taekvondo), *Akbar Jo'rayev* (og'ir atletika) va *Bahodir Jalolov* (boks) oltin, *Davlat Bobonov* (dzyudo) hamda *Bekzod Abdurahmonov* (erkin kurash) bronza medaliga ega chiqdi. Ushbu o'yinlar Riodagi g'alabali natijadan keyin ikkinchi eng muvaffaqiyatli o'yinga aylandi. Biroq, hozirgi natija juda munosib: postsovet hududida Rossiyadan keyin ikkinchi, turkiy tilli davlatlar va Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi, Osiyoda esa beshinchi o'rin. 19 yoshli *Ulug'bek Rashidov* O'zbekiston tarixida Olimpiada medalini qo'lga kiritgan eng yosh sportchi bo'ldi. Bundan tashqari Olimpiya o'yinlarida oltin medalga ega chiqqan eng yosh (19 yosh 4 oy-u 2 kunlik) sportchi maqomiga ham endi unga tegishli bo'ldi. Avval bu ikki maqom Rio-2016 Olimpiadasi g'olibi Hasanboy Do'stmatov (23 yosh 1 oy-u 20 kunlik) va Afina-2004 Olimpiadasi bronza medali sohibi Bahodir Sultonovga (19 yosh 7 oy-u 14 kunlik) tegishli edi. Olimpiada sovrindorlari uchun mukofot puli quyidagicha: oltin medal uchun – 200 000 AQSH dollari; kumush medal – 100 000 AQSH dollari; bronza medali sohiblari – 50 000 AQSH dollari etib tasdiqlandi.

Mustaqil terma jamoa sifatidagi chiqishlari davomida O'zbekiston sportchilari jami **37 ta** Olimpiya medalini qo'lga kiritdi (11 oltin, 6 kumush va 20 bronza). Jismoniy tarbiya va professional sport sohasida yuqori cho'qqilarga erishish jiddiy yondoshishni, katta mehnatni va moddiy xarajatlarni talab qiladi. Mana shularning barchasi mavjud bo'lgandagina sportning bir me'yorda doimiy rivojlanishiga erishish mumkin. Ko'pgina mamlakatlarning tajribalariga qaraganda, milliy sport va jismoniy tarbiya taqdirlari haqida davlat tomonidan g'amxo'rlik qilinishi hech shubxasiz juda katta foyda keltirmoqda. Ijtimoiy sohadagi ushbu moddalarni qo'llab-quvvatlashda birinchi navbatda o'smir bolalarni va

jamiyatning yosh muhitini ruhiy-jismoniy sog'lomlashtirish maqsadida barcha qulay sharoitlarni yaratmoqda.

Shuni ta'kidlash muhimki, O'zbekiston mazkur yo'nalish bo'yicha uning yuksak ahamiyatini tushunadigan mamlakatlar qatoridan joy egallagan va uni tark etmay kelmoqda. Mamlakatning hukumat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va sport muassasalari sport va jismoniy tarbiya sohasida moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, ommaviylikka erishish, professional sportni kuchaytirish kabi muhim muammolarni har doim birgalikda yechishda hamjihat faoliyat olib bormoqda.

Shu tariqa xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan turli nufuzli sport musobaqalarida o'zbekistonlik sportchilar faol ishtirok etib, ularda erishilayotgan natijalar esa yildan-yilga oshib bormoqda. Sportchilarimiz xalqaro sport maydonlarida g'alabalarni qo'lga kiritib, davlatimiz bayrog'ining baland ko'tarilishiga, mamalakatimiz nufuzining yanada oshishiga yuksak hissalarini qo'shishda davom etmoqdalar.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qachon qabul qilingan?
2. 2019-2023 yillar davrida O'zbekistonda jismoniy va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida qanday ishlar amalga oshirildi?
3. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tizimini isloh qilishning 2025-yilgacha asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 67-maqsadi nimaga bag'ishlangan?
5. O'zbekistonda sportning qaysi turlari yoshlar orasida tobora ommalashmoqda?
6. O'zbekiston Respublikasi yoshlari kuni hamda dekabr oyida o'tkaziladigan "Yoshlar forumi" doirasida sportning qaysi turlari bo'yicha besh bosqichli ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi joriy etildi?
7. O'zbekistonda xotin-qizlar o'rtasida qanday sport tadbirlari o'tkazib kelinmoqda?

8. O‘zbek kurashi qachondan boshlab Osiyo o‘yinlari dasturiga rasman kiritilgan?
9. 2022-yildan boshlab yoshlar o‘rtasida ommaviy sport musobaqalari qanday bosqichlarda o‘tkazilmoqda?
10. Ayollar o‘rtasida birinchi jahon chempioni bo‘lgan o‘zbekistonlik bokschi kim?
11. 2022-yilda FIDE reytingida kuchli 30 talikdan joy olgan shaxmatchi kim?
12. Taekvondo sport turi bo‘yicha ayollar o‘rtasidagi jahon reytingida birinchi o‘rinni egallagan ilk o‘zbekistonlik sportchi kim?
13. O‘zbekistonluik sportchilarning Olimpiya o‘yinlarida erishgan yutuqlariga oid ma’lumotlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

<b>T/r</b>	<b>Medal</b>	<b>O‘yinlar</b>	<b>Sportchi</b>	<b>Sport turi</b>
------------	--------------	-----------------	-----------------	-------------------



## 10-§. YANGI O‘ZBEKISTON FAOL TASHQI SIYOSATI

**O‘zbekiston faol tashqi siyosatidagi yangi bosqich.** Davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’yekti sifatidagi o‘rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish respublikamiz tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar doirasida jahon hamjamiyati, qo‘shni va xorijiy davlatlar bilan o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda *ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv* tashqi siyosat olib bomoqdi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – *davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.*

O‘zbekiston tashqi siyosatda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va **2012-yil 10-sentyabrda** tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining “*Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi*”da belgilanlan tamoyillar va strategik ustuvor yo‘nalishlarga asoslanadi. Mazkur Konsepsiyada Markaziy Osiyo mintaqasiga alohida e‘tibor qaratilgan va “O‘zbekistonning hayotiy muhim manfaatlari shu mintaqa bilan bog‘liq” ekanligi rasman e‘tirof etilgan. Konsepsiyada O‘zbekistonning tinchliksevar siyosat yuritishi, harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmasligi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qolishi ta’kidlangan.

**2018-yil yanvarda** O‘zbekiston Prezidenti mamlakat tarixida ilk bor O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari bilan ochiq muloqot shaklidagi yig‘ilishni o‘tkazdi. 2018-yil 26-yanvarda O‘zbekiston Nepal bilan, 2019-yil 11-oktyabrda Grenada bilan, 2021-yil 3-fevralda San-Marino Respublikasi bilan diplomatik munosabat o‘rnatdi va rasmiy diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan xorijiy davlatlar soni **136 taga** yetdi. **2022-yil 27-dekabrda** Toshkentda dunyodagi eng boy davlat bo‘lgan Qatar elchixonasi

ochildi va xorijiy davlat elchixonalari soni **46 taga** yetdi. Toshkentda **9 ta** faxriy konsulxona, **11 ta** xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat olib bormoqda. Stokholmdagi (Shvetsiya) diplomatik vakolatxona O‘zbekistonning xorijiy davlatlardagi 36-elchixonasi bo‘ladi. Umuman, dunyoning **54 ta** nuqtasida O‘zbekistonning xorijdagi diplomatik va konsullik vakolatxonalari tashkil etilgan.

**2019-yil 26-aprelda** O‘zbekiston quruqlik va dengiz yo‘llarini rivojlantirish orqali davlatlararo hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan *“Bir makon, bir yo‘l”* loyihasiga qo‘shildi. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston ochiq tashqi siyosatini jadal ilgari surishni boshlashi bilan mamlakat yetakchi davlatlar bilan “Markaziy Osiyo + Rossiya Federatsiyasi”, “Markaziy Osiyo + Xitoy Xalq Respublikasi”, “S5+1” (AQSH), “Markaziy Osiyo+Yaponiya”, “Markaziy Osiyo+Koreya Respublikasi”, “Markaziy Osiyo + Yevropa Ittifoqi” hamkorligi doirasida mintaqaviy muloqotning turli formatlarini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Bunday formatlarning paydo bo‘lishi xalqaro munosabatlar arxitekturasi, siyosiy va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikning global jarayonlari, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik tizimini shakllantirishda Markaziy Osiyoning ahamiyati va roli oshib borayotganligini ko‘rsatadi.

Qolaversa, O‘zbekiston tomonlar o‘rtasidagi muloqotga ko‘maklashib, Afg‘onistondagi tinchlik jarayonini qo‘llab-quvvatlash va ilgari surishda faol ishtirok etmoqda. Shuningdek Afg‘oniston iqtisodiyotini tiklash va ushbu mamlakatni mintaqaviy hamda xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarga jalb qilishga yordam beradigan muhim iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda. Ular qatorida transafg‘on transport yo‘lagi, qiymati 100 mln. AQSH dollari bo‘lgan “Surxon – Puli Xumri” elektr uzatish tarmog‘i, qiymati 75 mln. AQSH dollarini tashkil qiluvchi “Termiz xalqaro savdo markazi” hamda Termiz shahrida tashkil qilingan Afg‘oniston talabalarini o‘qitish ta’lim markazi va afg‘on xalqiga Xalqaro gumanitar yordam yetkazish kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonning turli qit‘alardagi ko‘plab davlatlar va davlat uyushmalari bilan munosabatlari sifat jihatidan

yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, Rossiya, Xitoy, AQSH, Turkiya, Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy–Sharqiy Osiyo va boshqa mintaqalardagi hamkor mamlakatlari bilan munosabatlari deyarli barcha sohalarda sezilarli darajada mustahkamlandi. Zero, O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidganidek, “Biz bundan buyon ham tashqi siyosatimizni olib borishda O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasida belgilangan strategik vazifalar va ustuvor yo‘nalishlarga tayanamiz. Biz o‘zimiz tanlagan, tinchlikparvarlikka asoslangan, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy vositalar bilan hal etishga qaratilgan yo‘lga doimo sodiqmiz”.

**Markaziy Osiyo davlatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik aloqalari.** O‘zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo‘nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do‘stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. 2017-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan munosabatida yangi davr boshlandi. Shu yilning o‘zida Qozog‘iston, Turkmaniston va Qirg‘iziston davlatlariga O‘zbekiston Prezidentining rasmiy tashriflari amalga oshirildi. 2018-yil mart oyida esa Tojikistonda oliy darajadagi uchrashuv amalga oshirildi. Bundan tashqari, **2017-yili** Samarqandda BMT homiyligida “*Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik*” mavzusida anjuman bo‘ldi. Unda **500 nafar** xorijiy ishtirokchilar qatnashdi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo-iqtisodiy sohalardagi munosabatlar izchil rivojlanmoqda. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2016-yilda 2,5 mlrd dollar, 2017-yilda 2,7 mlrd dollar, 2018-yilda 4,0 mlrd dollar, 2019-yilda 5,2 mlrd dollar va pandemiya sharoitiga qaramasdan, 2020-yilda 5,0 mlrd dollarni tashkil qilgan. Dinamik jadvalga e’tibor beradigan bo‘lsak, 2016-yildan 2020-yilgacha tashqi savdo hajmi ikki barvarga oshdi.

2017-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Markaziy Osiyo

davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini o‘tkazish tashabbusi ilgari surilgan edi. **2018-yilning 15-mart** kuni Nur-Sulton shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi sammiti – maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Ikkinchi uchrashuv **2019-yil noyabr** oyida Toshkentda, uchinchi uchrashuv **2021-yil avgust** oyida Turkmanistonning Avaza milliy turistik zonasida bo‘lib o‘tadi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to‘rtinchi sammiti esa **2022-yil 21-iyul** kuni Qirg‘izistonning Cho‘lpon-Ota shahrida bo‘lib o‘tdi. Sammit yakunida XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish yo‘lidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Davlat rahbarlari Cho‘lponota Maslahat uchrashuvining qo‘shma bayonoti, 2022-2024-yillarda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi, “Markaziy Osiyo uchun “Yashil kun tartibi” mintaqaviy dasturi hamda Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘p tomonlama formatlar doirasidagi hamkorligi konsepsiyasini qabul qildilar. **2023-yil 14-15-sentyabr** kunlari Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 5-maslahat uchrashuvi Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston rahbari tashabbusi bilan so‘nggi yillarda mintaqaning barcha davlatlari bilan oliy darajadagi tashriflar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Markaziy Osiy davlat rahbarlari o‘rtasida ochiq va ishonchli siyosiy muloqotning mustahkamlanishi natijasida mintaqadagi qo‘shnilar bilan munosabatlarda 2016-yilgacha mavjud bo‘lgan ko‘plab murakkab muammolarga yechim topildi. 2017–2021-yillar davomida qo‘shni davlatlar bilan faol muzokaralar natijasida O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi delimitatsiya jarayoni keskin jadallashdi – 2021-yilgacha kelib umumiy chegara bo‘yicha **95,5%**, O‘zbekiston–Tojikiston **99%** dan ziyod va O‘zbekiston–Qirg‘iziston davlat chegarasi **80%** dan ziyod delimitatsiyasi amalga oshirildi. Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi aloqalarimiz izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, 2017–2021-yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi yillik o‘rtacha 50 foizdan ko‘proqqa o‘sib, mintaqaviy savdoning umumiy hajmi 5 milliard dollardan oshdi.

**2017-yil iyunda** Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Ostona sammiti munosabati bilan Sh.Mirziyoyev Qozog‘istonda bo‘ldi. **2017-yil sentyabrda** Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keldi. O‘zbekiston va Qozog‘iston prezidentlari uchrashuvi yakunlari bo‘yicha qator hujjatlar imzolandi. Shavkat Mirziyoyev Nursulton Nazarboyevni “*El-yurt hurmati*” ordeni bilan taqdirladi.

**2021-yilning 6-dekabr** kuni Oqorda qarorgohida Qozog‘istonga davlat tashrifi bilan kelgan O‘zbekiston Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tor doiradagi muzokaralar chog‘ida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jomart Toqayev O‘zbekiston-Qozog‘iston sherikligi, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik masalalarini ko‘rib chiqdi, ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani imzoladi. **2022-yil 21-22 dekabr** kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev davlat tashrifi bilan mamlakatda bo‘ldi. Ikki davlat prezidentlari tarixiy hujjatlar – Ittifoqchilik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida shartnoma va O‘zbekiston – Qozog‘iston davlat chegarasini demarkatsiya qilish to‘g‘risida shartnomani imzoladilar. Bundan tashqari, ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari, yirik kompaniyalari darajasida ko‘p qirrali hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan **15 ta** hujjat qabul qilindi.

2017-yil O‘zbekiston va Qirg‘iziston munosabatlarida yangi sahifa ochildi. Shu yil sentabr oyida Qirg‘iziston Prezidenti Almazbek Atambayev taklifga binoan Prezident Shavkat Mirziyoyev Bishkekda bo‘ldi. O‘zbekiston va Qirg‘iziston prezidentlari o‘z ichiga **85 foiz** masofani qamrab olgan chegara to‘g‘risidagi bitimni imzolashdi. Shu munosabat bilan, aholining o‘tibqaytishi uchun ikki davlat o‘rtasidagi 7 yil davomida yopib qo‘yilgan chegara postlar ochildi. **2017-yil dekabrda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg‘iziston Respublikasining yangi saylangan Prezidenti Sooranbay Jeenbekov rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Tashrif davomida iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy sohalardagi hamkorlikka oid qator hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston –

Qirg'iziston – Xitoy temir yo'llari qurilishi loyihasi bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. **2021-yil 11–12-mart** kunlari Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Muzokaralar yakunida ikki mamlakat Prezidentlari qo'shma bayonotni qabul qildi, hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan 20 dan ortiq ikki tomonlama hujjat, shu jumladan, Qirg'iziston hukumati va O'zbekiston hukumati o'rtasida Qirg'iziston–O'zbekiston taraqqiyot jamg'armasi to'g'risidagi bitim imzolandi.

2017-yil O'zbekiston va Tojikiston munosabatlarida ham yangi sahifa ochildi. Shu yil may oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan AQSh va arabmusulmon davlatlari sammitida ishtiroki doirasida Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon bilan ilk bor uchrashdi. Uchrashuv chog'ida ko'plab manfaatli kelishuvlarga erishildi. 2017-yilning aprelida 25 yillik tanaffusdan so'ng Dushanbe va Toshkent o'rtasidagi aviaqatnov yana tiklandi.

**2018-yil 9-10-mart** kunlari Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Tojikistonda bo'lib, Prezident Imomali Rahmon bilan uchrashdi. Oliy darajadagi muzokaralarda ikki tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, moliyaviy, transport-kommunikatsiya, turizm, madaniy-gumanitar va mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish, fuqarolarning o'zaro sayohatlarini soddalashtirish masalalari, mintaqaviy va xalqaro muammolar muhokama qilindi. Muzokaralar yakunlari bo'yicha Prezidentlarning Qo'shma bayonoti qabul qilindi, O'zbekiston-Tojikiston Davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi shartnoma, Fuqarolarning o'zaro sayohatlari to'g'risidagi bitimlar, turli sohalar bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan **25 dan ortiq** hujjatlar imzolandi. Eng muhimi, siyosiy siljish oddiy odamlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi, chunki fuqarolarning safari va insonparvarlik aloqalarini yengillashtiruvchi vizasiz tartib kiritildi.

**2022-yilning 2-iyun** kuni Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldi. Tor doiradagi muzokaralarda O'zbekiston va Tojikiston prezidentlari mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmini oshirish va sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, logistika va tranzit imkoniyatlarini

rivojlantirish, suv-energetika loyihalarini amalga oshirishga tayyor ekanliklarini bildirdilar.

**2017-yil 6-7-mart** kunlari O‘zbekiston davlat rahbari Sh.M. Mirziyoyev ilk xorijiy tashrifini Turkmanistonga amalga oshirdi va u yerda Prezident Gurbanguli Berdimuhamedov bilan uchrashdi. 2017-yilda Sh.M. Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedovning taklifiga binoan Turkmanistonga uch marta (mart, may, sentabr) tashrif buyurdi. Tashriflar davomida bir qator muhim kelishuvlarga erishildi. 2017-yilning mart oyida muzokaralar yakunida Prezidentlar strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitimni imzoladilar. Ikki mamlakat vazirlik va idoralari o‘rtasida iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, kimyo sanoati, temir yo‘l transporti, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik qilish hamda mintaqalararo aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi. Ikki mamlakat vazirlik va idoralari o‘rtasida iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi va kimyo sanoati, temir yo‘l transporti, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni, hududlararo aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev **2022-yil 17-yanvar** kuni amaliy tashrif bilan Toshkentda bo‘lib turgan Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisining o‘rinbosari Serdar Berdimuhamedovni qabul qildi. Mehmon Shavkat Mirziyoyevga Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning “barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanib borayotgan Turkmaniston-O‘zbekiston munosabatlariga yuksak baho berilgan” yozma murojaatini topshirdi. **2022-yil 14-iyul** kuni Turkmanistonning yangi saylangan Prezidenti Serdar Berdimuhamedov davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi. O‘zbekiston Prezidenti so‘nggi yillarda birgalikdagi sa‘y-harakatlar natijasida erishilgan ikki tomonlama hamkorlikning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ijobiy dinamikani qayd etdi.

**O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar hamkorligi. 2017-yil iyunda** BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Samarqandda u Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi. Guterrish Islom Karimov qabrini ziyorat qilib, keyin Orolbo‘yi hududidagi vaziyat bilan tanishdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev **2017-yil 19-**

**sentyabrda** Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq soʻzladi. Unda bir qator masalalar, jumladan BMTning Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish va Bosh Assambleyaning “Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish, Orol dengizi qurishi muammosi, qoʻshni mamlakatlar bilan yaxshi qoʻshnichilik munosabatlarini mustahkamlash masalalari, Afgʻonistonda tinchlikka erishishning maʼrifiy yoʻllari masalalariga alohida toʻxtaldi.

Prezidentning BMT Bosh Assambleyasi sessiyalarida ilgari surilgan tashabbuslar natijasida – Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi, Afgʻoniston boʻyicha Toshkentda xalqaro konferensiya tashkil etildi, BMT Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni taʼminlash boʻyicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi, “Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi hamda BMT shafeligida Orolboʻyi mintaqasida inson xavfsizligini taʼminlash boʻyicha koʻp tomonlama Trast fondi faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Shuningdek, joriy yilda BMT Bosh Assambleyasining Orolboʻyi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb eʼlon qilish boʻyicha maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Bular Oʻzbekiston ilgari surayotgan tashabbuslarning xalqaro miqyosda keng qoʻllab-quvvatlayotganiga yorqin dalildir.

**2020-yil 23-sentyabr** kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqida bir qator muhim taklif va bayonotlarni bildirdi:

- Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari xalqaro kodeksini ishlab chiqish, unda har bir davlatning fuqarolari va xalqaro hamkorlari oldidagi majburiyatlari aks ettirilishi kerak;

- BMT Bosh Assambleyasining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va inson huquqlarini taʼminlashda parlamentlarning rolini oshirish boʻyicha maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish;



- YUNESKO bilan hamkorlikda 2021-yilda Xivada “Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro forumini o‘tkazish;

- BMT huzurida Afg‘oniston bo‘yicha doimiy qo‘mita tashkil etish, “Ushbu sabr-toqatli xalqning fikri va intilishlarini tinglaydigan” AIRning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish;

- BMT Bosh Assambleyasining Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish hamda ushbu hujjat qabul qilingan kuni Xalqaro ekologik tizimlarni muhofaza qilish va tiklash kuni deb e‘lon qilish;

- BMT Bosh Assambleyasining bo‘lajak sessiyasida qashshoqlikka qarshi kurash mavzusini asosiy mavzulardan biri sifatida belgilash, shuningdek, ushbu muammoga bag‘ishlangan global sammit tashkil etish;

- Markaziy Osiyo davlatlarini global iqtisodiy, transport va tranzit yo‘laklariga chuqur integratsiya qilish maqsadida BMT shafeligida Transport-kommunikatsiya o‘zaro aloqasini rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy markazni tashkil etish.

**2020-yil 13-oktyabrda** O‘zbekiston ilk bor BMT Inson huquqlari kengashiga saylangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi delegatlari 2021-yil 1-yanvardan boshlab ushbu organda uch yil muddatga faoliyat yuritadigan BMT Inson huquqlari kengashining **15 nafar** a‘zosini sayladi. Ular orasida Rossiya, O‘zbekiston va Ukraina bor.

**2021-yil 21-sentyabrda** O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasi umumiy munozaralarining birinchi kunida videomurojaat bilan so‘zga chiqdi. Davlat rahbari xalqaro hamjamiyatga mintaq va global kun tartibidagi dolzarb masalalar, BMTning zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi birgalikda chora ko‘rishdagi roli yuzasidan o‘z nuqtai nazarini taqdim etdi hamda qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

**YUNESKO** va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil oktyabr oyida YUNESKO bosh qarorgohiga tarixiy tashrifi chog‘ida

imzolangan O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida 2018-2021 yillarga mo‘ljallangan qo‘shma harakatlar rejasi asosida tartibga solinadi. YUNESKO va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlardagi yana bir muhim bosqich. O‘zbekiston YUNESKO Bosh direktori Odri Azulening **2019-yil 26-28-avgust** kunlari Samarqand va Buxoroga rasmiy tashrifi bo‘ldi. Odri Azule Moddiy va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida ishtirok etdi. Samarqandda “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimi bo‘lib, Samarqand va Buxorodagi YUNESKOning Butunjahon merosi ob‘yektlariga tashrif buyurdi.

**Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT)** submintaqaviy xalqaro tashkilot bo‘lib, uning a‘zolari Yevroosiyo hududining **65 foizini** egallaydi (umumiy maydoni 35 mln km<sup>2</sup> dan ko‘proq). ShHT davlatlarining umumiy aholisi taxminan 3,5 milliard kishini (2022) tashkil etadi. ShHTning rasmiy tillari rus va xitoy tillari bo‘lib, uning ramzi oq bayroq markazida tashkilot gerbi joylashgan. Tashkilotning bosh qarorgohi Pekinda joylashgan. 1996-yilda Shanxayda bo‘lib o‘tgan Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston rahbarlarining sammitida chegara hududlari bo‘yicha harbiy sohada o‘zaro ishonchni mustahkamlash to‘g‘risidagi bitim (1996-yil 26-aprel) imzolanishi natijasida Shanxay Beshligi tashkilot paydo bo‘ldi. 2001-yilda O‘zbekistonning a‘zo bo‘lishi munosabati bilan tashkilot nomi “Shanxay hamkorlik tashkiloti – ShHT” deb yangray boshladi.

Tashkilotning 2016-yilgi Toshkent sammitida *Hindiston* va *Pokistonning* ShHTga a‘zo davlat maqomini olish yo‘lidagi majburiyatlari to‘g‘risidagi memorandumlar imzolandi hamda 2017-yil Ostonadagi sammitda Hindiston va Pokiston tashkilotga a‘zo sifatida qabul qilindi. 2017-yilning iyun oyida tashkilotga a‘zo davlat rahbarlarining Ostonada bo‘lgan sammitida O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutq so‘zlab, unda sammit ishtirokchilari e‘tiborini Afg‘onistondagi vaziyatni yaxshilash, yoshlarni turli yot g‘oyalardan asrash, ularning zamonaviy ta‘lim-tarbiya olishi, komil inson bo‘lib voyaga yetishida davlatlararo hamkorlikka qaratdi.

“Shanxay hamkorlik tashkiloti bilan aloqalarni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qoladi”, –

dedi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil yanvar oyida parlamentga Murojaatnomasida. **2020-yil 10-noyabr** kuni Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitida so‘zga chiqdi. Davlat rahbari o‘z nutqi davomida o‘zaro savdodagi to‘siqlarni bartaraf etish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha tashkilot a‘zolari uchun hamkorlik dasturini yaratish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish, epidemiyalarni keltirib chiqaradigan kasalliklarga qarshi kurashish bo‘yicha tibbiyot muassasalari tarmog‘ini tashkil etish kabi qator tashabbuslarni e‘lon qildi.

**2022-yil 15-16-sentyabr** kunlari Samarqand shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 22-majlisi tadbirlari bo‘lib o‘tdi. ShHTning Samarqand sammiti O‘zbekistonda o‘tkazilgan bu kabi tadbirlarning to‘rtinchisi bo‘ldi. Bundan avvalgilari 2004-, 2010- va 2016-yillarda Toshkentda bo‘lib o‘tgan. Samarqand sammit mezbonligini qabul qilgan 15-shahar bo‘ldi. Sammitda 40 dan ortiq hujjat imzolandi va yakunda Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi hamda tashkilot raisi maqomi O‘zbekistondan ilk marta Hindistonga o‘tdi.

**2023-yil 4-iyul** kuni Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) Eronning assotsiatsiyaga a‘zo davlatlar qatoriga kirganini rasman e‘lon qildi. Tegishli qaror tashkilotning Hindiston raisligidagi 23-sammitida qabul qilindi. Shunday qilib, Eron davlatlararo assotsiatsiyaning to‘qqizinchi a‘zosiga aylandi. Tadbir yakunida ShHTga a‘zo davlatlar rahbarlari quyidagi hujjatlarni imzoladilar: 1) ShHTga a‘zo davlatlar rahbarlari kengashining Nyu-Dehli deklaratsiyasi; 2) 2030-yilga qadar ShHT mintaqasida iqtisodiy rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qaror; 3) Eronni ShHT a‘ziligiga qabul qilish tartibotini yakunlash va unga ShHTga a‘zo davlat maqomini berish to‘g‘risida qaror; 4) Belarusning ShHTga a‘zo davlat maqomini olish uchun majburiyatlari to‘g‘risidagi memorandumni imzolash haqida qaror.

**2019-yil iyun** oyida Yevropa Kengashi prezidenti Donald Tusk Markaziy Osiyo mamlakatlariga safari doirasida O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurib, davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi. Uchrashuvda tomonlar mintaqaviy va ikki

tomonlama hamkorlik, iqlim o'zgarishi, atrof-muhitni muhofaza qilish va chegaralarni boshqarish, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik masalalarini muhokama qildi.

MDH malakatlari bilan hamkorlik ham O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mazkur davlatlar bilan respublikamiz tarixan shakllangan siyosiy, iqtisodiy, transport-kommunikatsion va boshqa aloqalarga ega. Bu borada 2020-yil tariximizda muhim iz qoldirdi. O'sha yilda O'zbekiston MDHga raislik qilishdek mas'uliyatli vazifani ilk bor o'z zimmasiga oldi. Hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlashga bag'ishlangan 70 dan ortiq muhim ko'p tomonlama hujjatlarning qabul qilinishi MDHning ushbu davrdagi samarali faoliyatidan dalolat beradi. Yana bir jihat – O'zbekistonning savdo-sotiq doirasidagi alohida sheriklar bilan bu yilgi savdosi 20 foizdan oshdi. 2023-yilning yanvar oyida O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining **27%**i MDH davlatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2023-yil mart oyida bu ko'rsatkich **32,3%**ni tashkil etgan.

**2020-yil 20-mart** kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi-davlatlarining yoshlar bilan ishlash sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimiga O'zbekistonning qo'shilishi to'g'risida farmonni imzoladi. Bu davrdagi muhim jihatlardan yana biri MDHning 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun iqtisodiy rivojlanish strategiyasining qabul qilinishi bo'ldi. Strategiyani amalga oshirish ikki bosqichga (2021-2025 va 2026-2030-yy.) bo'lingan rejalar asosida amalga oshiriladi. Shu yili **18-dekabr** kuni MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisida davlatimiz rahbari O'zbekistonning MDHdagi raisligi yakunlarini sarhisob qilib, kelajakka o'zaro hamkorlikning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

**2022-yil 14-oktyabr** kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi sammiti Ostona shahrida, **2023-yil 13-oktyabrda** Bishkek shahrida bo'lib o'tdi. 2023-yil 26-dekabrda Sankt-Peterburgda MDH davlatlari rahbarlarining norasmiy sammiti bo'ldi. Uchrashuvda 2023-yil sarhisobi va kelgusi vazifalar ko'rib chiqildi. MDH doirasida munosabatlarni rivojlantirish va mintaqaviy masalalar muhokama qilindi.

**2019-yil 14-sentyabrda** O‘zbekiston Respublikasi Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to‘g‘risidagi Naxichevan bitimini ratifikatsiya qildi. Tashkilot 2009-yil 3-oktyabrda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to‘g‘risidagi Naxichevan Bitimiga muvofiq tashkil etilgan. Tashkilot tarkibi turkiy tilli davlatlarning rahbarlari Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Katta mansabdor shaxslari qo‘mitasi, Oqsoqollari kengashi va Kotibiyatdan tashkil topgan. Kotibiyat Istanbul shahrida (Turkiya Respublikasi) joylashgan. Bu tashkilotning asosiy maqsadi qardosh mamlakatlar o‘rtasida ishonch va aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiyot, transport, energetika, turizm va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirish, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishdir. **2019-yil 15-oktyabr** kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammiti bo‘lib o‘tdi.

**2022-yil 11-noyabrda** Samarqandda Turkiy Kengash o‘rniga tuzilgan Turkiy davlatlar tashkilotining birinchi sammiti bo‘lib o‘tdi. Turkiy davlatlar tashkilotining Samarqand sammiti doirasida 10 dan ortiq hujjat imzolandi. A‘zo davlatlar O‘zbekiston Prezidentining kelayotgan 2023-yilni *Turkiy sivilizatsiya yuksalishi yili* deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi taklifini bir ovozdan qo‘llab-quvvatladi. Tadbirda Qozog‘iston taklifiga ko‘ra, tashkilot navbatdagi sammitini 2023-yilda Qozog‘istonda o‘tkazishga qaror qilindi. Tashkilotga Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekiston a‘zo hisoblanadi. Vengriya va Turkmaniston kuzatuvchi maqomida.

**O‘zbekistonning xorijiy davlar bilan hamkorlik aloqalari.** **2017-yil aprelda** O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan Rossiyada bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrif yakunlari bo‘yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, harbiy-texnikaviy, migratsiya sohalari, shuningdek, mintaqalararo hamkorlik, turizm va sog‘liqni saqlashga oid umumiy qiymati 16 milliard dollar bo‘lgan **55 ta** hujjat imzolandi.

**2018-yilning 18-19-oktyabr** kunlari Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin davlat tashrifi bilan mamlakatimizda

bo‘ldi. O‘zbekiston va Rossiya rahbarlarining muzokaralari natijasida salmoqli hujjatlar to‘plami qabul qilindi. **2021-yil 18-19-noyabr** kunlari O‘zbekiston Prezidentining Rossiyaga tashrifi doirasida 18 ta hujjat, jumladan, hukumatlar o‘rtasida yadroviy xavfsizlik, biologik xavfsizlik va xalqaro axborot xavfsizligi sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar, shuningdek besh yillik iqtisodiy hamkorlik dasturi. **2022-yil iyul** oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashdagi ulkan xizmatlari uchun “*Aleksandr Nevskiy*” ordeni bilan taqdirlangan edi.

**2017-yil 11–13-may** kunlari Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Res-publikasiga davlat tashrif O‘zbekiston – Xitoy munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tardi. Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi “Har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish to‘g‘risida” Qo‘shma bayonotni imzoladilar. Shavkat Mirziyoyev Xitoyga bo‘lgan tashrif davomida umumiy qiymati 23 mlrd. dollar bo‘lgan 105 ta ikki tomonlama hujjatlar imzolandi. Xitoyning “*Bir makon, bir yo‘l*” tashabbusi doirasida ham samarali ikki tomonlama hamkorlik amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev **2019-yilning 24-27-aprel** kunlari Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan “Bir makon, bir yo‘l” ikkinchi xalqaro forumi tadbirlarida ishtirok etish uchun ushbu mamlakatda bo‘ldi.

**2017-yil may** oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni poytaxti Ar-Riyod shahrida bo‘lib o‘tgan AQSh va arab-musulmon davlatlari sammitida ishtirok etdi. Sammit doirasida Shavkat Mirziyoyev va AQSh prezidenti Donald Tramp ilk bor uchrashdi. Donald Tramp davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonini yuqori baholadi. Bugungi kunda O‘zbekiston va AQSH strategik hamkor va sherik mamlakatlardir.

**2017-yil sentyabrda** O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning 72-sessiyayasi munosabati bilan Amerika Qo‘shma Shtatlarida bo‘ldi. 19-sentabr kuni davlatimiz rahbarini BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida Birlashgan

Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish qabul qildi. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida xalqimiz uchun yana bir g'oyat muhim voqea bo'ldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosiga Registon maydonining maketi o'rnatildi. **19-sentyabr** kuni Nyu-Yorkda Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtirok etish uchun kelgan davlat va hukumat rahbarlari sharafiga rasmiy ziyofat berdi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan ishtirok etdi.

O'zbekiston Prezidenti AQShga tashrifi chog'ida u yerda istiqomat qilayotgan bir guruh o'zbekistonliklar bilan uchrashdi. Vatandoshlar ilm-fan, ta'lim, texnologiya, investitsiya va boshqa sohalarni rivojlantirish, O'zbekiston va AQSh muassasalari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bayon etdi. Shavkat Mirziyoyev ularga murojaat qilar ekan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga daxldor bo'lish, zamonaviy bilim va tajribalarini mamlakat rivojiga yo'naltirishga da'vat etdi.

Ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada rivojlantirishda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Prezident Donald Trampning taklifiga binoan **2018-yil 15-17-may** kunlari Amerika Qo'shma Shtatlariga rasmiy tashrifi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Suhbat chog'ida ikki tomonlama munosabatlarning bugungi holati va uni rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi. Muzokaralar yakunlari bo'yicha Davlat rahbarlarining "O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari" qo'shba bayonoti qabul qilindi.

**2019-yilning 26-fevral** kuni AQSh Davlat kotibining Janubiy va Markaziy Osiyo bo'yicha yordamchisining birinchi o'rinbosari Elis Uells boshchiligidagi delegatsiya O'zbekiston-Amerika siyosiy maslahatlashuvlarining yettinchi raundida ishtirok etish uchun Toshkentga keldi. O'zbekiston delegatsiyasiga tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchilik qildi. **2020-yilning 3-fevral** kuni Toshkent shahrida "*Markaziy Osiyo – AQSh*" formatidagi navbatdagi yig'ilish bo'lib o'tdi, unda AQSh Davlat kotibi va

barcha Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlari ishtirok etdi. Uchrashuvda iqtisodiy va energetika sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishga oid dolzarb mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Osiyo-Tinch okeani hududi mamlakatlari, xususan Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan hamkorlik O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklif ga binoan, **2017-yilning noyabrda** Koreya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi. Bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga tarixiy burilish yasovchi davlat tashrif bo‘ldi. Tashrif doirasida O‘zbekiston Prezidenti Koreya Respublikasi Prezidenti va boshqa rasmiy shaxslar, shuningdek, BMTning sobiq Bosh kotibi Pan Gi Mun bilan uchrashdi. Oliy darajadagi muzokaralarda o‘zaro hamkorlikning keng ko‘lamli masalalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi davlatlararo aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan bitimlar imzolandi.

**2019-yil 18-21-aprel** kunlari Janubiy Koreya Prezidenti Moon Jae In rasmiy tashrif bilan Toshkentda bo‘ldi. O‘zbekiston Janubiy Koreyaga oziq-ovqat, kimyo mahsulotlari, mashina va uskunalar, mineral o‘g‘itlar eksport qiladi, transport, aloqa va turizm xizmatlari ko‘rsatadi. Janubiy Koreyadan O‘zbekistonga avtomobillar, mexanik va elektron jihozlar, plastmassa va ulardan tayyorlangan buyumlar keltiriladi. O‘zbekiston va Janubiy Koreya “Koreya – Markaziy Osiyo” ko‘p tomonlama hamkorlik forumida faol ishtirok etmoqda.

**2017-yilning 9-iyun** kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida bo‘lib o‘tayotgan ShHT sammiti doirasida Hindiston Bosh vaziri *Narendra Modi* bilan uchrashdi. Uchrashuvda tomonlar siyosiy muloqotga alohida ahamiyat qaratayotgani, shuningdek, xalqaro tuzilmalar doirasida bir-birini qo‘llab-quvvatlash amaliyotini davom ettirayotgani ta’kidlandi.



Qo‘shma dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish, telekommunikatsiya uskunalari ishlab chiqarish, meva-sabzavotlarni qayta ishlash, ipak va charm xomashyosi, avtomobil butlovchi qismlari, elektrotexnika mahsulotlari, maishiy kimyo va o‘simliklarni himoya qilish kabi tarmoqlarda loyihalarni birgalikda amalga oshirish imkoniyatlari. mahsulotlar ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston bilan Hindiston o‘rtasida savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikda ijobiy o‘shish kuzatilmoqda. Hindistondan mamlakatimizga import qilinadigan asosiy mahsulot farmatsevtika mahsulotlari, organik kimyoviy birikmalar, mexanik asbob-uskunalar, qog‘oz va karton, oziq-ovqat mahsulotlari, optik asboblari, ko‘nchilik va bo‘yash ekstraktlari va boshqalardir. Hindiston biznesi vakillarini transkontinental ishlab chiqarish imkoniyatlari ayniqsa qiziqtirmoqda. Navoiy shahri aeroportidagi intermodal xab. Hozirda ushbu xalqaro markazdan Hindistonning Dehli va Mumbai kabi sanoat markazlariga muntazam reyslar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz ko‘p asrlik umumiy tarix, yagona til va din, umumiy qadriyatlar va o‘xshash urf-odatlariga ega bo‘lgan Turkiya davlati bilan do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiradi. Mamlakatimiz Turkiya bilan har taraflama manfaatli hamkorlikni, jumladan savdo-sotiq, investitsiya va turizm kabi sohalarda rivojlantiradi. **2017-yilning oktyabr** oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiyaga tashrif buyurdi. 2018-yilning aprel oyida Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an Toshkentga rasmiy tashrif bilan keldi. 2020-yilda Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasida harbiy hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi. **2021-yil 7-mart** kuni Samarqand shahrida Turkiyaning bosh konsulligi ochildi. **2022-yil 29-30-mart** kunlari Turkiya Prezidenti O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari darajasida ko‘p qirrali O‘zbekiston-Turkiya hamkorligini yanada kengaytirishga qaratilgan **9 ta** hujjat imzolandi.

O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi va Yevropa davlatlari bilan har taraflama manfaatli hamkorlikka muhim ahamiyat beradi. Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlikni asosiy sohalari savdo-sotiqni rivojlantirish, investitiya va moliya, zamonaviy texnologiyalar

transferi, ilm-fan, texnika, ta'lim, ekologiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va mintaqaviy xavfsizlik kabilar hisoblanadi. O'zbekiston asosiy e'tiborini Yevropaning ilg'or davlatlari, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Italiya, Ispaniya, Latviya va boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori darajaga chiqarishga alohida e'tibor beradi.

O'zbekiston tashqi siyosatida yangi industrial rivojlanayotgan mamlakatlar bilan yaqin munosabatlar va hamkorlik o'rnatish hamda rivojlantirishga ham katta e'tibor berilayotir. Bunday davlatlar toifasiga to'la ma'noda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarini kiritish mumkin. Janubi-sharqiy Osiyoning O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatidagi o'ziga xos o'rni shu bilan belgilanadiki, bu mintaqa o'nta rivojlanayotgan mamlakatni o'z ichiga oladi. Ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi va rivojlanish sur'atlari bo'yicha Indoneziya, Malayziya, Singapur va Tailand kabi mamlakatlar ajralib turadi. Ularning mustamlaka muteligidan qutulgandan so'ng to'plagan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar borasidagi tajribasi yangi mustaqil mamlakatlar uchun asqotishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligida yurtimizda ulug' niyatlar bilan poydevori qo'yilayotgan Yangi O'zbekiston zamirida buyuk tarix yaratilmoqda. Bu olamshumul samaralar kelgusi avlodlarga munosib meros qoldirishga xizmat qilishiga, aslo shubha yo'q.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi nimdan iborat?
2. O'zbekiston tashqi siyosatda qanday tamoyillarga asoslanadi?
3. "Bir makon, bir yo'l" loyihasi nima maqsadda tashkil etilgan?
4. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?
5. 2017-yil Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda qanday tub o'zgarishlar bo'ldi?
6. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning xorijiy mamlakatlardagi ilk tashrif qaysi davlatga bo'ldi?

7. O‘zbekiston qaysi davlatlar bilan strategik sherikchilik to‘g‘risida shartnoma imzolagan?
8. 2017-yilda Koreya va O‘zbekiston munosabatlarida qanday jarayonlar kuzatildi?
9. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida qanday takliflarni bildirdi?
10. Shavkat Mirziyoyev Rossiyaning qanday davlat mukofoti bilan taqdirlangan?
11. Toshkent shahrida o‘tgan “Markaziy Osiyo – AQSh” formatidagi navbatdagi yig‘ilishda qanday masalalar ko‘rildi?
12. O‘zbekiston Janubiy Koreya bilan qaysi sohalarda hamkorlik qilmoqda?
13. O‘zbekiston Hindiston bilan qaysi sohalarda hamkorlik qilmoqda?
14. O‘zbekiston-Turkiya munosabatlarida yangicha dinamizm shakllandi, deganda nimani tushunasiz?
15. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 93-100-maqсадlarida belgilangan asosiy vazifalar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

<b>Maqsad raqami</b>	<b>Mavzusi</b>	<b>Belgilangan vazifalar</b>
----------------------	----------------	------------------------------

## XULOSA

O‘zbekiston 2016-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyevning islohotlari sharofati bilan keng ko‘lamli asosiy tub o‘zgarishlar yo‘lini bosib o‘tdi. Mamlakat ichida bo‘lganiday, xorijda ham bugungi O‘zbekiston va yetti yil avvalgi O‘zbekiston – bu o‘zining sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ikkita butkul turlicha hodisa ekanligi borasida ekspertlar fikrlarida hamjihatlik bor.

O‘zbekiston 2022 yili nafaqat zamonaviy jahon tendensiyalari yutuqlarini qabul qiladigan va moslashtiradigan, balki o‘zi ham kamida mintaqaviy kun tartibini shakllantirgancha yuzaga chiqadigan harakatchan, yangiliklarga ochiq hamda dunyo hamjamiyatining doimiy ravishda rivojlanib boruvchi a‘zosini o‘zida aks ettirmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot falsafasini birmuncha yorqin namoyon qiladigan to‘rtta yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin.

1. *Markaziy Osiyo – O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi.* Islohotlarning e‘tirof etilgan dastlabki yutug‘i – Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarning shiddat bilan yuksalishi bo‘ldi. Mamlakatimizning Markaziy Osiyodagi qo‘shnilari bilan munosabatlarida yangi davr boshlandi va bu shunchalar qisqa muddatlarda amalga oshdiki, diplomatiya san’ati darsliklariga kiritish ham mumkin.

O‘zbekiston siyosatining yangi Markaziy Osiyo vektori haqida gapirganda ularning sifati jihatidan yaxshilanishining bir qancha indikatorlarini ta’kidlash mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlari O‘zbekistonga sayyohlik maqsadi bilan tashrif buyuruvchi fuqarolar orasida izchil birinchilikni egallaydilar. O‘zaro savdo-sotiqning o‘sishi asosiy indikatorlardan biri bo‘lib xizmat qildi.

2. *Inson kapitaliga investitsiyalar – O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni shakllantirish uchun asos sifatida.* Islohotlarning inson tafakkurini o‘zgartirishga yo‘naltirilganligi ularning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadi, chunki aynan ular yangi O‘zbekistonni yaratuvchilardir. Insoniy kapital sifati – har qanday modernizaiya va iqtisodiy muvaffaqiyatning eng muhim poydevoridir. Biroq buning ortida quruq formulalar va mulohazalar

emas, balki, avvalo, asosida harakatlar strategiyasi quriladigan g'oyalar turadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Uchinchi Renessans" g'oyasi shunday g'oya bo'ladi.

Uning mohiyati shundan iboratki, u, bir tomondan, qachonlardir zamonaviy O'zbekiston hududi o'z bilimlarini boshqa sivilizatsiya va xalqlarga beradigan jahon ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyot markazi bo'lganligi to'g'risidagi xotira yashaydigan o'tmishga, ma'naviy-tarixiy ildizlarga, milliy o'z-o'zini anglash va madaniyatning chuqur qatlamlariga murojaat qiladi.

3. *Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat.* Islohotlarning farqli tomoni ularning yaqqol ifodalangan ijtimoiy yo'nalganligi, insonga, uning ehtiyojlariga yaqinroq bo'lishga intilishi, islohotlar natijasida odamlarning tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashishiga ko'maklashish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va samarali ijtimoiy himoya tizimini yaratishdan iborat. Aynan Prezident Shavkat Mirziyoyev sharofati bilan o'tgan yillarda tabu qo'yilgan (taqiqlangan) kambag'allik muammosi jamoatchilik muhokamasiga olib chiqildi va ko'p hollarda mamlakatning ijtimoiy siyosati strategiyasini belgilay boshladi. U ilk bor bu mavzuga o'zining 2020-yil 24-yanvarida Parlamentga murojaatida to'xtalib, aholining kam ta'minlangan qatlami umumiy aholi miqdorining 12-15 foizini yoki 4-5 mln kishini tashkil etishini ta'kidladi.

Aynan shu lahzadan boshlab kambag'allikni qisqartirish muammosini hal qilishga majmuaviy yondashuvlarni ishlab chiqish boshlandi. Dastavval, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi, Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida moliyaviy-iqtisodiy masalalar va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha bosh vazir o'rinbosari lavozimi paydo bo'ldi.

4. *Inson huquqlari – davlat islohotlarining siyosiy vektori sifatida.* Muvaffaqiyatli mamlakatlar ko'rsatganidek, zamonaviylashish, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy siljishni maqsad qilgan jamiyatni isloh qilish uni liberallashtirish va fuqarolik qadriyatlarini, inson huquqlari va liberal erkinliklarning haqiqiy

tashuvchisi bo'lgan mas'uliyatli fuqaroni shakllantirmay turib, tasavvur qilish murakkab. Shu munosabat bilan O'zbekiston islohotlarida avval boshidanoq jamiyat hayotining barcha jabhalarini liberallashtirishga katta e'tibor qaratilganligi qonuniydir.

Birinchi navbatda, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot yo'lga qo'yildi, bu "hokimiyat masofasi" deb ataladigan masofani qisqartirish yo'nalishini anglatadi va bu islohotlarni umumxalq tomonidan qo'llab-quvvatlash, fuqarolarni muhokama jarayonlari, g'oyalar va takliflarni yuzaga keltirish, qaror qabul qilishga bevosita ta'sir ko'rsatish jarayonlarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini berdi.

Islohotlarning eng muhim yutuqlari orasida Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyaning qabul qilinishini, Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishini va ekstremizmga shubha qilinayotganlarning "qora ro'yxat"idan voz kechishni hamda propiska institutining isloh qilinishi va fuqarolik berish tartibining soddalashtirilishini keltirish mumkin. O'zbekistonning tan olingan yutug'i Xalqaro mehnat tashkilotining "O'zbekiston 2021-yili paxtachilikda ishlab chiqarish siklidan majburiy va bolalar mehnatini yo'q qilishga muvaffaq bo'ldi", deb e'lon qilgani, natijada Cotton Campaign koalitsiyasi tomonidan o'zbek paxtasidan o'n yillik global boykot olib tashlanganini e'lon qilishi, shu bilan O'zbekiston to'qimachilik tarmog'iga kiyim-kechak va riteylerning yetakchi jahon brendlarini kirib kelishi uchun sharoit yaratilgani bo'ldi.

Mamlakatda 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasining qabul qilingani va O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyaning tashkil etilganligi inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi yutuqdir. Mamlakatimiz siyosiy hayotida ayollarning faol ishtiroki ortib bormoqda. Parlament saylovi yakunlarining ko'rsatishicha, xotin-qizlar barcha saylangan deputatlarning 32 foizini tashkil etdi.

## GLOSSARIY

**Afv etish** – sud hukmi bilan jazo tayinlangan biror shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish yoki berilgan jazoni yengillashtirish. Odatda afv davlat boshlig‘ining qarori bilan amalga kiritiladi.

**Advokatura** – huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko‘ngilli, kasbiy birlashmalarini o‘z ichiga oladi. O‘zb.Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuni 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan.

**Adliya** (arab. adolat) – sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

**Amnistiya** – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to‘liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya‘ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

**Apatrid** – fuqaroligi bo‘lmagan shaxs, muayyan mamlakatning fuqarosi hisoblanmaydigan va biron chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘lmagan shaxs.

**Bakalavr** (lot. baccalaureus) – oliy ta‘lim dasturining birinchi bosqichini tugallagan talabalarning ilmiy darajasi.

**Baynalmilal** (arabcha millatlar o‘rtasidagi, millatlararo) – xalqaro, umuminsoniy, umumxalqiy mazmunlarida qo‘llaniladi.

**Bipartizm** – ijtimoiy sheriklikning ikki sub’yekti o‘rtasidagi kelishuv.

**Bozor infratuzilmasi** – bu bozor aloqalarini o‘rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar tizimidir.

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uygʻunlashtirishni taʼminlaydigan dastak va vositalardir.

**Bunyodkor gʻoya** – jamiyatni taraqqiyot sari etaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yoʻlida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari boʻlgan gʻoya.

**Daxldorlik hissi** – fuqarolarning tugʻilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmui.

**Deklaratsiya** (lot. declaratio - maʼlum qilaman, eʼlon qilaman) – 1) bir yoki bir necha hukumatlar, siyosiy partiyalar, xalqaro yoki jamoat tashkilotlarining dasturiy hujjat, muhim xalqaro voqea, qonun va h.k.ni umum eʼtiboriga yetkazuvchi bayonoti; umumsiyosiy prinsiplarni tantanali ravishda eʼlon etish (mas, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Oʻzbekistan Respublikasi Mustaqillik deklaratsiyasi); 2) soliq toʻlovchining daromadlar xususiyati va miqdori toʻgʻrisida bayon qilishi; 3) pochta bilan mamlakat tashkarisiga yuboriladigan pul va qimmatbaho paketlarga ilova qilinadigan hujjat; 4) chegaradan oʻtuvchi shaxs oʻzida buyumlar, qimmatbaho narsalar va h.k. borligi va ular miqdori toʻgʻrisida bojxonaga topshiradigan maʼlumot.

**Delimitatsiya** (lot. delimitatio „belgilash“) – davlat chegarasini qoʻshni davlatlar oʻrtasida muzokaralar yoʻli bilan umumiy holati va yoʻnalishini belgilab olish, belgilangan chegaralarni qayta koʻrib chiqish.

**Demarkatsiya** (lot demarcati „ajratish“) – biron-bir ajratuvchi chizigʻni oʻtkazilishi va chegarani aniqlash. Chegarani demarkatsiyalash – chegara belgilarini koʻrsatgan holda davlat chegara hududini belgilash.

**Demokratik institutlar** – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchidemokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi. jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

**Demokratiya** (yunoncha, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati maʼnosini anglatib, xalqni hokimiyat



manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo‘lib, davlat konstitutsiyasida ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili rasmiy e‘lon qilindi, hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e‘tirof etildi.

**Demokratlashtirish** – demokratik tamoyillarni siyosiy tizimga, madaniyatga, turmush tarziga va boshqalarga joriy etish jarayoni.

**Deputat** (lot. deputatus - vakil qilingan, yuborilgan) – vakolatli davlat organiga saylangan kishi, vakil.

**Devalvatsiya** (de va lot. valeo – qiymat) – milliy pul birligi kursining chet el valyutalari (erkin almashtiriladigan valyutalar, xalqaro hisob birliklari)ga nisbatan pasaytirilishi. D. davlat tomonidan rasmiy ravishda e‘lon qilinadi va qonunchilik asosida amalga oshiriladi. D. mamlakat savdo va to‘lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta rezervining holdan toyishi, xalqaro valyuta bozorlarida milliy valyuta kursining pasayishi bilan bog‘liq holda yuz beradi.

**Diaspora** – yun. diaspora - tarqalish ma‘nosida bo‘lib, ma‘lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o‘z davlat tuzilmasiga ega, ma‘lum bir xalq millat vakillarining yig‘indisi (masalan O‘zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

**Diversifikatsiya** (lot. diversifi catio – o‘zgarish, xilma-xil taraqqiyot) – korxonalar (birlashmalar)ning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Diversifikatsiya ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va b. maqsadlarda amalga oshiriladi.

**Diniy bag‘rikenglik** – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e‘tiqod vujudga keltiradi.

**Doktrina** (lotincha – ta‘limot; o‘qimishlilik) – ilmiy yoki falsafiy ta‘limot, nazariya; asosiy nazariy yoki siyosiy nuqtayi nazar.

**Dotatsiya** (lot. - tuhfa) – ma’lum harajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotning bir sub’yekta tomonidan ikkinchisiga qaytarib bermaslik sharti bilan pul mablag‘i berilishi.

**Evolyusiya** (lotin tilidan tarjimai – boshlash, vujudga kelish) – tizimning rivojlanish jarayonini anglatadigan tushuncha bo‘lib, birinchi galda jamiyatga xosdir. Unga ko‘ra, jamiyatda asta-sekin yuz berayotgan o‘zgarishlar tizimga, uning tuzilmalari tashkil qilinishi va funksiyalari sifatli o‘zgarishiga olib keladi.

**Elektorat** – saylovlarda ma’lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma’lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

**Elektron hukumat** (ingl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo‘lgan davlat xizmatlarining to‘plamini ko‘rsatish usulidir. Bunda davlat va arizachi o‘rtasidagi o‘zaro shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda axborot texnologiyalardan foydalaniladi.

**Emissiya** (fr. emission – chiqarish; pul emissiyasi) – muomalaga yangi pullarni chiqarish, muamaladagi pul hajmini ko‘paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo‘lishi mumkin.

**Faol (aktiv) saylov huquqi** – fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylash huquqi.

**Fraksiya** (lot. fractio-buzish, sinish, darz ketish) – parlament a‘zoligiga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

**Fuqarolik** – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog‘liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

**Fuqarolik jamiyati** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta‘minlangan ijtimoiy makondir.

**Fuqarolik jamiyati institutlari** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

**Globallashuv** – bu butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir.

**G‘oya** – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari etaklaydigan kuchli, teran fikr

**G‘oyaviy bo‘shliq** – deb, eski xukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog‘liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o‘tmish va kelajakka dahldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to‘liq anglab etmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo‘shliqqa aytiladi.

**Gumanizm** (insonparvarlik) – tenglik, adolat, o‘zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari singdirilgan dunyoqarash.

**Huquqiy davlat** – huquq, Konstitutsiya va qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o‘z ma’suliyatlarini his qilishlari, o‘z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma’suliyatlarini his qilishlari kerak.

**Identifikatsiya** (lot. o‘xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamoq) – monandlik. Siyosiy identifikatsiya – u yoki bu siyosiy guruhga o‘zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

**Ijtimoiy adolat** – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

**Ijtimoiy manfaat** – bu barcha jamiyat a’zolarining birgalikda ro‘yobga chiqadigan manfaatlaridir.

**Ijtimoiy uyushmalar** – fuqarolar manfaatlari umumiyligi va ixtiyoriylik asosida vujudga keluvchi, lekin o‘z faoliyati natijasida daromad olishni ko‘zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma’rifiy, sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, jamg‘armalar, assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko‘ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir.

**Ijtimoiy hamkorlik** – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.

**Ijtimoiy sheriklik** – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir

**Iqtisodiy resurslar** – ma’lum davrda ma’lum bir mamlakat ixtiyorida to‘plangan va mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ularni iste’molchilarga etkazib berish va iste’mol jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositalar, qo‘r-quitlar, imkoniyatlar va manbalardir

**Innovatsiya** (ingl. kiritilgan yangilik, ixtiro) – ilg‘or texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo‘llanishi.

**Inson huquqlari** – unga tor ma’noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o‘zboshimchalik va noqonuniy ushlab yoki qamash, vijdon va din erkinligi, otionalarning o‘z bolalarini tarbiya qilish huquqlari kiradi. Keng ma’nodagi inson huquqlari esa o‘zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi

**Integratsiya** (lot. tiklash, to‘ldirish) – ayrim qismlarning, elementlarni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni.

**Interaktiv davlat xizmatlari** – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ko‘rsatiladigan xizmatlar. Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013-yil 1-iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar bilan o‘zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi [my.gov.uz](http://my.gov.uz) - yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko‘rsatiladi.

**Infratuzilma** – ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan me‘yoriy sharoitni ta‘minlashga xizmat qiladigan turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmui.

**Jamiyat** – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig‘indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma‘naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiy orzu-maqсадlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

**Jamoat birlashmalari** – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

**Jamoatchilik nazorati** – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o‘zini-o‘zi boshqarish, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari tomonidan qonun doiralarida olib boriladigan nazorat hisoblanadi.

**Kasaba uyushmalari** – korxonalar, muassasa, o‘quv yurti va boshqa mehnat jamolarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti.

**Klaster siyosati** – klaster tarkibiga kiruvchi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ularning shakllanishini rag‘batlantiruvchi institutlarni rivojlantirish, shuningdek, innovatsiyalarni joriy etishni ta‘minlaydigan klasterlar va klaster tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat va jamoat chora-tadbirlari va mexanizmlari majmuidir.

**Konfessiya** (lot. Cōnfessio) – dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo‘nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

**Konsepsiya** – biror sohani rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli loyiha yoki qarashlar majmui.

**Konvertatsiya** (lot. convertatio – o‘zgartirish, aylantirish) – milliy valyutaning amaldagi kurs bo‘yicha boshqa xorijiy valyutalarga erkin va cheklanmagan miqdorda almashtirilishi.

**Kooperatsiya** (lot. cooperatio-hamkorlik) – ko‘pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o‘zaro bir-birlariga bog‘lik o‘lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayirboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

**Ko‘ppartiyaviylik** – mamlakat parlamentida ko‘pchilik o‘rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

**Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari** – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

**Kuchli fuqarolik jamiyati** – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta‘minlangan, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat.

**Legitimlik** (lot. qonuniy) – muayyan davlat hokimyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an‘anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo‘ladi.

**Liberallashtirish** – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo‘lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo‘lini e‘tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

**Liberalizm** (fransuzcha libéralisme) – odamlarning o‘zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin degan nuqtai nazarga asoslangan falsafiy, iqtisodiy va siyosiy dunyoqarash, nazariya.

**Lizing** – bu uzoq muddatli ijara bo‘lib, uning oxirida ijaraga olingan obyektini sotib olish imkonini beradi.

**Logistika** (yun. logistike – hisoblash, muhokama san‘ati) – Inson faoliyatining u yoki bu sohasini moddiy-texnik ta‘minlashni boshqarish tizimi.

**Magistr** (lot. boshliq, ustoz) – ayrim mamlakatlarda bakalavr va fan doktori o‘rtasidagi ilmiy daraja. Tayanch oliy ta‘lim kursidan so‘ng qo‘shimcha dastur bajargan, maxsus imtihonlarni topshirgan va muayyan ilmiy ishni himoya qilgan shaxslarga beriladi.

**Mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruv** – ma‘muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo‘yiladigan organlar hamda ularning ma‘muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

**Ma‘naviy tahdid** – tili, dini, e‘tiqodidan qat‘i nazar, har qaysi odamning tom ma‘nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutadi.

**Ma‘naviyat** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e‘tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

**Ma‘naviyatga tahdid** – inson qalbi va imon e‘tiqodini susaytirishga qaratilgan hamda insonning o‘zligidan begonalashtirib, kelajagidan mahrum etishga yo‘naltirilgan yot va begona g‘oyalar.

**Ma‘rifat** – ta‘lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma‘naviy boyliklarning, ularni yanada ko‘paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

**Mentalitet** (nem. – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an‘analari, rasm-rusumlari, urfodatlarini, diniy e‘tiqod va irimlarini qamrab oladi.

**Millat** – til, ma‘naviyat, milliy o‘zlikni angash ruhiyati, urfodatlar, an‘analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil sub‘yekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir.

**Millatlararo munosabatlar** – birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o‘rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

**Millatlararo totuvlik g‘oyasi** – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o‘zbek millati va shu bilan birga o‘zlarining o‘rtasida ko‘p yillarga mo‘ljallangan ezgulik, ishonchlilik, do‘stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma’naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosaliilik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi.

**Milliy g‘oya** – ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e‘zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlari yig‘indisi.

**Milliy qadriyat** – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyat shakli.

**Milliy mafkura** – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo‘lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g‘oyaviy asoslash, ta’minlashga qaratilgan qarashlar tizimi

**Milliy tiklanish** – milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlar, ko‘p asrlik tariximizni chuqur o‘rganish, tiklash, qadrlash va targ‘ib etish, har bir vatandoshimiz ongida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish va mustahkamlashda jamiyatning hamjihatlikdagi harakatidir.

**Milliy yuksalish** – mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning siyosiy-huquqiy tafakkuri, hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko‘tarish yo‘lidagi harakatdir.

**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari** – jonajon O‘zbekistonni qudratli davlat, O‘zbekiston xalqini farovon el bo‘lish yo‘lida birlashtiruvchi da’vat.

**Modernizatsiya** (modern – zamonaviy) – yangilanish, zamonaviy; davlat, jamiyat, iqtisodiyot, texnologiya va boshqa sohalarning yangilanishi, yangi uslublar, ixtirolarning qo‘llanishi asosidagi o‘zgarishlar.



**Majoritar saylov tizimi** (frans. majorite - kupchilik suzidan) – vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko‘p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro‘yxati) muayyan okrug bo‘yicha saylangan hisoblanadi.

**Mulkchilik munosabatlari** – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o‘zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Nizom** – muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

**Nodavlat notijorat tashkiloti** (NNT) – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

**Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari** – o‘z oldida Internet tarmog‘ida ommaviy axborot vositasi (OAV) funksiyalarini bajarish vazifasini qo‘yuvchi nodavlat tushdagi ro‘yxatga olingan veb-saytlari.

**Ombudsman** – inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qilish uchun maxsus saylanadigan (yoki tayinlanadigan) mansabdor shaxs. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo‘lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta‘minlash vakolatlari berilgan.

**Ommaviy axborot vositalari** – keng ko‘lamda axborotni yig‘ish, ishlash va tarqatishni ta‘minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televidenie va h.k.). Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb

saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

**Parlament** – ingl. parliament, frans. parlargapirmoq va soʻzlamoq; parlament oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

**Partiya** (lot. partio - boʻlak, qism) – Gʻoyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari bir boʻlgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy tashkilot.

**Plyuralizm** (lot. pluralis-turlicha, turli tuman) – turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud boʻlgan siyosiy tizim.

**Prezident** (lot. praesidens (praesidentis) – oldinda oʻtiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi soʻzlaridan olingan boʻlib, koʻpchilik Prezidentlik va parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda maʼlum bir muddatga saylangan davlat boshligʻi.

**Proporsional saylov tizimi** (proportionalis – mutanosib) – ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi boʻlib, bunda mandatlar oʻz nomzodlarini vakillik organlariga qoʻygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar oʻrtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi.

**Qonun ustuvorligi** – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qatʼiy hukmron boʻladi. Yaʼni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga boʻysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tadbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

**Ratsional** (lot. rationalis-oqilona) – maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng toʻgʻri yoʻl maʼnosida ham ishlatiladi).

**Referendum** (lotincha – maʼlum qilinishi zarur boʻlgan narsa) – davlat ahamiyatiga ega boʻlgan muhim masalalar boʻyicha oʻtkaziladigan va baʼzan qonun qabul qilish uchun asos boʻlib

xizmat qiladigan umumxalq so‘rovi, ovoz berish yo‘li bilan xalq fikrini aniqlash.

**Sammit** (ingl. tepa, yuqori, cho‘qqi; yuksak daraja) – ikki yoki bir necha davlat boshliqlarining muhim xalqaro masalalar bo‘yicha uchrashuvi; oliy darajadagi kengash.

**Sanksiya** – huquqshunoslikda huquqbuzarga nisbatan qo‘llaniladigan va uning uchun muayyan oqibatlar keltiruvchi chora.

**Saylov** – aholining rasmiy mansabni egallash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir.

**Saylov huquqi** – davlat boshlig‘i, vakillik organlari va boshqani saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisi. Saylov huquqi, odatda, konstitutsiya va saylov to‘g‘risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi.

**Seminariya** – 1) Boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari tayyorlaydigan maxsus o‘quv yurti; 2) xristian cherkovlari uchun ruhoniylar tayyorlaydigan o‘quv yurti.

**Senat** (lot. senatus-eski, qariya) – ko‘pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

**Sessiya** (lot. sessio – majlis, yig‘ilish) – ish, mashg‘uloti davriy ravishda amalga oshiriladigan vakolatli organlarning, sud yoki jamiyatlarning ish, yig‘ilish o‘tkazadigan davri.

**Siyosiy partiyalar** – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

**Siyosiy tizim** – jamiyatda davlat hokimiyati va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar harakatlarida o‘z ifodasini topadi.

**Skrining** (ing. – saralash) – maxsus usullar yordamida kasallikni erta va tez aniqlash uchun aholini ommaviy tekshirishdan o‘tkazish.

**Strategiya** – uzoqqa boruvchi ta’sir vositalari va uslublari; maqsadni istiqbolli dinamik aniqlab olish.

**Subordinatsiya** – (lot.) tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariga tegishli holda martaba darajalari bo‘yicha kichik mansabdorlarni katta mansabdorlarga bo‘ysunishiga qat’iy amal qilish.

**Subsidiya** (lotincha: subsidium – yordam, nafaqa, qo‘llabquvvatlash) – davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar mablag‘lari yoki maxsus fondlardan jismoniy va yuridik shaxslarga, mahalliy organlarga, boshqa davlatlarga beriladigan pul mablag‘i yoki natural shaklidagi yordam. Mablag‘lar ko‘rinishidagi aniq manzilli Subsidiyalar bevosita, soliq yoki boshqa imtiyozlarni joriy etish bilvosita Subsidiya deb ataladi. Subsidiya davlat tomonidan qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladi.

**Suveren** – fran. souverain - oliy so‘zidan olingan bo‘lib, oliy, suverenitetga ega bo‘lish, mustaqil, qaram bo‘lmagan ma’nolarini beradi.

**Suverenitet** (fran. “souveränität”) – davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo‘l qo‘ymagan holdagi mustaqilligi.

**Tolerantlik** (fr. Tolyrant, lat. tolerāns-tolerantis) – hozirgi o‘zbek tilida lug‘aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma’nolarini anglatadi. XX asrga qadar tolerantlik tushunchasining ayniqsa din bilan bog‘liq muruvvat ma’nosidagi talqinlariga ko‘p duch kelish mumkin. Lekin mazkur asr boshlaridan texnika taraqqiyoti va uning asosida mehnatni tashkil etish munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida tolerantlik tushunchasi davlat va xalq munosabatlarida, ayniqsa huquqiy munosabatlar tizimida keng mazmun kasb etadi. Endi tushuncha chidam, sabr-toqat ma’nolarini yo‘qotmagan holda ko‘proq bag‘rikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

**Transchegaraviy** – chegaralararo, bir necha davlat hududidan o‘tuvchi. Daryolar va yo‘larga nisbatan qo‘llaniladi.

**Tranzaksiya** (ingl. bank transaction, ot lot. transactio - kelishuv, shartnoma) – bu sotib olishga doir sharnomani tuzish/moliyaviy vositalarni sotishga doir shartnoma. Bank tranzaksiyasi, deganda bir bank hisob raqamidan ikkinchisiga yoki bank ichidagi bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul mablag‘larini o‘tkazish tushuniladi.

**Transformatsiya** (lot. transformatio – o‘zgarish) – tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o‘zgartirish, faroliyatning maqsadli yo‘nalishini o‘zgartirish.

**Tripartizm** – ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasidagi kelishuv.

**Uchinchi sektor** – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko‘rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo‘llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

**Valyuta konvertatsiyasi** (lot. conversio – almashtirish) – valyuta almashinuvi mamlakat milliy valyutasining xorijiy valyutalarga yoki xalqaro to‘lov vositasi sifatida amal qiluvchi valyutaga erkin almashtirilishi.

**Vayronkor (buzg‘unchi) g‘oya** – yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o‘rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo‘lgan g‘oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

**Veto** (lot. veto - taqiqlayman) – rivojlangan davlatlarda bironta organ, tashkilot qonuni yoki qarorining kuchga kirishini to‘xtatish yoki kuchga kirishiga yo‘l qo‘ymaslik huquqi.

**Vijdon erkinligi** – ijtimoi-falsafiy tushuncha; har kimning o‘z e‘tiqodiga ko‘ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me‘yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo‘yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Fuqarolarning istalgan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qanday dinga e‘tiqod qilmaslik huquqi.

**Votum** (lot. votum - xohish, iroda) – saylov jamoasi yoki vakillik muassasasining ko‘pchilik ovozi bilan ifodalangan yoki qabul qilingan fikri yoki qarori. Masalan, saylov votumi – prezident, parlament, munitsipalitet va boshqalarga saylovlarda saylov kampaniyasining natijasi.

**Yurisdiksiya** (lotincha – sud qilish, sud jarayoni) – huquqiy masalalarni hal qilish, sudlov ishlarini olib borish huquqi. Muayyan davlat organi vakolatlari doirasidagi huquq sohasi.

**O‘zini o‘zi boshqarish** (ingl. municipal o‘zini o‘zi boshqarish) – u yoki bu ma’muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma’muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarni boshqarishga aytiladi. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig‘inlari kiradi.

**Shafe** (tarafini oluvchi, homiy; vositachi) – birovga yon bosuvchi, homiylik qiluvchi, homiy.

## **ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichqa ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O‘zbekiston. 2018.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: O‘zbekiston. 2019.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2021.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2022.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O‘zbekiston. 2022.

### **II. Asosiy adabiyotlar:**

8. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov. – T., 2023.
9. Xoliqova R.E. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. – T., 2021.
10. Oblamurodov N., Tolipov F. O‘zbekiston tarixi. – T., 2021.
11. Новейшая история Узбекистана. Учебник для вузов. Издание 2-е, дополненное. Под редакции М.А.Рахимов. – T.: Nurafshon business, 2020.
12. Турдимуратов Я.А., Назаров О.М. Новейшая история Узбекистана. Учебное пособие. – T.: O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021.
13. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: Ma’naviyat, 2017.

### **III. Qo‘shimcha adabiyotlar:**

14. Azizxo‘jayev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – T., 2001.
15. Ergashev Q., Hamidov X. O‘zbekiston tarixi. – T.: G‘ofur G‘ulom, 2015.

16. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. – T.: Ma’naviyat, 2011.
17. Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiyalashva demokratik taraqqiyot sari. – T.: O‘zbekiston. 2005.
18. Jo‘rayev N., Fayzullayev T. O‘zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. – T.: Sharq, 2000.
19. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. – T.: Mumtoz so‘z, 2019.
20. Mustaqil O‘zbekistan tarixining dastlabki sahifalari. – T., 2000.
21. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sobirov. – T.: Akademiya, 2013.
22. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. – T.: Moliya, 2003.
23. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. Milliy istiqlol davri. – T.: O‘qituvchi, 2007.
24. O‘zbekiston tarixi. R.H. Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. – T., 2005.
25. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik: tarixiy tajriba va hozirgi zamon. Mas’ul muharrir R.H. Murtazayeva. – T.: Mumtoz so‘z, 2010.
26. G‘ulomov S., Ubaydullayeva R., Ahmedov E. O‘zbekiston. – T.: Mehnat, 2001.

#### **IV. Internet resurslari:**

1. [www.president.uz](http://www.president.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. [www.strategy.uz](http://www.strategy.uz) – “Taraqqiyot strategiyasi” markazi veb-sayti.
5. [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz) – “Yangi O‘zbekiston” gazetasi onlayn nashri veb-sayti.
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali.
7. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi veb-sayti.
8. [www.minsport.uz](http://www.minsport.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi veb-sayti.
9. [www.olympic.uz](http://www.olympic.uz) – O‘zbekiston Milliy olimpia qo‘mitasi veb-sayti.
10. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot agentligi veb-sayti.



10. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz) – axborotlar veb-sayti.
11. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi veb-sayti.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-§. Milliy tiklanish davri va uning o‘ziga hos xususiyatlari .....	6
2-§. Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi .....	20
3-§. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi .....	34
4-§. O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish sohasidagi islohotlar .....	49
5-§. Qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar.....	65
6-§. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va liberallashtirish – iqtisodiy islohotlarning muhim asosi .....	82
7-§. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish – davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishi .....	98
8-§. Yangi O‘zbekistonda ma‘naviy va madaniy taraqqiyot .....	118
9-§. Yangi O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid davlat siyosati.....	133
10-§. Yangi O‘zbekiston faol tashqi siyosati .....	152
Xulosa .....	171
Glossariy .....	174
Adabiyotlar va manbalar ro‘yxati .....	190

**Artikbayev O.S., Turdimuratov Ya.A.**

# **YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI**

*(o‘quv qo‘llanma)*

Muharrir: Mansur YUNUS  
Texnik muharrir: N.Irgasheva  
Sahifalovchi: E.Otamurodova



Litsenziya AI № 032465 / 15.07.2022  
Bosishga ruhsat etildi: 12.01.2024 Ofset qog‘oz.  
qog‘oz bichimi 64x84 1/16 Times garniturası.  
Shartli bosma tabog‘i 12.15. Nashr hisob tabog‘i 11,27. Adadi 100

“ZAMON POLIGRAF” OK bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri Yunusobod tumani,  
Bobodehqon mahallasi 45-uy.



**Artikbayev Oybek Salimaxamatovich** – dotsent. 1978-yilda Toshkent viloyati Chinoz tumani Yallama qishlog'ida tug'ilgan. 2000-yilda O'zbekiston Milliy universiteti bakalavr, 2002-yilda magistraturasini, 2005-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti aspiranturasini tamomlagan.

Darslik, o'quv qo'llanmalar muallifi va 40 dan ortiq ilmiy maqolalari xorijiy va milliy nashrlarda e'lon qilingan. Hozirda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



**Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). 1980-yilda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanida tug'ilgan. 2000-yilda TerDU bakalavr, 2004-yilda O'zMU magistratura bosqichini tarix va etnografiya yo'nalishi bo'yicha tamomlagan. Muallif tomonidan

1 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya va 3 ta uslubiy qo'llanma, 50 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan. Bir qator respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar ishtirokchisi. Muallif "Etnografiya, etnologiya va antropologiya" ixtisosligi bo'yicha tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Hozirda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy fanlar" kafedrasini dotsenti lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

7670



ISBN-978-9910-9970-5-1



9 789910 997051